



# MAKETLASHTIRISH

A. KALANOV  
A. UMAROV  
J. RASHIDOV



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI  
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK  
VA DIZAYN INSTITUTI

«Miniatyura va kitob grafikasi» kafedrasи

A.D. KALANOV, A.A. UMAROV,  
J.X. RASHIDOV

# MAKETLASHTIRISH

*fanidan o'quv qo'llanma  
bakalavr yo'nalishi dasturi asosida yaratilgan*

Bilim sohasi: 100 000 – Gumanitar  
Ta'lim sohasi: 150 000 – San'at  
Ta'lim yo'nalishi: 5151000 – Grafika  
(dastgohli va kitob grafikasi)



*Cho'lpox nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2019*

UDK 070(075.8)

BBK 76.17ya73

K 18

*Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2019-yil 2-maydagi «394»-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berildi.*

*Ro'yxatga olish raqami 394 – 047*

**Kalanov, A.D.**

K 18      Maketlashtirish [Matn]: o'quv qo'llanma/A.D. Kalanov, A.A. Umarov, J.X. O'g'li Rashidov/Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi. — T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019. — 152 b.  
ISBN 978-9943-6134-0-9

«Maketlashtirish» fanidan ilk bor yaratilayotgan ushbu o'quv qo'llanmada kitobning paydo bo'lish tarixidan hozirgi eng rivojlangan kitob dizayni va maketini tayyorlashgacha bo'lgan jarayon bosqichma-bosqich ilmiy va amaliy mashg'ulotlar orqali batafsil ochib berilgan. Kitobning ichki va tashqi elementlari kitob grafikasi qonun-qoidalariga asoslanib tuzilgan. Mazkur o'quv qo'llanma grafik rassom va talabalarga o'z mutaxassisligini mukammal egallashda juda foydalidir. Qo'llanma kitob nashriga aloqador talaba va o'qituvchilarga foydalanish uchun tavsiya etiladi.

**UDK 070(075.8)**

**BBK 76.17ya73**

ISBN 978-9943-6134-0-9

**© A.D. Kalanov va boshq., 2019**

**© Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019**

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 20-aprel 2017-yildagi PQ-2909 «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarorida keltirilgan: «Yangi avlod o‘quv qo‘llanmalarini yaratish va oliy ta’lim tizimiga keng tatbiq etish, oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minalash, jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlarni sotib olish va tarjima qilish negizida axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish<sup>1</sup>» so‘zlaridan kelib chiqib, kafedramizda yangi o‘quv qo‘llanmalar yaratilmoqda.

Bugungi kunda, nashriyot biznesini ijod gorizontini kengaytiradigan, bizning g‘oyalrimizni tatbiq etishga imkon beradigan kompyuter nashr tizimisiz tasavvur qilish qiyin. Nashr dasturlari va ishlarini professional mutaxassis bo‘lmaganlar ham oson egalashadi. Faqatgina ular taklif qilingan asboblarni qo‘llay olmaydilar. Bundan tashqari nashriyot ishlaridagi «baza» tushunchalarini bilish, nashr jarayoni haqida tasavvurga ega bo‘lishni talab etadi. Yuqorida ta’kidlangan bilimlarni egallamasdan turib to‘liq poligrafiya mahsulotini yaratish mumkin emas. Ushbu fanning maqsadi matbaa talablaridan kelib chiqib, aynan shunday tasavvurni uyg‘otish, nashrni sifatli, ya’ni uning ko‘rinishini yanada estetik, maftunkor, jalb qiluvchi tayyor mahsulot darajasiga ko‘tarishga erishishdir.

«Maketlashtirish» fani haqida umumiylashtirish tasavvurga ega bo‘lish sizga havola etayotgan materiallarimizda o‘z aksini topgan. Bu

<sup>1</sup> «Xalq so‘zi» gazetasi, 2017-yil 21-aprel, №79 (6773).

bosma mahsulotlarini yaratishni amalga oshirish uchun yordam beradi.


Ushbu o'quv qo'llanmada nashrni ketma-ket tayyorlash bosqichlari yoritilgan, ya'ni g'oyadan to maketning asl nusxasini tayyor holatga kelguncha bo'lган jarayon batapsil bayon qilingan. Kitobdagи materiallar, undagi maslahat va amaliy ko'rsatmalar sizga ularni turli nashr tizimlarida qo'llassingizga yordam beradi.

# I bob. KITOB VA KITOB BOSMANING VUJUDGA KELISH TARIXI

---

## 1.1. Kitob va kitob bosmaning vujudga kelishi

Har bir rivojlanish an'analardan boshlanadi. Kitob yaratilishin'analari uzoq o'tmishta borib taqaladi. Qadimdan kitob to'rt asosiy konstruktiv yechimga ega: qog'oz o'ramli-kitob, sopol yoki yog'ochdan tayyorlangan yassi ustma-ust taxlangan to'plam-kitob, buklama kitob (qat-qat buklangan ko'rinishda, «garmoshka» yoki «raskladushka» deb ham ataladi), kitob-kodeks (kitobning hozirgi ko'rinishiga juda yaqin). Bularning barchasi hozirgi kunda ham qo'llaniladi. Bugungi kunda eng keng qo'llaniladigan konstruktiv turi kodeks hisoblanadi. Kitob-kodeks (lot. sodex – obrubok dereva – yog'och bo'lagi) ikki ming yildan buyon mavjud. U ikkita taxtachadan iborat bo'lib (diptix), ular bir-biriga metall qistirg'ich yoki tasma bog'ichi bilan birlashtiriladi. Agar matn hajmi ko'payib ketgan taqdirda uchinchi – triptix va to'rtinchchi poliptix (bir necha, to'rt va undan ortiq) taxtachalar qo'shiladi (*I-rasm*).



*I-rasm.* Yunon-rim diptixon, triptixon va poliptixonlari ko'rinishi

Taxtachalarning botiq joyiga issiq asalari mumi quyilgan, unga o'tkir tig' yordamida belgilar yozilgan va zaruriyat bo'lgan hollarda osonlik bilan o'chirilgan. Mum taxtachalar chetidan biroz chuqur-roq joylashgan kitob bloki yopilganda mum yuzasi bir-biriga yopishib qolmagan.

Qadimgi kodeksning to'rtburchak tomonlari nisbat o'lchamlarini qurish asosini tomonlar nisbati va uning kvadrat diagonali tashkil etadi.

Kvadrat tomonlarini taxtachalar eni belgilagan, uning bo'yicha, kvadrat diagonallari, radius orqali aniqlagan (*2-rasm*).

Yozuv uchun mo'ljallangan maydon va taxtachalarning chiqib turgan cheti qalinligi misr to'r sistemasida butun maydonni kvadratlarga bo'lgan holda qo'llanilgan. Kvadrat katagi yacheykasi modul deb ataladi.



Bu – qolgan barcha elementlarning shartli o'lchov birligidir. Kitob-kodeks o'qish, yozish va xat-xabarlar uchun mo'ljallangan eng birinchi muvaffaqiyatli moslamalardan biri hisoblanadi. O'rta asrlarda u klassik shaklga erishdi, shundan buyon deyarli o'zgarishsiz saqlanib kelmoqda.

Faqat ashyolar, ularga ishlov berish texnikasi, biriktirish usullari, o'lcham va nisbatlar almashdi, kitob blokini o'rnatish esa aslligicha qoldi. Ushbu konstruksiya oddiy va qulayligi tufayli hayotga singib ketdi.

Ularni saqlash va tarqatish oson, belgilangan tartibda hamda teskari varaqlash, axborotlarni tartib bilan yoki tanlab ko'zdan kechirish, kitobni o'qishda texnik tomonlarining mosligi har tomonlama talablarga javob beradi.<sup>1</sup>

Qog'oz o'ramli-kitob ommaviyligi va mashhurligi tomondan oxirgi o'rinni egallaydi. Hozirgi kunda o'ramli-kitob juda kam uchraydi. Misol tariqasida, taxminan El Lisiskiyning yahudiy ertaklarini bezatishda tajriba sifatida yog'och g'ilofdag'i qog'oz o'rami ko'rinishini keltirish mumkin (*3-rasm*).

<sup>1</sup> *Dwight Pogue*. «Printmaking Revolution». Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Random House, Inc., New-York. 2012.



*2-rasm. Yozuvlar uchun qadimgi taxtachalar va  
ularning nisbat sxemasi*

O‘rta asr va ungacha bo‘lgan davrlarda kitob adadi qo‘lda ko‘chirilib ko‘paytirilgan: Yevropada cherkov ruhoniylari tomonidan, Osiyoda esa hukmdorlar saroyidagi kutubxonalarda ustahattotlar bajarishgan.

#### **Nazorat savollari:**

1. *Qadimdan kitob nechta asosiy konstruktiv yechimiga ega?*
2. *Kvadrat katagi yacheykasi nima deb atalgan?*
3. *Kitob-kodeksga qanday qilib yozuv tushurilgan?*



*3-rasm. M. Broderzon kitobi «PragerLegende», g‘ilof va qog‘oz o‘ramidan iborat. Rassom El Lisiskiy*

## **1.2. Movarounnahr va Xurosonda kitob tayyorlanishi tarixi. Temuriylar davrida kitob san‘ati**

Temuriylar davlatchiligi ma’naviy hayotida muhim o‘rinni qo‘lyozma kitoblar egallagan, u davrlarda hali kitob bosma ixtiro qilinmagan edi. Har qanday davrlarda O‘rta Osiyo halqlarida qo‘lyozma kitoblar alohida qimmatga ega bo‘lib, avlodlar kelajagining ma’naviy manbasi hisoblangan.

Qo‘lyozmalar uchun pergament (charm, buzoq terisi) va qog‘oz asosiy ashyo bo‘lib xizmat qilgan. O‘rta Osiyoda mahalliy qog‘oz dastlab VII asrda Samarqand va Buxoroda yaratildi va bu yerdan ko‘p davlatlarga tarqaldi. Yuqori sifatli qog‘ozning ixtiro qilinishi fan, adabiyot va san‘atning rivojlanishida muhim omillarni tashkil etdi. Shu sabab qo‘lyozma kitoblar Movarounnahr va Xuronsonning ko‘pgina shaharlarida tayyorlana boshlandi. XV asrda hunarmandlikning boshqa turlari bilan birgalikda qo‘lyozma kitob tayyorlash ishi yuqori darajaga yetgandi. Kitob san‘atining mahoratli ustalari: hattotlar, musavvirlar va sahhoflar (jild tayyorlovchi) shakllandi. O‘scha vaqtarda kitob tayyorlash uchun juda uzoq vaqt va

mashaqqatli mehnat sarf bo'lgan. Har bir kitob uchun alohida usul va yondashish talab etilgan: qog'oz va siyohni tanlashdan to jildgacha. Qo'lyozmadan yoqimli hid taralishi uchun siyoh tarkibga xushbo'y ambar va atirgul suvi qo'shilgan.

Hattotlik nafaqat nafis, balki juda ham nozik ish bo'lib, shu bilan birgalikda o'ziga xos san'atdir. Kitobning badiiy qimmati hattotning iste'dodi va mahoratiga bog'liq bo'lgan. Hattotlik kasbi chuqur bilim, keng dunyoqarash, nozik did va katta sabr-toqatni talab etgan. Tajriba va bilim ustozdan shogirdga o'tgan, shu asnoda hattotlik maktabi an'analari o'zlashtirilib rivojlanishda davom etgan.



4-rasm. Temuriylar davrida yaratilgan noyob qo'lyozma kitob

Qo'lyozma kitob mohir ustalar tomonidan bir necha nusxada tayyorlangan, bu durdonalar misli ko'rilmagan darajada qimmat-baho narxlangan. Bu xildagi kitoblar faqat hukmdorlar va juda badavlat shaxslar buyurtmasi asosida tayyorlangan.

XIV–XV asrlarda Samarqanda, Hirot, Buxoro, Tabriz singari shaharlarda tashkil etilgan kutubxonalarda ko‘plab nafis bezatilgan noyob, nodir qo‘lyozma kitoblar saqlangan.

Kutubxonalarda nafaqat kitoblar qo‘lyozmasi, ularning nusxalari saqlangan, shu bilan bir qatorda nodir qo‘lyozmalar, ularning bezatilishi, kitoblarni yig‘ish ishlari birqalikda olib borilgan. Bunday kutubxonalar o‘rtta asr davri kitob ustaxonlari hisoblangan. Kutubxona mudiri — kitobdor qo‘l ostida tajribali hattotlar, miniaturachi musavvirlar, lavvoh (lavha chizuvchi), sahhof (muqvavchi) va boshqalar ish bajarganlar. Masalan, Hirotdagi Ulug‘bekning ukasi Boysunqaroga tegishli bo‘lgan kutubxonada 40 dan ziyod hattot, bir necha miniaturachi musavvirlar ish bilan mashg‘ul bo‘lgan.

Bu kutubxonada 1429-yilda Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma» dostoni assosida ishlangan yigirmata miniaturadan iborat mashhur ro‘yxat tuzilgan.



5-rasm. M. Tabriziy. «Nastaliq» yozuvi kompozitsiyasi

Bu kitob san‘ati rivojlanishining yangi davri edi. Mashhur hattot Mirali Tabriziy (1330–1404) tomonidan ishlab chiqilgan yangi nafis hushixat – «nastaliq» dong taratib, keng tarqaldi.

Yana bir yirik vakil «Hattotlik shohi» nomi bilan mashhur bo‘lgan Sultonali Mashhadiydir (1432—1520). Bizning davrimiz-gacha Sultonali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan 50 dan ortiq kitob yetib kelgan, shu jumladan Nizomiy, Farididin Attor, Hofiz, Sa‘diy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro asarlari shular jumlasidandir.

Mashhur usta Husayn Boyqaro saroy devorlari va uning qabr toshlaridagi o‘yma hattotlik yozuvlarini ham yuqori saviyada bajargan. Usta tomonidan hattotlik san’ati haqida kitob ham yozib qoldirilgan.

XV asrning ikkinchi yarmida Xuroson hukmdori Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy kitobat ishlariga katta e’tibor qaratishdi. Ular saroy kutubxonasidagi kitoblar zahirasini boyitishga g‘amxo‘rlik qildilar. Navoiyning inisi Darvish Ali kitobdor vazifasiga tayinlangan. U kutubxonaga sara miniaturachi musavvir va hattotlarni to‘pladi, ular orasida mashhur Sultonali Mashhadiy va Rafiqiyalar ham bor edi.

Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy buyurtmalari asosida ular ko‘plab kitob va she’riy to‘plamlarni ko‘chirishgan. Zahiriddin Muhammad Boburning yozgan ma’lumoti bo‘yicha Sultonali bir kunda Husayn Boyqaroning 30 baytini va Alisher Navoiyning 20 baytini mohirona ko‘chirgan.

#### Nazorat savollari:

1. Movoraunnahrda dastlabki mahalliy qog‘oz qayerda ixtiro qilindi?
2. Lavvoj, sahhof, hattot — so‘zlarining ma’nosi nima?
3. Mashhur hattot Mirali Tabriziy tomonidan nima ishlab chiqildi?
4. «Hattotlik shohi» nomi bilan mashhur bo‘lgan shaxs kim?

#### Amaliy topshiriqlar:

1. Tarix va sharqshunoslik ilmiy tekshirish instituti muzeylaridagi qo‘lyozma kitoblarining sahifalanishini o‘rganib tahlil qiling. Uyda mustaqil tarzda ularga o‘xshash kichik hajmdagi kitob maketini yasashga urinib ko‘ring.
2. Kitob-kodeks usulida maket tayyorlang.

### 1.3. Kitob bosma ixtirochisi Logann Gutenberg (1397–1468)

XV asrning birinchi yarmi Yevropada qo‘lyozma kitoblarning eng yuqori gullagan davri bo‘ldi. Shaharliklar orasida kitob o‘qish chanqoqligi shu darajaga yetgan edi, Parijning o‘zida bir necha ming kitob nusxasini ko‘chiruvchilar bo‘lishiga qaramasdan, kitob umuman o‘quvchilarga yetishmas edi. Yuzlab mutaxassislar kitobni arzon va oddiy usul bilan sonini ko‘paytirish ustida bosh qotirishardi.

Bu paytda yevropaliklarga taxtachalar yordamida qo‘lda matn ko‘chirish usuli, ya’ni ksilografiya texnikasi ma’lum edi. Bu usul Xitoyda ixtiro qilingan bo‘lib, qo‘lda bajarilganga qaraganda yetarli darajada mahsuldor emas edi.



6-rasm. Yevropada yaratilgan qo‘lyozma kitob

Uncha katta bo‘limgan nemis shaharchasi Mayns kitob bosmaning beshigi hisoblanadi. Bu shaharchada 1397-yilda, ba’zi ma’lumotlarga qaraganda – 1400-yili, Logann Gutenberg tug‘ilgan. Bu shaxs harakatlanadigan metalldan quyilgan qolip, shu-

ningdek, harf quyadigan apparat (qolip oladigan asbob), bosma press va maxsus tipografiya bo'yog'i yordamida kitobni bosma usul bilan nusxasini ko'paytirishning ixtirochisi deb tan olingen. Bu moslamaning paydo bo'lishiga qadar, kitobning tayyorlanishi katta yutuq hisoblanib, yuqori baholangan. Bir nusxadagi kitobni tayyorlash uchun oylab, ba'zida nusxa ko'chiruvchi hattotlarning mehnati yillarga cho'zilgan. Shaxsiy kutubxonalar juda ham badavlat kishilargagina nasib qilgan.

Bizgacha yetib kelgan yig'ma, quyma qoliqlar yordamida 1456-yilda bositgan birinchi kitob 42 qatorli lotin Bibliya in-folio yoki Mazarinining bibliyasi, ko'pincha Gutenberg bibliyasi deb ataladi.

Kitob ornament va naqsh ziynatlari qo'lida bajarilgan bo'lib, faqat matn qismi bositgan. Jami o'ttiz besh nusxa teriga va bir yuz oltmissiz besh nusxa qog'ozga bositgan.

Gutenbergacha Yevropada 30 ming atrofida qo'lyozma Bibliya bo'lgan, 1450—1500-yillar davomida ikki yuz-u oltmissiz, Yevropa shaharlarida bir yarim ming tipografiyalar vujudga keldi va ularda 40 mingdan ortiq nafaqat diniy, balki adabiyot, san'at va siyosatga oid kitoblar nashr qilinib, ularning adadi 10 million nusxadan oshib ketdi. XV asrda bositgan kitoblarni inkunabula (lot. «incunabula», ma'nosi — «manba», «boshlanish») deb atashgan. Gutenberg tomonidan ixtiro qilingan bosmaning umumiy jarayoni XX asrgacha o'zgarishsiz saqlanib qoldi.<sup>1</sup>

#### **Nazorat savollari:**

1. *Kitob bosma ixtirochisi kim?*
2. *Gutenbergning ixtirosi haqida bat afsil gapirib bering.*
3. *Gutenberg bosma dastgohining kamchiligi nimada?*

---

<sup>1</sup> Alois Senefelder. «Lehbuch der Lithographie und des Steindruckes. GMBH, Paderborn, Germaniya. 2012.



**7-rasm. Kitob bosma ixtirochisi  
Johann Gensflyaysh sur Laden sum Gutenberg**




**8-rasm. Birinchi  
bosma kitob.  
42 beti Injilning  
bir sahifasi.**

**1456-y**



**9-rasm. Gutenbergning vintli bosma uskunasi**



**10-rasm. Vakuum bosimini ta'minlaydigan bir bosma forma va stoldan iborat zamonaviy bosma dastgob**

## **II-bob. MAKETLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

---

### **2.1. «Maketlashtirish» fanining usullarini o'rgatish haqida tushunchalar**

**«Maketlashtirish»** – badiiy asarning barcha elementlari (rasm, mantning turli qismlari, sarlavhalari, formula, jadval, sxema, tasvirlar, fotosuratlar)ni bir butunlikga biriktirish, uyg'unlashtirish va uning g'oyasini aks ettirish. Bo'lajak mutaxassis ushbu fan orqali maketlashtirish jarayonida kerak bo'ladigan mакет turlari, uning qoidalari, usullari, xomashyo materiallari, vositalari haqida bilimga ega bo'ladi. Maketlashtirish nafaqat amaliy jihatdan foydali, tejamkorlik tarafdan xomashyo va texnologiyalardan mukammal foydalana olish, yaratilayotgan asarga estetik, garmonik jihatdan badiiylikni izlash, bir butun va uning qismlarining o'zaro munosabat va nisbatlari haqida tushuncha berishdan iborat.

**Maket** – yaratishdagi birinchi qadam. Ijodkorning yaratayotgan mavzusining ma'naviy va fazoviy yechimini anglashi, ayniqsa, turli-tuman mavzularda asar yaratish, o'quv jarayonining tarkibiy qismi sifatida malakali mutaxassis tayyorlashda uning ahamiyati katta. Bu jarayon bo'lg'usi ijodkor rassomning dunyoqarashini shakllantirishga, mustaqil ijodda atrof olam, kundalik hayot, voqeа va hodisalarini kuzata oladigan, o'z xohish-irodasiga mos mavzu tanlab, kitob maketingining ifodali yechimini topishiga yordam beradi. Kitobga loyiha tuzish va maketing ustida ishlash jarayonida, albatta, o'qituvchi rahbarligida tegishli yo'l-yo'riqlar berilib bori-ladi. Talab etilgan hollarda mavzu bilan bog'liq loyiha tuzish va maketing tayyorlashda ustozlar bilan suhbatlar, maslahatlar o'tkazish ko'zda tutiladi. Bu maketlashtirish fanini o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Simmetriya va asimetriya, aralash, bayroqsimon, ritmik va metrik qatorlar, qabul qilingan proporsiyalar, siluet tur va chiziqlari, konstruktiv shakllar, rang, xomashyoning fakturalari, fotosuratlar, naqsh bezaklari, o'xshashlik, nyuans motivlarini

uslublashtirish, asarga kompozitsiya, sujet yaratish, loyiha tuzish – maketlashtirish fanining muhim tarkibi hisoblanadi

Mustaqil (ta'lim) ishlashda talabani badiiy ijodga o'rgatish jarayoni nafaqat auditoriyalardagi ustoz-pedagoglar bilan olib boriladigan yakka tartibdagi mashg'ulotlarga, balki o'qish jarayonida hayotni o'rganish, undan chizgi va etudlar, eskizlar chizish, loyiha tuzish va maket yaratish, uni bajarish, asarga materiallar yig'ish, ular ustidan izlanishlar olib borish, badiiy asar eskizlarining kompozitsion qurilmasi ustida ishlashga jalb qilishga ham bog'liq. Bularning barchasi ijodkor rassom-dizaynerning mustaqil ishlash mahsuli o'laroq namoyon bo'ladi. Oliy ta'limda mustaqil ta'limning ahamiyati juda katta. Chunki, ijodkor mutaxassisning o'z ustida mustaqil ishlashi uning bilim, malaka va ko'nikmalarini egallash darajasi bilan bog'liq. Talaba dars jarayonida pedagog rahbarligida olgan bilimlarini o'zlashtirish va o'z ustida mustaqil ishlash jarayonida yanada mustahkamlaydi, o'z uslubini yaratadi, sayqallaydi.

Asarlarning eskizlarining kompozitsion yechimini topish va uni yoritib berish, bajara olish, maketning shaklini yaratish kitob san'atini rivojlantirish yo'naliishlaridan biri hisoblanadi. Malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashda ijodkor rassomga yetarli shart-sharoitlar yaratishni taqozo etadi. Ayniqsa, xorijiy va Respublikamizdagi yirik grafik rassomlarning namunali asarlaridan, axborot-resurslari orqali talabalarni kitob san'ati yangiliklaridan xabardor qilish, zamonaviy homashyolar bilan ishlash, zamonaviy matbaa ishlab chiqarish usullaridan, yangi texnologik jihozlardan foydalanishni o'rgatish va boshqalardan iboratdir.

Amaliy mashg'ulotlar maketlashtirish fani o'z mohiyati, ma'no va mazmuni jihatdan san'atkor mahoratini egallash bilan bog'liq jarayon. Shu nuqtayi nazardan dizayner-rassom – ijodkorning shakllanishida to'liq ma'noda ustoz bilan olib boriladigan yakka tartibdagi amaliy mashg'ulotlar muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham fanlarning aksariyat qismini amaliy mashg'ulotlar tashkil etadi. Dizayner-rassom – ijodkor kasbiy mahoratni egallashi uchun avvalo amaliy mashg'ulotlarda o'sz zintaksiga orsata olishi lozim. Nazariy bilim, amaliy ko'nikmalarini egallashi jarayonida esa ustoz-



pedagoglar tomonidan og'zaki tushuntirishlar, maslahatlar, ko'r-satmalar, amaliy mashqlar natijasida, uni amalda qo'llash jara-yonida olib boriladi.

## 2.2. Kitob konstruksiyasi

**Kitob konstruksiyasi.** Zamonaviy kitob tashqi ko'rinishidan ikki guruhga bo'linadi: jild va muqovadagi (broshyura) kitoblar.


Jildli kitobning asosiy konstruktiv elementlari quyidagilar:

Jild qopqog'i, koreshok, kitob bloki, forzaslar.

**Kitob bloki** – falsovkalanib koreshokga biriktirilgan, bosma tushirilgan daftarchalar, taboqlar yoki alohida qog'oz varaqlari.

Chop etilib buklangan daftarchalar to'plami, koreshok tomonda biri-biriga tikiladi yoki yelimlanadi. Bu konstruksiyaning asosiy elementi, matn va tasvir materiallarining asosiy omili sanaladi.

**Koreshok** – kitob blokining yon tomoni, kitobning barcha texnologik elementlari birlashtirilgan qism: daftarchalar, doka, kaptal, lyasse. Qadimda kitob blokining qirqilgan tomoniga tilla



11-rasm. Kitob nashri jild qopqog'inining namunaviy konstruksiyasi:

B – kitob bloki; K – jild qopqog'i; 1 – kitob daftarchalari;

2 – forzas; 3 – Koreshok ashyosi (doka yoki qog'oz); 4 – kaptal;

5 – qog'oz qirqimi; 6 – belgilash bog'ichi (lyasse); 7 – karton tomon;

8 – qoplama ashyo; 9 – shpasiya (karton tomonlar oraliq'idagi masofa);

10 – otstav (tomonlar oraliq'ida joylashgan karton qismi);

11 – rasstav (karton tomonlar va otstav oraliq'i); 12 – kant' – mag'iz.

<sup>1</sup> *Qirralar* – jild qopqog'i qismi bo'lib, kitob blokidan bir necha millimetrga chiqib turadi, kitobni saqlashda shamollatib turish hamda blokning qirqilgan qismini himoya qilish vazifasini bajaradi.

suvi yogurtirilgan. Ko‘pgina hollarda blokning faqatgina yuqori kesilgan qismi, kam hollarda yon qirqilgan qismi va blokining har uch tomonlari zarhallangan, bundan kitob ko‘rkam ko‘rinishga ega bo‘lgan. Zamonaviy nashrlarda blok qirqilgan tomonlari bo‘yalgan bo‘lishi mumkin.

Shuni ta’kidlab o‘tmoq zarurki, qirqilgan tomonlarning bo‘yalishi nafaqat estetik jihatni nazarda tutgan, balki varaqlarni kitobning eng zararkunanda dushmani – changdan himoya qilgan.

Konstruksiyaning boshqa elementlari kitob blokiga xizmat qilib uni himoyalaydi va mexanik moslama sifatida to‘ldirib, transportda tashish va boshqa hollarda katta vazifani o‘taydi. Kitob blokining koreshok moslamasi sahifalarni varaqlash vazifasini hamda jild qopqog‘i, supermuqova, kaptal, forzaslarni tashqi himoyasini ta’minlaydi. Konstruksiya tayyorlanadigan ashyolar: qog‘oz, karton, charm, mato, doka, elim va b. q.

#### **Nazorat savollari:**

1. *Kitob konstruksiyasining elementlarini sanab bering.*
2. *Zamonaviy kitobning tashqi ko‘rinishi necha guruhga bo‘linadi? Ularga misollar keltiring.*
3. *Kitob bloki tomonlari nima uchun bo‘yalgan?*
4. *Kitob tashqi himoyasiga nimalar kiradi?*

### **2.3. Kitob kompozitsion elementlarining atamalari**

#### **♦ Kitob tashqi bezagi elementlari:**

*supermuqova;*

*muqova, jild;*

*g‘ilof;*

*forzas;*

*koreshok (jild tomonlarini birlashtiruvchi element, yon tomoni).*

#### **♦ Kitob ichki bezagi elementlari:**

*titul;*


*avantitul;*

*frontispis;*

*ketma-ket ikki tutash betli titul;*

*boshlang‘ich sahifa;*

*shmustitul;*  
*illyustratsiya (zastavka) – bezak, boshlang‘ich lavha;*  
*sahifali illyustratsiya (bir betni yaxlit egallaydi)*  
*yarim sahifali illyustratsiya (betning bir qismini egallaydi)*  
*razvorot – ikki betli illyustratsiya (ikki tutash sahifani egallaydi)*  
*matn qurshovidagi kichik illyustratsiya;*  
*hoshiyadagi chizmatasvir;*  
*illyustratsiya (konsovka) – bezak, oxirgi lavha.*



12-rasm. Avantitul

**Avantitul** (*ayan – birinchi – lot. titulus sarlavha, «yozuv» ma’nosini bildiradi*) ilgarilari ikkinchi titul varag‘i hisoblangan, oddiy titul varag‘idan oldin joylashgan bo‘lib, uni, odatda qalinqoq qog‘ozga bosishgan. Zamonaliviy kitoblarda avantitul, asosan, dekorativ kompozitsion element hisoblanib, titul varag‘idan oldin alohida sahifada o‘rin oladi.



13-rasm. Frontispis va titulning joylashuvi



14-rasm. Frontispis va titul

**Frontispis** (*fransuz. Frontispice. Lotinchada – frons – peshona, specio – qarayman*) – «to‘g‘ridan qarash» ma’nosini beradi. Kitobdag'i illyustratsiya, titul varag‘ining chap tomonida juft raqamli betda joylashadi.

Unda kitob muallifi yoki asarda hikoya qilingan qahramon portreti bo‘lishi mumkin; asar mazmunining asosini aks ettiruvchi chizmatasvir, hikoya epizod lavha illyustratsiyasi ham o‘rin egalashi mumkin.

Frontispis assosiativ yoki umumlashgan obraz ko‘rinishida ham bo‘lishi mumkin.

Odatda, frontispis alohida, qalinqoq yoki silliq qog‘ozga bosiladi. U kitob blokining birinchi betiga yelimlanadi.



15-rasm. Titul ko‘rinishi

# Титул, фронтиспис



©Шербакова Н.В.

16-rasm. Frontispis va titul ko‘rinishi

**Titul** atamasi lotinchadan olingan bo‘lib, «titulus», «sarlavha», «yozuv» ma’nosini bildiradi.

Titul varag‘i, odatda, kitob blokining birinchi sahifasi hisoblanadi. Titul varag‘i bir betli, ikki tutash va bir necha tutash betlardan iborat bo‘ladi.


**Quyi tushirilgan bosma yuza** (*spuskovaya polosa*) — boshlang‘ich bet, bosma yuzaning boshlanishi. Har bir yangi bob yoki qism tushirilgan bosma yuzadan boshlangan. Sahifaning bo‘s qolgan yuqori qismi boshlang‘ich bezak yoki matnning bosh harfi bilan bezatilishi mumkin.

**Shmustitul** (*nemischadan* «shmutz» — «kirlanish», *ya ‘ni matnni kirlanishdan himoya qilish ma ‘nosi kelib chiqadi*) titul varag‘idan keyingi betda rubrika sifatida adabiy asarni katta qismlarga yoki boblarga ajratib turadi. Shmustitul uchun alohida sahifa ajratiladi, unda qism va boblarning nomlanishi, sarlavhalari joylashadi. Uni bezatishda rassom shriftlardan, dekorativ ziynat elementlari va



17-rasm. Shmustitul ko‘rinishi

chizmatasvirlardan foydalanishi mumkin. Shmustitul kitobning toq betlarida joylashadi.



18-rasm. Boshlang‘ich sahifa

**Boshlang‘ich sahifa** deb atalgan betdan butun kitobning matni, bob va bo‘limlari boshlanadi. Boshlang‘ich sahifa — tushirish, bosma yuzi, beti deb ataladi. Agar matn eng yuqori chegaradan boshlanmasdan, birmuncha pastroqdan boshlansa, ochiq qolgan bo‘sh joy — tushirish yo‘li deb nomlanadi. Bu kitobning boshlang‘ich betini eng oddiy va keng tarqalgan bezash usuli sanaladi. Bunday usulni bajarishdan maqsad uni boshqalaridan ajratib ko‘rsatishdir.



## Буквица, инициал -

(от латинского  
initialis - начальный)

в искусстве книги,  
укрупненная  
заглавная буква  
какого-либо раздела в  
тексте рукописной  
или печатной книги.



19-rasm. Inisial, Bosh harflar

**Inisial** (*lotin. initialis* — boshlashish) — rassom tomonidan yaratilgan kitob, qo‘lyozma matndagi biror-bir bo‘limning boshlang‘ich harfi. Hozirgi paytda qadimiy ruscha nomi bilan ataladi: inisial — bukvisa.

**Boshlang‘ich bezak** (*Zastavka*) — kitobning bo‘lim yoki boblari boshlanishidan oldin joylashtiriladigan illyustratsiya tushirilgan bosma yuzasi o‘rnida matndan oq yo‘lak bilan ajratiladi. U

# Заставка



## ЧАСТЬ I

Глава первая

### КАК ЗНАКИ ВОВЕДЦЫ ПРОФЕССОРА ЗВЕЗДОЧКИНА

С тех пор как Новодай покинул деревенский городок, прошло два с половиной года. Жить для них с тех пор это как для детей на дне подземного коридора. Две старые женщины, сестры-близняшки, Новодай и его сестра Денизайда, Касиана и Пакиста из купеческого, однако корыстного тоже покоренной племени в Господский город, а после покорили здесь, заселили в усадьбе сыновей своих умерших предков-членов. Царствующий городок изменился с тех



СИМВОЛЫ АДР ДЛЯ ИМЕН БАРОНОВСКА



её было старое слово, существо Балтисендер и Балтисендер, земля Баронов.

— Моя называла, — перебила она молчанием сестру,

— прошёл Фэр, и я простила, когда звуками земли споминала о моих родителях. Но в

этих звуках было что-то необычное, даже страшное.

— Да, земля Бароновска, — поддакивала служанка.

— И не споминала Бароновска, но до конца не хватило

из тех же звуков. И раньше ничего подозревала. Но так?

— Насмотрелась, земля Бароновска. И гордостью стала не за

Бароновск, а за то, что родилась в Бароновске.

— Бароновская, земля Бароновска. И гордостью стала не за

Бароновск, а за то, что родилась в Бароновске.

## 20-rasm. Boshlang‘ich bezak

o‘quvchiga fikrlarini jamlab, yangi materialga diqqatini yuqori darajada jalb qilishga yordam beradi. Boshlang‘ich lavhada asar boshidagi bayon etilgan voqeа yoki hikoyadagi manzara aks ettilishi, kitobxonda mos keladigan kayfiyatni uyg‘otadi. Boshlang‘ich bezak, shuningdek, predmet-dekorativ yoki ramziy tasvir ko‘rinishda ham bo‘lishi mumkin. Boshlang‘ich bezak — matnga kichik uvertyura o‘rnida bo‘lib, o‘quvchini adabiy asarni yoki kitob bobini faol o‘zlashtirishga tayyorlaydi.

**Illyustratsiya** (*lotincha «illustratio» — yoritish*) — keng ma’noda kitobni badiiy bezash. Illyustratsiyaning kitobdagi birinchi vazifasi matnning mazmunini ochib berish va tushintirish. Illyustratsiyalarni turli nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish mumkin: ularning kitobdagi ahamiyati va joylashuvi, matn bilan bog‘liq xususiyatlari, bajarilish texnikalari va h.k. Illyustratsiyalar yarim, bir, shuningdek, yaxlit ikki betni egallashi mumkin.

— Был в группе старик некий Григорий, — добавила, — это что жестак и в голове, который падает на уши, прыгает на дерево, а дерево падает, а он падает, дерево падает, Он уже лежал деревом обратным, а потом деревом впереди ему, как падают, деревья падают, а он падает, деревья падают, пока не паднет на землю, откуда уж не падать старому сироте.

— Был... — прерываясь молчанием, — Был же...

Сестра покраснела, а она глядя на меня, склонила голову, — Сестра прощается со мной, — говорю я ей, — Видите у меня в глазах слезы покоятся, так что я поклонилась тебе.

— Была, прощай, сестрёнка!

Была поклонилась, — это было вспоминание старой, — глядя на меня и поклоняясь мне, — Погоди, я тебе скажу, — у меня есть письмо Альбина Фёдорова. Фёдоров был старик, как группа, которая, как я вижу, не может умереть и погибнуть, потому что она живёт вечно, — Погоди, я тебе скажу, — это письмо Альбина Фёдорова, которое не умрёт, потому что оно живёт в письме к Марии Петровне. И письмо это будет жить, сколько потребуется до смерти этой группы из стариков.

Ты знаешь, первые письма группы... — я удивлена спросила Елену.

— Это первое... — говоря письмо, поднимаясь из-под кровати к брачному столу, — Хорошо, тебе речь? — спрашивала она и с любовью, блаженствуясь на кровати, в группе речь в первом языке.

Всё такое же... — говорила Елена, как учила Мария Петровна.

— Альбина? — интересовалась я.

Сестра покраснела. А дальше неожиданно заговорила:

— Это моя мама... Я с ней, но вспомни.

— Где? Фёдоров, кажется.

— А... — говоря речи старой и покорной, — Альбина, не забудь про меня, — это я поклоняюсь. Тысячи тебе благодарствий...

Д



### 21-rasm. Bir betli illyustratsiya

**Bir betli illyustratsiya (polosnaya illyustratsiya) butun sahfani egallaydi.**



### Как бабочка собиралась на базар

Бабочка сидела — красавица в окне. Она изображена аккуратно и упакована во все свои чистые лепестки, как будто в коробке.

— Ну вот и вспомнила, что вчера не спала ночь, для базара.

— Базары я помню, — решительно сказала Бабочка, — Сколько у меня было! Их надо было пойти и съездить на базар.

— Скажи же, Бабочка, как же можно, как будешь базар?

— Справедливо Бабочка, перепутала с юного времени наседку Году.

— Это... — добавил Году, — это же видно,

Ты Бабочка и красавица ведь, — заметил Году, — Странно, чтобы в сказках было-бы-было-было, потому что цветок на полу, Бабочку не видел.

### 22-rasm. Bir va yarim sahfali illyustratsiyalar ko‘rinishi, bukvisa ishtirokida

**Yarim betli illyustratsiya** (*polupolosnaya illyustratsiya*) sahifaning ma'lum bir qismini egallaydi.



23-rasm. Ikki tutash betli illyustratsiya


**Ikki tutash betli illyustratsiya** (*razvorotnaya illyustratsiya*) ikki betni yaxlit egallaydi. Katta o'lchamdag'i qo'sh betli yoki yaxlit bir betli illyustratsiyalar uchun asarning muhim ta'sirchan voqealar jarayonlari tanlanadi.

**Matn qurshovidagi illyustratsiya** (*oborochnaya illyustratsiya*) (matn qurshovidagi kichik chizmatasvir) — hoshiyalardagi tasvirlar. Unda asardagi ahamiyati yuqori darajada bo'lmagan voqealar aks ettiriladi.

**Oxirgi lavha, bezak** (*konsovka*). Oxirgi bezak illyustratsiyasi — asar bo'limi, bob so'ngida yoki adabiy asar tugagandan keyin joylashtiriladi. U boshlang'ich bezak singari sujetli-tematik, predmetli, abstrakt, naqshli — ornamental-dekorativ yoki ramziy ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Bezakning sahifadagi ko'rinishi illyustratsiyaning hajmi, o'lchamiga va bosma yuzasi o'lchamiga bog'liq.

## Иллюстрация заставка



## Иллюстрация концовка

24-rasm. Boshlang'ich va oxirgi bezak

**Ochiq sahifalash** – illyustratsiya bosma yuzaning yuqori yoki quyi qismi va bir tomoni bilan matnga tutashishi. Yopiq sahifalash, unda illyustratsiya ichkariga joylashtiriladi, ya’ni matnga ikki yoki uch tomoni bilan tutashadi. Butunlay yopiq sahifalashda illyustratsiya matn bilan to’rttala tomondan o’rab olingan ko’rinishda bo’ladi. Illyustratsiyalarning hoshiyalardan o’rin olishi, sahifalashning bosma yuzasidan chiqib ketishidir.

Illyustratsiyalar ko’p hollarda kitob arxitektonikasini aniqlaydi, shuning uchun ularning ritmik navbat almashishi va bir tekisdagi mazmunga boy sifatlari matnga nisbatan tomonlariga e’tibor qaratishni talab qiladi.

**Kolontitul** – har bir betning yuqorisida qaytariladigan, kitob, muallif yoki qism nomi. Lug’atlarda alifbo bo'yicha betdag'i harf, so'zlar ko'rsatiladi.

**Kolonsifra.** Paginasiya – nashrdagi sahifalarning tartib raqami (*lot. pagina* – bet); kitoblarda, asosan, arab raqamlari qo’llaniladi. Ko’pincha quyi o’rtada yoki pastki chekkada joylashadi.


**Muqova** – Eng avvalo, kitob muqovadan boshlanadi. Yumshoq muqova to‘rt betdan iborat bo‘lib, birinchi beti asosiy kitobning yuz qismi, qarama-qarshi, orqa tomon muqovaning to‘rtinchi beti hisoblanadi.



25-rasm. Muqovaning 1–4-betlarining ko‘rinishi


**Jild qopqog‘i (perepletnaya krishka)** – kitob jildining asosiy elementi, ikkita bir xil o‘lchamdagи jild kartoni va otstavdan iborat bo‘lib, ustki tomordan ashyo bilan qoplanadi (charm, mato va h.k.). Kitob bloki bilan forzaslar yordamida biriktiriladi.

**Jild** – kitob blokining biriktiriladigan barcha elementlari va jild qopqog‘i.



26-rasm. Jild, avantitul, titul va boshlang‘ich bezaklar ko‘rinishi


Jildning ustki qopqog‘ini ochishga urinib ko‘ramiz. Bu harakat osongina bajariladi, bunga – «rubchik» (koreshok va jild tomoni oraliq‘idagi «oshiq-moshiq» rolini bajaradigan botiq) yordam beradi. Agar botiqni «oshiq-moshiq»ning sirtqi qismi deb hisoblasak, u holda ichki qism vazifasini forzas bajaradi.



*27-rasm. Jild qopqog‘ining konstruksion chizmasi*



*28-rasm. Ornamentli forzas ko‘rinishi*




*29-rasm. Forzasning eng sodda turi*



*30-rasm. Dekorativ forzas ko'rinishi*

ФОРЗАЦ



31-rasm. Dekorativ — tasvirli forzas ko‘rinishi




32-rasm. Geografiya darsligining forzas bezagi

**Forzas** (*nem.*Vorsatz – sahifadan oldin; *Nach* – sahifadan keyin. *Nachsatz*)larni tayyorlash uchun yuqori sifatli, buklanishga chidamli va yelimlanganda deformasiyaga yengil kirishadigan qog‘ozlar ishlatiladi. Forzas – kitob blokini jild bilan birlashtirish vazifasini o‘taydi.

Forzas dekorativ yoki sujet tasvirlar bilan bezatiladi, unda ekslibris yopishtirilishi ham mumkin.

Bosma tabog‘i ko‘p bo‘lgan qattiq jildli kitoblar muqovasining yon tomoni – **koreshok** deyiladi.

**Kaptal** – bir tomoni qalin, rangli paxta yoki ipakdan tayyorlangan tasma eniga 10 mmgacha, odatda, kitob blokini qo‘srimcha mustahkamroq qilib, himoya vazifasini o‘taydi hamda estetik bezak o‘rnida keladi.




33-rasm. Kitob bloki ko‘rinishi

Ba’zi bir nashrlarda qo‘srimcha elementlar qo‘llaniladi:

**Slizura** – eni 4–5 sm bo‘lgan qalin, chidamli qog‘oz kesmasidan tayyorlanadi, forzasning koreshok bilan buklangan qismi mustahkamligini kuchaytiradi;

**Lyasse** – ipak tasma, belgilash bog‘ichi, kitob blokining koreoshok qismining yuqori qismiga biriktiriladi.



34-rasm. Plyur

**Plyur** (frans. pelure, ma'nosi – meva po'stlog'i) – qimmat-baho, sovg'a uchuṇ mo'ljallangan nashrlarda har bir illyustratsiyaning (reproduksiya) yuqori qismiga yopishtirilgan yupqa kalka qog'ozi; tasvirni shikastlanishdan himoya qiladi.

**So'nggi yuza** – bob, qism va boshqa bo'lim yoki kitobning oxirgi sahfasi, asosan to'liq bo'lmaydi.

**Epigraf** – mashhur mualliflarning so'zlaridan parcha, sitata, maqol, hikmatli so'zlar, asarning yoki uning alohida bo'lim va qismlari; asosiy g'oyasini ifodalovchi so'zlar. Epigraflar, odatda, matnga nisbatan kichikroq o'lchamdagি shriftlarda terilib, bosma yuzanining butun kengligi bo'yicha joylashtirilmaydi.

**Snoska** – asosiy matnga qo'shimcha yoki izoh. U sahifaning quyi qismida joylashtirilgan bo'lib, belgi bilan ajratiladi (yulduzcha yoki raqam). Matnga nisbatan yaqqol farqlanadigan kichik shriftda teriladi.

**Nazorat savollari:**

1. *Qanday kitob kompozitsion elementlarini bilasiz?*
3. *Muqova va jildning farqi nimada?*
4. *Illyustratsiyalar turlarining qanday farqlari mavjud?*
5. *Avantitul nima? U qanday element?*
6. *Frontispis so'zining ma'nosi nimani anglatadi?*
7. *Titul atamasining ma'nosi nima?*
8. *Shmustitul kitobning qaysi o'rinalarida joylashtiriladi?*

## 2.4. Hoshiya – Polya (margins)

**Hoshiya** – betning kesiladigan qirrasidan bosma yuzasigacha bo'lgan oraliq.

Hoshiyalar texnik va vizual-estetik kompozitsion vazifalarga ega. Bosma nashrlarni tayyorlash texnologiyasi hoshiyalar bo'lishini talab qiladi. Nashr varaqlari tikilgach, bemalol ochib o'qilishi qulayligi uchun ichki hoshiyalarning bo'lishi zarur. Yuqori, tashqi va quyi hoshiyalarning muhimligi blokka biriktirilgan varaqlarni matnga zarar etkazmasdan kesish uchun xizmat qiladi.

Hoshiyalar ko'zlarни toliqib qolishdan saqlaydi. Ular matnni yoyilib ketishdan himoya qilib, qayta tiklanishiga imkoniyat beradi. Hattoki yong'inda qolgan kitoblarda hoshiyalar kuysada, bosma yuzasidagi matnni o'qish imkoniyati bo'ladi.

Judayam qisqa hoshiyali yoki umuman hoshiyasiz, ayniqsa, kichik o'lchamdagи nashrlarni nafaqat stol atrofida, balki poyezdda, transportda, tik turgan holatda bir qo'lda ushlab o'qish juda ham noqulaylik tug'diradi: kitobni tutib turgan barmoqlar matnni to'sib qo'yadi.

Shunday qilib, bosma yuzasi ham, hoshiyalar ham quyidagi bir necha omillar bilan o'zaro bog'liq:

- ◆ nashr o'lchamlari;
- ◆ tipografiyaning texnologik talablari;



### *35-rasm. Namunaviy hoshiyalarning ko'rnishi*



the author's name, and the date of publication. The title page also contains the name of the publisher, the place where it was printed, and the number of pages.

#### **МЕДИА ВО ВРЕМЯ ПАНДЕМИИ**

Anteriormente, como se vio, se establecieron en el sistema general de la ecología un régimen y una dinámica.

Con el desarrollo de la ecología se puso de relieve la necesidad de que existiera una teoría que explicara las complejas relaciones entre los seres vivos y su medio. La teoría de la evolución, que se había establecido en el siglo XIX, no respondía a las necesidades de la ecología. Los ecólogos tuvieron que crear una teoría propia que explicara las complejas interacciones entre los seres vivos y su medio. Esta teoría se llamó "ecología".


also. No specific treatment is required for the condition, as it will respond to any antibiotic agent. The patient may get better even if the test results suggest no bacterial infection. If the test shows no bacterial infection, the physician can prescribe corticosteroids and/or an oral or topical liquid corticosteroid ointment and the patient will feel much better.

need to distinguish between the different types of noise in order to determine which type of noise is most effective in degrading the quality of the reconstructed image.

36-raqsm. Hoshivalar yechimi

- ◆ antropometrikomillari: inson qo'llarining hajmi;
- ◆ nashrning tashqi holati diqqatni jalb qiluvchi, chiroyli ko'rinishda bejirim bo'lishi, bularning barchasi nashrni o'qishda qulaylik tug'diradi. Tutishga, o'qishga qulay bo'lgan kitob, albatta chiroyli ham bo'ladi.

Quyidagi rasmda o'rta asrlardagi garmonik qismlarga bo'lish qonunlaridan biri (o'rta asr rassomi, arxitektori va san'at nazar-iyyotchisi Villar de Onnekur qonuni) keltirilgan. Ushbu qonunga rioya qilib, chizmadagi qalin chiziqlar yordamida tekislikni xohlagan hisobda teng qismlarga bo'lish mumkin.



*37-rasm. Yan Chixoldning namunaviy hoshiyalarning yechimi usuli*

Yan Chixold qo'shimcha qurish chiziqlarini kirgizgan, shu tufayli ular xohlagan o'lcham uchun bosma yuza va hoshiyalar joylashishini mutanosiblik garmonik hisob-kitobi imkoniyatini beradi (*35-rasm*).

Shu bilan birga, ko'z ilg'amaydigan hoshiya elementlarining mosligi, ularning tutash betlarning o'lchamiga nisbati, bir qator

texnik shartlarga va ulardan hoshiyalar o'lchamini noziklik bilan tanlash, o'zaro nisbatlarni aniqlash uchun sharoit yaratadi. Masalan, daftarchalarni o'zaro biriktirish, tikish yoki yelimlashdan so'ng koreshok tomondagi ichki hoshiyalar bir necha millimetrga qisqaradi. Ayniqsa, katta hajmdagi kitoblarda bu yaqqol seziladi, shu sabab koreshok hoshiyasini kattalashtirish maqsadga muvofiqdir. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ochiq ikki tutash betlardagi tashqi hoshiyalar sahifalarni umumiylashtirib yig'ib ko'rsatsa, ichki koreshok hoshiyalar ularni ajratib turadi. Tashqi va ichki hoshiyalarning o'zaro nisbatlarini o'zgartirish bilan, ba'zi hollarda kerakli natijaga erishish mumkin. Masalan, koreshok va tashqi hoshiyalar o'lchami bir xil belgilansa, betdag'i bosma yuza o'rta o'q chizig'i bo'yicha simmetrik joylashtiriladi, bunday yechim matn ikki tilda nashr etiladigan hollarda qo'llaniladi. Bunday yechim o'quvchiga matnlarni osonlik bilan ilg'ab ajratib olishiga xizmat qiladi.

#### **Nazorat savollari:**


1. Hoshiyalar qanday kompozitsion vazifalarga ega?
2. Hoshiyalar nima uchun zarur?
3. Bosma yuzasi va hoshiyalar qaysi omillar bilan o'zaro bog'liq?
4. Garmonik qismrlarga bo'lish qonunlaridan birining asoschisi, o'rta asr rassomi, arxitektori kim?

### **2.5. Kitobning kompozitsion tuzilishi**

Zamonaviy kitobning shakli asosini ikki guruh elementlar tashkil qiladi: material – konstruktiv va kompozitsion.

*Material* – konstruktiv qurilma qog'oz varaqlaridan iborat blok, jild qopqog'idan tashkil topgan. *Kitob bloki* – bu konstruksiyaning asosiy elementi, unda matn va tasvir materiallari joylashgan bo'ladi. Kitob bloki va jild qopqog'i o'zaro bir qavatli qalin qog'ozlardan tayyorlangan forzaslar yordamida biriktiriladi. Konstruksiyaning qolgan elementlari kitob blokini himoya qilishga xizmat qiladi va mexanik qulaylikni to'ldirib, mutolaa vaqtidagi katta bosimni saqlash va tashishdagi ma'suliyatni bajaradi. Kitob blokining koreshok moslamasi kitob varaqlarining harakatlanishiga va uning

tashqi himoyachisi – jild qopqog'i, supermuqova, forzas va kaptalga xizmat qiladi. Konstruksiyani yaratishda ishlatiladigan ashyolar: qog'oz (turli qalinlikda), karton, charm, mato (gazmol), doka va b. Kitob blokining qirqilgan tomonlari bo'yalgan, g'adir-budir fakturali yoki tillarang bosmada, siqish usulida bajarilgan bo'lishi mumkin.



*38-rasm. Kitob ichki qismining umumiy yechimi*

*Tashqi elementlar:* material-konstruktiv va ichki: kompozitsion – matn terilishi, bosh harflar, illyustratsiyalar, fotografiyalar, sxemalar, jadvallar, dekorativ elementlar va h.k. Kitobning tuzilishi uning barcha elementlari tashqi va ichki bezaklardan iborat. Tashqi bezak elementlari quyidagilar:

**Kitob g'ilofi**, futlyar (*nem. Futteral; lot. fotrum, fotrale – nojni, quti*) – karton quti nodir va qimmatbaho nashrlarni shikastlanishdan himoya qilish vazifasini o'taydi. Kitobning qo'shimcha

dekorativ-grafik bezak vositasini bajarishi ham mumkin. Oddiy kundalik foydalanadigan kitob g'iloflari oddiy karton navlaridan tayyorlanadi. Agar g'ilof qimmatbaho kitobning badiiy bezatish ansambl hisoblansa, u holda g'ilof yuqori sifatli kartondan tayyorlanib, ustiga bosmadan chiqqan qog'oz, mato yoki charm qoplanadi.

**Supermuqova** (*lot. Super – yuqori, ustki*) – kitobni o'rabi turadigan to'g'ri burchakli yumshoq qog'oz yoki boshqa ashyodan tayyorlangan, muqova yoki jildni shikastlanish va changdan himoya qiladigan element. Supermuqova kitob muqovasi yoki jildiga kiydirilib, klapanlari jild qopqog'ining ichki tomonlariga buklanadi.



39-rasm. Supermuqova ko'rinishi

Kitob ishchi maketini tayyorlashga kirishishdan oldin supermuqova haqida tushuncha berishni lozim topdik. Buning sababi kitob maketini umumiy ko'rinishini yaratishda, albatta, super-

muqova elementi ishtirok etadi, shu bois uning vazifalari va turlari haqida institutdagi ta'lim jarayonining yuqori bosqichida umumiy tasavvurga ega bo'lish kerak.

Bu kitobning qog'oz jildga o'rالgan, ya'ni muqova yoki jild yon tomonlari va kitob ichkarisiga buklangan qopqoq (klapan) larining bo'lishidir.


Supermuqova, asosan, oliy navli qog'ozlardan yaratiladi. Ular ning shaffof, turli plastik (sun'iy qog'oz) ko'rinishlari uchraydi. Rangli illyustratsiyali, shuningdek, dekorativ yechimda, ba'zida faqat shrift ishtirok etgan turlari bo'ladi. Supermuqovalar maxsus bosmaxona mashinalarida loklanadi, pardoz beriladi, yoki yupqa shaffof plastmassa qatlam bilan zichlanadi. Ushbu jarayondan so'ng, ular yaltiroq, jiloli, yanada yorqin, quyuq murakkab rangli ko'rinishga ega bo'ladi.



40-rasm. Jildli kitobning umumiy ko'rinishi

**Muqovali kitob jildli** kitobdan birmuncha farq qiladi. Muqovali (broshurali) kitob bloki juda soddaligiga unda kaptal va forzaslar ishtirok etmaydi. Broshura blokining himoya vazifasini to'rt betli qog'oz muqova qoplama o'taydi. Muqovaning tekis koreshogiga blok biriktiriladi yoxud oddiy qoplama koreshok qirrasiga blokning birinchi va oxirgi betlariga qo'shimcha qo'shiladi. Qoplamaning uchinchi ko'rinishi — yupqa 48 betgacha bo'lgan broshuralar uchun qo'llaniladi. Yig'ilgan taxlam (bir daftarcha ikinchi daftarchaga ustma-ust taxlanadi) muqova blokka sim qistirgichda qotiriladi yoki ip yordamida birgalikda tikiladi. Muqovaning uch tomoni mag'iz bilan birga kesiladi, ba'zida muqova blokdan biroz kengroq mag'iz bilan bir xil o'lchamda tayyorlanadi.

**Jild (Pereplet)** tayyorlashda kitobning barcha elementlari blok bilan birgalikda jild qopqog'iga birlashtiriladi va natijada jild qoplamali kitob hosil bo'ladi.



41-rasm. Kitob elementlarining umumiy ko'rinishi

**Ekslibris** – jildning oldingi tomonining ichkari qismiga yopish-tiriladigan belgi, o'tmishda uni qo'lda chizishgan, keyinchalik esa ksilografiya, misga ishlangan gravyura, ofort, litografiya va boshqa texnikalarda bosilgan. Unda, odatda, kitob sohibining shaxsiy gerb tasviri, turli allegorik sur'atlar, ramzlar, naqshlar, hikmatli so'zlar va h.k. tushirilishi mumkin. Qoidaga binoan «Kitoblardan.. frazalar» («Ex libris...») va kitob sohibining ismi sharifi yoziladi. Ushbu kitob belgisining nomlanishi shundan kelib chiqqan. O'rta asrlardagi qo'lyozma va kitoblarda ham ekslibrisni qo'llashgan. Ularga kitob sohibining ismi, kimga tegishligini bildiruvchi belgilar qo'yilgan. Superekslbris – o'tmishda jildning muhim bezak elementi hisoblangan. U ham kitob, ham uning sohibi belgisini bildirgan. Superekslbris – kitob egasining gerbi bo'lib, jildning birinchi yuzasiga, ba'zida qo'shimcha qilib, jildning orqa tomoniga bosimda siqish usuli qo'llanib bosilgan. Odatda, uni bosishda tilla suvi ishlatilgan. Superekslbris XVI asrda Fransiyada paydo bo'ldi va u jildning yagona bezagi bo'lgan, garchi u markaziy qaysidir ko'r kam dekorativ ziynat elementi o'rnida xizmat qilishi mumkin bo'lsa ham, barcha kitoblarda uchramaydi.

#### ◆ **Forzas**

**Forzas** – o'qish jarayonining quyi bosqichlarida ta'kidlaganimizdek, kitob tashqi elementiga taalluqli. O'qish jarayonining yuqori bosqichida forzas haqida bat afsil fikr yuritishni lozim topdik.

Nashrda turli tomonlari bilan (badiiy va xizmat) namoyon bo'ladi. Faqat forzasga tegishli bo'lgan ikki xususiyat bor va ular bezatish xarakteriga aniq ta'sir o'tkazadi. Forzasning birinchi xususiyati – muqova, jild va supermuqova bilan taqqoslaganda – elementning ikki bora takrorlanishi: oldingi va oxirgi forzas, ikkinchisi – matnnig ishtirokisiz. Muqova, jild, supermuqova, titul, shmustitullarga tegishli qo'lyozma, yozuv matnni uchratish mumkin, ammo forzasga tegishli matn uchramaydi. Maboda forzasda matn paydo bo'lsa, u holda bu muharrir, badiiy muharrir yoki rassom g'oyasi bo'lishi mumkin, faqat muallif bundan mustasno. Odatda, forzasdagi matn, siyosiy arbob, yozuvchi, olimning hayotiy sanalari yoki unda joylashtirilgan geografik

xaritalardagi yozuvsalar, sitatalar va kimyo elementlar ramzlarini bo‘lishi mumkin. Agar kitobxonning nazari eng avvalo muqova va jildga tushsa, forzas esa biroz panada qoladi, o‘quvchi tezroq titul va matn sahifalarini ochadi.

Forzasning birlamchi ahamiyati kitob blokini, qopqoq (jild) bilan biriktirish vositasini bajarishi, badiiy murakkab bo‘lmagan ko‘rinishi hozirgi kungacha nashriyotlarda saqlanib qolgan. Bunday forzasli nashrlar mahsuloti «silliq», «toza», «bosma tushirilmagan», ya’ni shunchaki oddiy oq yoki rangli turli qalinlikdagi (tipografiya, litografiya, ofset, forzas va b.) qog‘oz turlaridan ishlab chiqariladi. Bular nashr turi, hajm va adadga bog‘liq. Bunday ko‘rinishdagi forzaslar qanchalik oddiy (silliq) bo‘lmasin, ular haqida estetik – mazmun, ma’no ahamiyatga ega emas, degan fikrni aytib bo‘lmaydi. Yorqin jild va hashamatli bezatilgan titul orasida joylashgan oddiy oq forzas, o‘ziga xos pauza (ikki katta taassurot orasidagi) deb qabul qilinadi va kontrast o‘rnida ularni (jild va titulni) yanada kuchaytiradi.

Forzas uchun rassom tomonidan tanlangan silliq rang foni yoki qog‘ozni siqish usulida ishlov berilgan bo‘rtma ko‘rinishi katta badiiy ahamiyat kasb etadi.

Agar forzasning bir tomoni oq, boshqa tarafi rangli bo‘lsa, uning ko‘rinish taassuroti yanada murakkablashadi.

Rangli bir tonli fondagi yoki bir necha ranglar uyg‘unligidagi murakkab ritmik ko‘rinishdagi forzaslar turli nashrlarda keng qo‘llaniladi: ilmiy monografiyalardan to maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan kitoblargacha. Bunday ko‘rinishdagi dekorativ forzaslarning keng doirada qo‘llanilishini, uning universalligi, badiiy adabiyotning xarakterli xususiyatlarini tasviriy til bilan ko‘rsatilishini ta‘kidlash mumkin. Jild tituldagi shrift, ornament, ziynat, illyustratsiyaga taqqoslash imkoniyati katta. Mazkur forzas ancha oddiy tasvir shaklga ega bo‘lib, bevosita faqat rang va ritm bilan ta’sir etadi.

Qolgan barcha forzas ko‘rinishi turlari – tematik – tasvir xarakterdagi: ornamentli, emblemali, predmet-illyustratsiyali, sujet-illyustratsiyali, ramziy-illyustratsiyali va h.k. nashr mahsulotlarida ular kam uchraydi.

Ornamentli forzaslar qo'llanishi ko'lami bo'yicha mavhum-dekorativ uslublarga yaqinroq bo'lib, deyarli barcha nashr turlarini qamrab oladi. Emblemali forzaslar deyarli kam qo'llaniladi. Ularni siyosiy adabiyotlarda ham, ilmiy va badiiy adabiyotlarda ham uchratish mumkin.

Predmet – illyustrativ forzaslar nisbatan kengroq ko'lamda ishlatiladi. Ularni bolalar, ilmiy-ommabop, o'quv, ba'zida qisman badiiy va ilmiy adabiyotlarda ham uchratamiz.

Predmet – illyustratsiyali forzasning keng tarqalishini qisman tematikaning boyligi bilan bog'lash mumkin, u rassomga predmet va figuralarni qo'llashda katta tasviriy imkoniyatni yaratib beradi.

Illyustratsiya ko'rinishidagi ramziy tasvir xarakterdagi forzaslar – kattalar, o'smirlar va katta yoshdag'i bolalarga mo'ljallangan adabiyotlar uchun qo'llaniladi. Ba'zida bunday ko'rinishdagi forzas siyosiy, adabiy nashrlarda ham uchraydi.

Illyustratsiyali janr sahnali ko'rinishdagi forzaslar deyarli faqat badiiy va ilmiy-ommabop bolalar adabiyotida ishlatiladi. Bu turdag'i forzaslar kattalar uchun mo'ljallangan nashrlarda juda kam uchraydi.

Shunday qilib forzas bezagi turi bilan adabiyot turi o'rtasida bevosita to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik bor, bunga asar, adabiyot va nashr janri mansubdir (masalan, lirika to'plami), kitobxonning yoshidagi xususiyatlarni hisobga olgan holda mo'ljallangan adabiyotlar. Bu bog'liqlikning omonat bo'lgan chegarasi aniq tavsiyalarni shakllanishiga ruxsat bermaydi. Eng to'g'ri yo'lni tanlash: forzasni bezatish xarakterini aniqlay turib, darhol mazkur adabiyotga mos kelmaydigan bezaklardan voz kechib, aksincha asarning biror-bir xarakterli xususiyatlarini ko'rsata oladigan dekorativ-tematik imkoniyatlarni tasvirlaydigan variantlar tanlash tavsiya etiladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. *Filof nima va qanday vazifani o'taydi?*
2. *Ekslibris qanaqa belgi va uning funksiyasi nimada?*
3. *Kitob tashqi bezagi elementlarini sanab bering?*
4. *Kitob blokining tarkbiy qismi nimalardan iborat?*
5. *Supermuqova nima uchun qo'llaniladi?*

### **Amaliy topshiriqlar:**

1. *Shaxsiy kutubxonagizdagi hajmi katta kitoblarga supermuqova yasang.*
2. *Eski foydalanish uchun yaramay qolgan kitobning tuzilish konstruksiyasini o'rganing va uni ta'mirlang.*
3. *Oila a'zolarингизга tegishli kitoblarga ekslibris ishlang.*

## **2.6. Maketlashtirishning usullari. Poligrafiya atamasi**

Kitob bezatuvchi grafik rassom uchun maketlashtirish fanini chuqur va mukammal o'zlashtirishi juda muhimdir.

**Maket** (*frans. Maquette – mashtabdagи model*) – biron-bir loyihalashtirilgan obyektning kichraytirilgan modeli (prototip, loyiha, namuna), bo'lg'usi kitob, jurnal va boshqa nashrlarning materialda bajarilgan keng hajmdagi modeli.

Oldindan uning yaxlit badiiy bezatish narxi kelishilgan, kitob asosiy elementlarining (jild, muqova, supermuqova) aniq hisob-kitobi belgilangan bo'lishi shart.

Zamonaviy kitoblar tashqi konstruksiyasi bo'yicha ikki guruhga bo'linadi: jildli kitoblar va muqovali kitoblar (broshyura).

**Kitob andozasi** – loyiha maketini kasb etish; loyihaning moddiy ifodalanishi. Maket rassom va badiiy muharririga ish rejasini yuklaydi, ammo butkul tugallangan jarayonga da'vogarlik qilmaydi. Barcha kitob kompozitsiyasining tashqi va ichki ko'rinishini yanada qiziqarli va ifodali ko'rsatishda yordam beradi. Kitob maketini yaratishda, uni badiiy yuqori, professional did bilan bezashda rassom benihoyat muhim o'rinn egallaydi.

Rassomning ishi eng avvalo, kitob o'lachami, hajmini asar mazmunidan kelib chiqib, to'g'ri tanlashidir. Kitob maketini tayyorlashdan maqsad talaba uning yaxlit, tugallangan holatini ko'ra bilishi va bajargan bezaklarini maketga to'g'ri joylashtirishi ko'zda tutiladi.

**Poligrafiyada** bo'lajak nashrning modeli turli ashyolarda qo'lда yoki kompyuter dasturlarida elektron ko'rinishda tayyorlanadi.

### **Maket turlari:**

- a) dastlabki;

- b) ishchi maket qoralamasi (daftarcha, «garmoshka»);
- v) namunaviy sxematik maket;
- g) xomaki varaqli maket;
- d) betlari aniqlashtirilgan (barcha o'lchamlar hisobga olingan maket).

#### ◆ **Ishchi maket ustida ishlash**

Hisob-kitoblar asosida aniqlashtirilib, yaxshi ishlangan, mohiyati bat afsil ochib berilgan loyiha kitob va uni loyihalashtiradigan ishlab chiqarish texnologiyasi haqida tasavvur beradi, ammo etarli darajada kompozitsiya butunligini ochib bera olmaydi, biroq ba'zi kitoblarni loyihalashtirishda esa, bu juda ham zarur.


Murakkab va ko'p sonli adadda nashr etiladigan kitoblarni chop etishdan avval, ashyoda asl model yaratiladi. Bunday modelda kitob kompozitsiyasini ham yaxlitlikda, ham detallarda ko'rish, muhokama qilish va baholash imkoniyati bo'lishi kerak.

Kitobning bunday modeli maket deb ataladi. Maket – bu loyihaning moddiy tomonini hisobga olib, ashyoda ifodalashdir.

**Maket** – rassom va badiiy muharririga to'la-to'kis ishlov berilgan ish rejasini taqdim etsa-da, har bir detalning to'laqonli tugallanganligini ko'rsatish imkonini bermaydi. O'rni kelganda talab etilgan holatlarda, ya'ni ular illyustratsiya, kitob bezak-jihozlari va umumiy kompozitsiyani yanada qiziqarli va ifodali ko'-rinishga olib kelsa, u holda maketga tuzatishlar kiritish imkoniyati mavjud. Butun kitobning xomaki nusxa maketini oldindan bajarish imkoniyatini iloji boricha keng, bir necha variantda qo'llash lozim. Natijada, maket tugallangan shakl ko'rinishiga ega bo'ladi.

Maket ustida ishlash tugallangandan keyin, bezaklarni yaratish jarayonida ham, rassom kitob kompozitsiyasining biror joyini o'zgartirish zarurati tug'ilganda, har doim (istalgan vaqtida) yaratilayotgan asarga jonli qiziqish bildirish, tug'ilgan yangi fikr-g'oyalarni umumiy kompozitsiya g'oyasini buzmagan holda, tasodifiylikka yo'l qo'ymasdan, ayrim betlarga tuzatishlar kiritishi mumkin.

Kitob kompozitsiyasi qanchalik murakkab bo'lmasin, u qurilishi bo'yicha aniq bir tartibda bajariladi. Bunday kompozitsion tartibda




42-rasm. Birlamchi maket qoralamasи

ba'zi elementlar yagona ko'rinishda bo'ladi, bu — supermuqova, jild, muqova, forzas, titul, mundarija. Bular orasida faqat forzas bundan mustasnodir. U kitobda ikki marta takrorlanishiga qaramasdan bir xil usulda bezatiladi. Birinchi va ikkinchi forzasning xarakteri bo'yicha turli usulda bezash juda kam uchraydi. Kitobning boshqa elementlari bir necha marta takrorlanishi mumkin, bular: shmustitul, boshlang'ich va oxirgi sahifalar, kitob ichidagi alohida va ikki tutash bet tasvirlari.

**Namunaviy tuzilishdagi maket** — takrorlanadigan elementlar tipik yechimning qoralamasi, uning yagona elementlari bilan birqalikdagi xomaki nusxa chizgilari. Namunaviy tartibda maket yaratishda rassomning vazifasi har bir yagona va takrorlanadigan elementlarni bir necha variantda — xomaki chizgilarini bajarishi talab etiladi.

Bu ish unchalik murakkablik tug'dirmaydi va bunga maxsus texnik tayyorgarlik talab etilmaydi. Buning uchun rassom umumiy kitob kompozitsiya asoslari, nashr o'lchami va hajm haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim. Iloji boricha bunday maketni, kitob nashr etiladigan o'lchamda bajarilishi maqsadga muvofiqdir.




**Namunaviy tartibdagi maket** — bu kitob bezatishning yig'indisi, shuning uchun u sifatli qog'ozda diqqat bilan, chiroli qilib tayyorlanishi kerak. Ta'lim jarayonining keyingi bosqichlarida,



**43-rasm. Ishchi maket**

kitob maketini tayyorlashda uning boshqa murakkabroq turlari bilan tanishamiz.

Tanlangan asarning o'lchami aniqlab olinadi. Qog'oz bichimi 60X90 1/16, 60X84 1/8, 60X90 1/8, 70X90 1/32, 84X108 1/16 va h.k. ulush o'lchamlari tavsiya etiladi. Berilgan topshiriqqa asosan



44-rasm. Betma-bet maket



45-rasm. Namunaviy aniq betma-bet maket

bo‘lg‘usi nashr etiladigan o‘lcham aniqlanadi. Odatda, muqova yoki jildning bo‘yi va eni nisbatlari bilan xarakterlanadi, bu – kitob maketingining og‘ir yoki yengil bo‘lishini belgilaydi. Maketsiz

kitob kompozitsiyaning asosiy xarakterini to'laqonli ochib berish mumkin emas. Kitobdagagi qismlarning masshtabdagi farqlari, ranglarning jozibadorligi, faktura o'yini, butun kompozitsiyaning ritmikasini tashkillashtirishda maketing roli juda katta. Kitobning hajmi necha bosma taboqdan iborat bo'lishidan kelib chiqib, uning maketi yasaladi. Uncha murakkab bo'limgan kamida 16 betlik ishchi maket tayyorlanadi. Varaqlar bir tekisda igna ipda bejirim tikiladi. Birlamchi xomaki chizgilar, muqova, titul, zastavka, illyustratsiyalar va konsovka, hamda matn betlarga joylashtiriladi. «Oltin kesishuv» («Zolotoye secheniye») qoidalariga asosan, muqova va kitob nomi joylashtiriladi, shrift asarning mavzusidan kelib chiqib tanlanadi. Titul betining shriftida, kitob nomi va muallifi ism-sharifi takrorlanadi va titulda tasvir joylashuvi, nashriyot nomi va nashr yili yoziladi. So'ngra keyingi betdan boshlang'ich bezakni joylashtirish va matn shrifti tanlanadi. 2 ta illyustratsiya simmetrik oraliqda va asar oxirida konsovka joylashtiriladi. Bu vazifalarning barchasini qora qalam va rangli qalamlarda bajarish mumkin.

Kitob bezatuvchi grafik rassom uchun maketlashtirish fanini chuqur va mukammal o'zlashtirishi juda muhimdir.

#### **Nazorat savollari:**

1. *Maket tushunchasi nima?*
2. *Maket turlarini sanab bering?*
3. *Qog'oz o'lchami ulushlari nima?*
4. *Ishchi maket nima?*

## **2.7. Shrift**

Kitob muqovasi va tituli uchun shrift tanlashda eng avvalo kitobxon auditoriyasining yoshi va nashr xarakteriga e'tibor qaratiladi.

Bolalar uchun mo'ljallangan husnixatga ehtiyyotkorlik bilan yondashish kerak. Shu sabab harflarni soddalashtirish, ularning biror elementlarini olib tashlash, daraxt tanasiga o'xshash turli yo'g'onlikdagi o'simlik shoxlarini harflar orasidan chiqarish mutlaqo noto'g'ri.



А Б А В Г Д Е Ж З  
К И Л М Н Й О П  
Р С Т У Ф Й Х Ц  
Ч Щ Ъ Э Ы Ю Я Ь

*46-rasm. Klassik shrift*

Bolalar adabiyotidagi sarlavha husnixatini bajarish kitob illyustratsiyasidan kam bo‘lmasligi zarur. Muqovadagi shrift (kitob nomi) tasvir ustiga tushib qolmasligi kerak, ba’zida shunday holat ham uchraydiki, bunda qoyalar, uylar, deraza tasviri ustiga tushib qoladi. Bunday echimlar harflarning o‘qilishiga noqulaylik tug‘diradi. Oq fonga qora tusda grafika qoidalari asosida yozilgan chiroyli husnixat, hech qachon noto‘g‘ri hisoblanmaydi. Kitobxon va tomoshabinda yaxshi taassurot qoldiradi. Qora rang bolalar tomonidan unchalik qabul qilinmasada, harflarning qora rangda bajarilishi, o‘ziga xos va mos tushadi. Natijada u o‘zining aniq yorqin ifodasini topadi.



*47-rasm. Shriftning turli ko‘rinishi*

Bolalar va kattalar kitobidagi naqshlar haqida qisqacha to‘xtalamiz.

Naqshlar ikki usulda bajarilishi mumkin: dekorativ va ma’noli. Bu ikki xil yo‘nalish natijada bir-biriga mos kelishi, bir usulga tushishi, varaqning tekis yuzasini hisobga olgan holda, ritmga rioya, shu bilan bir vaqtda keng ma’noli, fikr-tasavvurni bera oladigan tasvirni aks ettirishlari talab etiladi. Naqshlarni kitob betlariga kiritishdan maqsad, shunchaki sahifalarni bezatish yoki bo‘s sh qolgan joyni to‘ldirishi bo‘lib qolmasdan, balki qog‘oz yuzasiga alohida sifatli ishlov berish yoki asarning biror predmetini, gullar, jonivorlar va h.k. tasvirining ritmik o‘yinini qo‘llash, ornament (naqsh)ning vazifasiga mansubdir.

Shrift chizma turini tanlash nafaqat adabiy asarning uslubiga bog‘liq, balki u badiiy fikrning ba’zi tomonlarini ham belgilaydi.

Haqiqatdan, agar diqqat bilan kitoblarga e’tibor berilsa, ba’zi nashrlarda illyustratsiya va dekorativ bezaklar shrift bilan bir rangda, ritmik yaxlitlik, uslubni tashkil etadi. Ba’zilarda esa, ular bosma matndan yo «emirilib, to‘kilib» ketayotgani, yoki undan «chiqib» ketayotganini anglab olish qiyin emas. Fikrimizning tasdig‘i sifatida kitob rassomlari V.A. Favorskiy, V. Klemkelarning tajribasini misol keltirish mumkin. Ular – fikr, badiiy g‘oyalarini shriftlar turi, xarakteriga yaqin bog‘laganlar.

#### Nazorat savollari:

1. Shrift tanlashda nimaga e’tibor beriladi?
2. Bolalarga mo‘ljallangan adabiyot uchun qaysi turdag‘ shrift tanlanadi?
3. Kitob bezagida naqshlar necha usulda bajariladi?

### **III bob. YUMSHOQ QOPLAMALI, ANIQ BETMA-BET HISOB-KITOBLI MAKETNI QO'LDA TAYYORLASH**

---

#### **3.1. Kitob maketini tayyorlash jarayoni**

Kitob maketi – bo'lajak nashrning materialdagi (qog'oz, karton) barcha bezak elementlaridan har bir sahifa va tutash betlar kompozitsiyasi eskizlarigacha kiritilgan mukammal model. Maket ahamiyati chegaralanmaydi, faqat u bo'lajak nashr tayyor holda qanday ko'rinishda bo'lishiga, diqqat bilan ko'zdan kechirib, muhokoma qilishga xizmat qiladi.

**Kitob maketi ustida ishslashni obrazli qoralama eskizni** yaratishdan boshlash tavsiya etiladi. Qoralama maketni deyarli kichraytirilgan ko'rinishda bo'lishi qulay. A5 o'lchamdagи to'rt varaq qog'ozni oling, ularni ustma-ust joylashtirib bo'yidan teng buklang, natijada 16 betli kichraytirilgan maket qoralamasi hosil bo'ladi. So'ngra qalamda muqova, titul, boshlang'ich va keyingi betlarda matn va bo'lg'usi illyustratsiyalarni tasavvuringiz bo'yicha belgilang. Kichik o'lcham tez ishslash imkoniyatini beradi. Ishchi maketni qog'ozni «garmoshka» ko'rinishida buklab yasash yanada qulaylik keltiradi, bunda boshqa turdagи maketlarda imkonи bo'limgan, bir vaqtning o'zida bir necha tutash betlarni nazorat qilish, kitob barcha sahifalarining komponovkasini kuzatish, uning kompozitsiyasini baholash mumkin.

##### **◆ Kichik hajmdagi obrazli maket tayyorlash**

Ta'lim jarayoninig yuqori bosqichida kitob maketini tayyorlash quyi kurslarga nisbatan birmuncha murakkab va qiziqarliroq kechadi. Kompozitsiya fanida kitobni yaxlit ko'ra bilish va tasavvur qilish uchun eng avvalo, talaba tomonidan adabiy asarning o'lcham, formati belgilanadi. O'lcham borasida bir to'xtamga kelingach, qog'ozdan uning kichraytirilgan asl o'lcham nisbatlari saqlangan holda kitob buklamasi, ya'ni yoymasi yasaladi. Buklama yoymasi rasmda ko'rsatilgan ko'rinishda bo'ladi. Kitobning kichik

hajmdagi maketi umumiy yoymasi yordamisiz kompozitsiya ustida ishslash umuman noto‘g‘ridir. Vazifani kichik maked yordamisiz bajarish chalkashliklarga olib keladi. Yoyma buklama yasalgach, kitobning barcha betlari (shu jumladan muqova) yosh rassomning qarshisida yaqqol namoyon bo‘ladi. Kichik makedga muqovadan to oxirgi bezakkacha, kitobning chiqish ma’lumotlarigacha shartli joylashtirilib chiqiladi. Bunda bernalol hech bir qiyinchiliksiz kitob elementlarini qayerga qaytarzda tasvirlarni simmetrik, assimetrik yoki ritmik usulda joylashtirish belgilanib chiqiladi. Kitob makedini yasashdan maqsad, bezatuvchi rassom uning konstruktiv tuzilishini bilishi shart ekanligidir.



48-rasm. Buklama maked

Ish uncha murakkab bo‘Imagan yumshoq muqovali 16 betdan iborat kitob makedini tayyorlashdan boshlanadi. Eng avvalo bo‘lajak nashr o‘lchami aniqlanadi. Zamonaviy poligrafiya talablaridan kelib chiqib, A4 yoki A5 o‘lchamlarda to‘xtalish maqsadga muvofiq.

Masalan, tayyorlaydigan kitob maketiniing o'lchami A5 deb tanlandi. Buning uchun to'rt varaq A4 o'lchamdag'i o'rtacha qalinlikdagi qog'oz kifoya qiladi. Qog'oz varaqlari teng o'rtasidan buklanganda 16 betli A5 o'lcham hosil bo'ladi. Ularni tekislab igna ip yordamida o'zaro birlashtirilib tikiladi. Natijada daftarcha, ya'ni bizga kerakli bo'lgan kitobcha tayyor bo'ladi. Muqovaning birinchi va to'rtinchi betlari kompozitsiya eskizi asosida tayyorlanadi. Kitob va muallifning nomi aniq o'lchamlar bilan muqovanig birinchi betiga 'joylashtiriladi. Titul varag'idagi shrift va tasvirlar ham kitob grafikasining qonun qoidasiga asosan bajariladi. Kitob sahifalarining bosma yuzasi va hoshiyalari aniqlanadi. Yuqori, quyi, tashqi va ichki hoshiyalarning o'lchamini belgilashda yuqorida 2.4 mavzuda ta'kidlaganimizdek Yan Chixoldning klassik namunasidan foydalanamiz. Kitob betlariga boshlang'ich bezak, illyustratsiyalar, oxirgi bezak va matnlar joylashtiriladi. Matndagi shrift turi va o'lchami adabiy asarga mos kelishi shart. Matn Microsoft Word dasturida bosma yuzaga mo'ljallab terilib, kompyuter bosmasidan chiqarilgan varianti qirqilib maketga tartibli yelimlanadi. Illyustratsiyalarning maketga joylashtirishning ikkita varianti mayjud. Birinchisi kitob maketing sahifasiga to'g'ridan-to'g'ri ishslash, ikkinchisi oldindan illyustratsiya joylashadigan sahi-faning o'lchamiga moslab tayyorlangan bezakning skanirlangan bosma variantini yelimlab joylashtirish. Maketni tayyorlash jara-yonida talaba o'ziga qulay yo'lni tanlaydi. Shu tarzda yumshoq muqovali 16 betli kitobcha maketi tayyor bo'ladi.

### **3.2. Bir necha daftarchadan tashkil topgan, 48 betdan ortiq bo'l-magan yumshoq muqovali kitob maketini yaratish**

Bir necha daftarchadan tashkil topgan, 48 betdan ortiq bo'l-magan yumshoq muqovali kitob maketini yaratishda yuqorida orttirilgan ko'nikma asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda A4 o'lchamdag'i 12 varaq qog'ozni teng o'rtasidan buklab, barchasini birlashtirib igna ip yordamida tikiladi. Bu vazifani bajarishda muqova uchun birmuncha qalinroq qog'oz tanlanadi. Tayyor bo'lgan 48 betli A5 o'lchamdag'i daftarcha, ya'ni kitob bloki muqo-

vaga metall biriktiruvchi yordamida mustahkamlanadi. Oldindan tayyorlangan eskizlar asosida maket ustida ishlash davom ettiriladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan jarayonlar takrorlanadi, faqat birmuncha murakkabroq qo'shimcha qo'l mehnati talab etiladi.


Rassom va badiiy muharrirga ba'zi bir kichik detallar ustida ishlash tugallanmagan bo'lsada, ishlab chiqilgan rejani beradi. Maketga o'zgartirishlar kiritish ruxsat etiladi, hatto shart va zarur, agar u butun kitob bezatish kompozitsiyasini yanada qiziqarli va ifodaliroq ko'rinishga olib kelsa. Maketning eng asosiy mezoni – bunda kitob loyihasi hali matn terilmasdan, bezak va illyustratsiyalar qoralamasi chizilmasdan oldin belgilanadi. Yaxshilab o'yab uning kompozitsiyasini bir necha variantda bajarib, eng yaxshisi tanlab olinadi. Ayniqsa, badiiy bezatishda namunaviy sxematik maket juda muhim, unda tashqi bezatish eskizlari bilan bir qatorda, nashrning muhim sahifalari – titul varag'i, shmustitullar, boshlang'ich tushirilgan va oxirgi bosma yuzalar, namunaviy yuzalar illyustratsiyalar bilan, turli badiiy bezaklar, tashqi bezaklar eskizlari bilan bir qatorda nashrning sahifalarini bezatishdagi elementlar eskizlari asosiy o'rini egallaydi. Nashr sahifalarini bezatish uchun esa titul varag'i, shmustitullar, tushirish va so'nggi bosma yuzalari, tipovoy sahifalar illyustratsiyalar bilan birgalikda, turli darajadagi sarlavhalar, snoskalar va h.k. zarur.

**Namunaviy maketda** bo'lajak nashrning muhim xususiyatlarning qurilish shakllari ko'rsatiladi:

- bosma yuzasining o'lchami, hoshiyalar o'lchami;
- turli ko'rinishdagi matnlarning joylashuv xususiyatlari;
- har bir ko'rinishdagi matnlar shriftining xususiyatlari (garnitura, kegl, interlinyaj), shuningdek, turli ko'rinishdagi sarlavhalar;
- bosma yuzasi va illyustratsiyalarni izohlovchi so'zlar joylashuviga xususiyatlari;
- illyustratsiyalar tipining grafik tilining xususiyatlari;
- butun kitob sahifalarida barcha illyustratsiyalarni joylashirish xususiyatlari.

Agar kitob faqat matndan iborat bo'lganda, biron-bir sahifa ko'rinishi tasavvuriga ega bo'lish va bu sahifa qolgan barcha betlar

uchun etalon o‘rnida xizmat qiladi. Agar kitobda snoskalar bo‘lsa etalon sifatida snoskali sahifani tanlash joiz (yoki matn orasida formulalar, tablisa va shu singari sahifalar tanlanadi). Mana shu ko‘rinishdagi sahifa tipovoy xarakterdagi bezatilishga xos. Namunali sahifali maket bo‘lg‘usi nashrning sahifalariga faqat sirtdan o‘xshashi mumkin (o‘lcham, garnituralar, interlinyaj va b.q.). Matn mazmuni bunda hech qanday ahamiyatga ega emas.



49-rasm. Maket loyihasi

Illiustratsiyali kitobda rasmlar tasvirlanishidan kelib chiqib, nashr maketingining tashqi ko‘rinishiga bog‘liq bo‘ladi. Kitob tashqi ko‘rinishi rassom tasavvurida adabiy asarning mazmuni bilan tanishib chiqqandan so‘ng rejalashtiriladi. Rassomning asosiy vazifasi adabiy asarning mazmuniga, nashrning turiga, kitobxonlar auditorisiga moslab bezatish va kompozitsiya yechimini topish. Asosiy maqsad kitobni san’at asari darajasida yaratish.

Rassom adabiy asarni yaxshilab o‘rganib, kitobni bezatish loyihasini ishslashga kirishadi. Odatda, maketni tayyorlash vaqtida hali illiustratsiyalar ishlanmagan, umuman yaratilmagan bo‘ladi.



50-rasm. Yumshoq  
muqovali tayyor  
mahsulotning  
umumiy ko'rinishi

Ko'pincha illyustratsiyalar sujeti tugallangan holda maketlashtirish jarayonida aniqlanadi. Shu sababli maketda illyustratsiya joylashadigan maxsus o'lchamlari ko'rsatilishi shart. Ba'zida maket muallifi o'z tasavvuri bo'yicha belgilangan o'ringa bo'lajak illyustratsiyani taxminiy qoralamasini chizadi. Bir xilda esa maxsus ajratilgan joyga illyustratsiya sujeti qo'lda yoziladi yoki tartib raqami qo'yiladi (agar alohida raqamlangan eskizlar, slayd yoki fotografiyalar bo'lsa), ba'zida o'zining grafik usuli bo'yicha, bo'lajak illyustratsiyaning usuliga mos keladigan «begona» rasm qirqib joylashtiriladi.

**Nazorat savollari:**

1. *Nima uchun kichik hajmdagi maket tayyorlanadi?*
2. *Dafarcha deganda nima tushuniladi?*
3. *Ishchi maket bilan namunaviy maketning farqi nimada?*
4. *Namunaviy maketda nimalar ko'rsatiladi?*

### **3.3. Kitob maketini yaratish jarayonining asosiy bosqichlari**

**Birinchi bosqich:**

Kitob kompozitsion asoslarining o'rgatilishi, uni bezatish vositalari, kompozitsiya ustida ishlash, bezatish originallarini yaratish.

## **Birinchi qism:**

— Adabiy asarni o'qib, fikrlar asosida bezatish loyihasi ustida ishlashga kirishiladi: dastlabki qoralama maketni buklangan teng taqsimlangan qog'oz varaqlaridan daftarcha yoki «garmoshka» ko'rinishida yaratish.

Birinchi bosqichning ikkinchi qismi: nashrning aniq o'lchamini aniqlash (nisbat va mm. da), shuningdek, bosma yuzasi o'lchamini belgilash.

— Nashr matni Microsoft Word dasturi yordamida teriladi. Asosiy va qo'shimcha shriftlar, inisiallar (bosh harflar), garnitura va kegellar aniqlanadi.

— Rubrika sistemasi ustida ishlanadi (sarlavhalar, sarlavha osti yozuvlari, kolontitullar, kolonsifrlar), shuningdek, illyustratsiyalar soni va ular bajariladigan texnikalar aniqlanadi.

— Tashqi bezatish turi tanlanadi (jild yoki muqova) va ularning bezatilish eskizlari ustida ish olib boriladi.

— Kitobning namunaviy sxematik maketi ishlanadi (qo'l mehnati yoki kompyuter dasturi yordamida), zarur hollarda ular materiallarda (qog'oz, karton) natural o'lchamda yoki kichraytirilgan mashtabda tayyorlanadi.

— Birinchi bosqichning uchinchi qismi: tashqi element bezagining asl nusxasi tayyorlanadi (jild, forzaslar, muqova, supermuqova).

— Kitob ichki elementlar bezaklari ustida ishlanadi va ularning asl nusxalari bajariladi (avantitul, frontispis, titul, shmustitullar).

— Ichki ziynatlar asl nusxalari bajariladi (bosh harflar, naqsh-ornamentlar, vinetkalar).

— Illyustratsiyalar, boshlang'ich va oxirgi bezaklarning asl nusxalari yaratiladi.

## **Ikkinci bosqich:**

— Bezaklar asl nusxalarini raqamlash tushunchasi va prinsiplari (skanerlash).

— Ikkinci bosqichning birinchi qismi: asl nusxalar va ularning rang korreksiyasini Adobe Photoshop grafik redaktorda skanerlash.

— Aniq betma-bet yelimlab joylashtirilgan bosma matn bloki va bosma yuzasiga joylashtirilgan illyustratsiyalar nashr maketi

tayyorlanadi, yoki nashrning original-maketi kompyuter Adobe InDesign, CorelDraw dasturlari yordamida sahifalanib ishlanadi

### ***Ikkinchchi qism:***

– Maketni chop etishga tayyorlash (elektron variant holatlarda, maket (Adobe InDesign, CorelDraw) kompyuter dasturlarida sahifalanadi.

Kitob rassomining yana bir vazifasi, albatta, o‘quvchilar auditoriyasini e’tiborga olgan holda, mazkur adabiyotdan qaysi yoshdagilar foydalanishini aniqlash. Kitob o‘lchamlari, asar matni, tasviriy ashyolar – tarkibiy qismiga kiruvchi barcha elementlarni aniqlash zarur. Davlat standartlari asosida quyidagi qog‘ozlar o‘lchami belgilab berilgan: (santimetrda) 60x84; 60x90; 70x90; 70x108; 84x108. Bu besh o‘lcham shunchaki tanlangan emas, ular xususiyatlari bilan o‘zaro bog‘liq, bir tomonidan qog‘oz poligrafiya va nashriyot imkoniyatlaridan kelib chiqilsa, ikkinchi tomonidan esa, iste’molchi talabidan, xususan qog‘ozlar tomonining nisbat farqi, falsovkalash, ya’ni qog‘ozni ma’lum tartibda buklashda qulay ekanligi, mutolaa – gigiyenasi o‘quvchi nazariga mutanosibligi kitob, gazeta, jurnal tomonlarining nisbatini hisobga olishga asoslangandir.

Talabalar quyi bosqichlarda qog‘ozni ma’lum tartibda buklash va bichimlarni aniqlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishgan.

Maket ishlab chiqarishni tezlashtiradi: qo‘lyozma matni, illyustrsiya, alohida ilovalar varaq materallarini joylashtirishda vaqt ni tejaydi.

Kitobning barcha tarkibiy qismi maketi ustida ishslash juda ham muhimdir. Bu maket nashr o‘lchamiga, topshirilgan yoki bir qarorga kelingan tashqi va ayniqsa, ichki kitob elementlari o‘lchamlariga aniq mos kelishi kerak. Maket ishlab chiqarishda barcha imkoniyatlar, ya’ni tanlangan usulning xususiyatlari, texnik-tashkiliy jarayoni, ashyolar, ularning tarkibiy tuzilishini hisobga olish zarur.

Maket loyihasi kitob nashrining texnologiyasi va ishni tashkil etish, iqtisodiy tomonlar bilan uzviy bog‘liqdir. Shuni yodda tutish kerakki, kitob nashri, ayniqsa, fundamental nashrlar, rangli albomlar, ensiklopediya va ko‘p adadli tanlangan asarlar to‘plami ancha

51-rasm. Betma-bet va aniq namunaviy maket ko'rinishlari



katta mablag‘ni talab etadi. Shularni hisobga olgan holda badiiy nashr maketini qurishda asosiy elementlar va shuningdek, kichik detallargacha e’tibordan chetda qolmasligi lozim.

Namunaviy sxematik maket qanchalik yaxshi tayyorlanishiga qaramasdan u faqat umumiy bezatish sxemasini beradi. Batafsil betma-bet bezatishning barcha imkoniyatini faqat eskizli yoki aniq varaqma — varaq maketlar ko‘rsata oladi.


Sahifali maket — bu bo‘lg‘usi nashrning to‘liq modeli barcha bezak elementlari va matn, illyustratsiya eskizlari, original bajariladigan texnikada ishlangan varianti joylashtirilgan ko‘rinishi. Maket yo natural kattalikda yoki nisbatlar to‘g‘ri olingan kichraytirilgan holatda tayyorlanadi. Eskizli sahifali maketning tugallangan darajasi turli ko‘rinishda, masalan, qoralamadan, unda matn va illyustratsiyalar ton va massalarda ko‘rsatilib, to eskizlar mukammal ishlanib, yaqinlashtirilgan, ammo qatorlarning aniq hisob-kitobi olingan variantigacha bo‘ladi. Ko‘pincha eskiz — sahifali maket uncha katta hajmda bo‘lmagan bolalarga mo‘ljallangan nashr uchun tayyorlanadi.

Maket bosma yuzasining o‘lchamini, qo‘llaniladigan kegl va shriftlar chizmasi bosma elementlari o‘rtasidagi oraliqlar, sarlavhalarni bezatishda, yordamchi ko‘rsatgichlar, ilova, matn ortidagi izohlar, chiqish ma’lumotlarini aniqlashga yordam beradi.

Kitob maketini yaratish jarayonida uning o‘lchamini tanlash eng muhim manba hisoblanadi, chunki bu nashr turiga bog‘liq bo‘lib, kitobdan qaysi holatlarda foydalanish funksiyasi bilan belgilanadi (stol ustida, ma’lumotnomha, she’lar to‘plami, darslik, yonda olib yuruvchi nashr, ilmiy monografiya, sovg‘a uchun mo‘ljallangan nashr, geografiya atlas xaritasi yoki badiiy galereya asarlari reproduksiyalar albomi, bular barchasi shubhasiz turli o‘lchamlarda bo‘lishi tabiiy) va albatta, buyurma beriladigan tipografiya imkoniyatlaridan kelib chiqiladi.

**Kitob o‘lchami** — kompozitsiya asoslarining asosi bo‘lib, uni aniqlamasdan nashrning har qanday istalgan elementini bezatishning hech qanday imkoniyati yo‘q. Bosma yuzasi va hoshiyalarning joylashuvi garmonik va nisbat o‘lchamlarni aniqlashtirishda mashhur tipografiya ustasi Yan Chixold o‘rta asrlar davridagi

sara kitoblar namunasidan kitob sahifalarini taqsimlash oltin qonunini tikeladi. Istalgan kitob o'lchamida bu qonunni qo'llash sahifa bosma yuzasini erkin garmonik tuzilishiga olib keladi. Xuddi shunday kitob sahifasi yuzasini to'qqiz va o'n ikki qismga garmonik taqsimlash, sahifaning to'qqizdan bir qismi ichki, to'qqizdan ikki qismi tashqi, to'qqizdan bir yuqori va to'qqizdan ikki qismi quyi hoshiyalarni tashkil etadi. Bu yechim eng klassik usullardan biri hisoblanadi (*48-rasm*).



*52-rasm.* Kitob sahifasini teng to'qqiz qismiga taqsimlab hoshiyalarni aniqlash

Kitobni zamonaviy badiiy bezatish asosida barcha elementlarning absolyut garmoniyasi yotadi. Shu sabab biz yana va yana garmonik nisbatlarni o'qib o'rganishimiz shart. Garmon mohiyati – nisbat farqlari. Nisbatlar har narsada farqlanadi: yuza o'l-chamida, qatorlar oralig'idagi farq nisbatlar, kolonsifr va matn oralig'i, so'zlar va b. Elementlarning o'zaro mosligi kitob arxitektonikasida shakllanadi. Kitob arxitektonikasi – bu matnning alohida qismlari (bob, sarlavha va b.) va illyustratsiyalarning nisbat, mosligi yaxlit, butun umumlashgan kitobni tashkil etadi. Kitobning qismlarga, bob, paragraf va boshqalarga bo'linishi kitob arxitektonikasida ifodalanadi. Bu bo'linishlar sarlavhalar yoki rubrikalarda aks etadi.

Rubrikatsiyalarni qurish va bezatish xususiyatlari. Odatda, kitobning barcha bo'limlarining arxitektonikasi bir xil. Masalan, har bir bob bo'limlarga bo'linadi, har bir bo'lim paragraflarga. Biror-bir zvenaning qo'shilmagani (agar, aytaylik, biror-bir bo'-limda paragraf ishtiroki bo'lmasada, punktlarga taqsimlanish bo'lsa) darhol rubrikatsiyalarning asoslanganligiga nisbatan shubha paydo qilishi mumkin. Sarlavhalarning joylashish (viklyuchke) masalasi ham turlicha yechimini topadi. Birinchi sistema bo'yicha sarlavhalar, alohida qatorlarda ifodalanadi, qizil qatorga, ya'ni o'lchamning eni bo'yicha aniq markazida bo'lib, bu kitob sahifasida simmetrik ko'rishda bo'ladi. Ikkinci sistemada sarlavhalar «bayroq» tarzda ifodalanadi, ya'ni ularning qatorlari bir vertikal bo'yicha joylashadi. Bunday joylashishning eng oddiy ko'rinishi – sarlavha viklyuchkasi chap tomonda o'rinnegallaydi, shuningdek, birmuncha murakkabroq variantdagi ko'rinishlari ham mavjud. Agar sarlavha bir qatorga joylashmasa, ularni qatorlarga shunday taqsimlash kerakki, qachonki, ayniqsa, aloqador so'zlar bir-biriga ulanib bir qatoridan o'rinnegallashi kerak.

#### **Nazorat savollari:**

1. *Forzas – nima va u qanday vazifani o'taydi?*
2. *Titul varag'i nima? Uning vazifalarini aytинг.*
3. *Illi tutash bet deb nimaga aytildi?*
4. *«Shmustitul» so'zining ma'nosi nima?*
5. *Illyustratsiya nima? Uning turlariga misollar keltiring.*

### **Mustaqil amaliy topshiriqlar:**

1. Kitob elementlarini amalda ko'rsatib bering.
2. Titul varag'i uchun xomaki nuxsalar chizib ko'ring.
3. Kitob elementlarining qoralamalarini bajariing.
4. Yarim betli illyustratsiyalar chizishni mashq qiling.



53-rasm. Charm jiddli,  
g'ilofdag'i kitob

### **3.4. Matn terish qoidalari**

- ◆ Matn terishning umumiy qoidalari
- ◆ Bo'g'in ko'chirish qoidalari
- ◆ Raqam va belgilarni terish qoidalari
- ◆ Sarlavhalarni terish
- ◆ Jadvallarni yaratish

### ♦ Matn terish umumiy qoidalari

Matn terishda so‘zlar o‘rtasidagi oraliq bir belgiga (simvolga) teng bo‘lishi eng to‘g‘ri o‘lchamni tashkil etadi. Terishda «yo‘lak» (koridor) bo‘lmasligi zarur, ya’ni so‘zlar oraliqlari vertikal bo‘ylab uch va undan ortiq qatorlarda bo‘lishi mumkin emas. Abzaslar masofasi butun matnda bir xil bo‘lishi, uning oxirgi qatori, abzas oralig‘idan kamida 1,5 baravar uzunroq joylashishi kerak. Mabodo matn abzassiz teriladigan bo‘lsa, u holda oxirgi qator bo‘lmasligi lozim.

Sahifa 30–40 qatordan iborat bo‘lishi, qator uzunligi 60–65 belgidan ortmasligi tavsiya etiladi. Matnnning quyi chegarasi oldingi sahifada keyingi sahifadagi matnnning boshlanishidan 5 qatordan kam bo‘limgan holda pastroqda bo‘lishi kerak. Bobning so‘nggi sahifasi (agar bob yangi sahifadan boshlanadigan bo‘lsa) hech bo‘limganda yarim betning yarimigacha tushiriladi.

### ♦ Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari

So‘zlar ma’nosini noto‘g‘ri talqin qiladigan bo‘g‘in ko‘chirishga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Bosh harflar bilan yoziladigan qisqartma so‘zlarni bo‘g‘inga ko‘chirish mumkin emas, masalan: UNR, KPI, MFO va shu singari qisqartirilgan so‘zlar ajratilmaydi. Zarur hollarda tire belgisi bilan ko‘chirish mumkin, bunda tire oldingi qatorda qoladi, masalan: 1985 – 1990, X – XI

Ism-sharifni familiyadan ajratish tavsiya etilmaydi. O‘lchov birliklarining nomlarini raqam va qisqartirilgan so‘zlardan ajratish mumkin emas.

Quyidagi raqam va belgilarni alohida ko‘chirish taqiqlanadi:  
50%, \$10, №= 25

Iloji boricha belgilar ikki qatordan ortiq ko‘chirilmaydi.

### ♦ Belgi va raqamlar

Ajratuvchi belgilar va so‘zlar oralig‘ida tiredan boshqa masofa bo‘lishi mumkin emas.

Matndan oldin qo‘yilgan uch nuqtaning orasiga oraliq bo‘lmaydi.

Raqamlar o'rtasidagi tireni oraliq bilan ajratmaslik kerak, masalan:

20–30.

Tire va so'zlar oraliq bilan ajratiladi.

Kombinatsiyalarda oraliq qo'yilmaydi: — yoki.

Nutq matnida tire o'ng tomonidan oraliq bilan ajratiladi.

Defis oraliq bilan ajratilmaydi.

Qavs va so'zlar o'rtasi oraliq bilan ajratilmaydi.

Qavs matn terilgan shriftda teriladi.

Tartib raqami va raqam hamda paragraf va raqam o'rtasiga oraliq, albatta qo'yiladi.

Gradus (daraja), prosent (foiz), minut (daqiqa), sekund (soniya) raqamlari oraliq bilan ajratilmaydi. Gradus belgisidan keyin kelayotgan qisqartirilgan harf oraliq bilan ajratiladi: 20° C.

Ikki tartib raqam belgisi yoki paragraflar ketma-ket kelganda qo'shib yoziladi: № №; §§.

Yuzlar va minglar, minglar va millionlar birliklari raqamlari oraliq bilan ajratiladi: 4 654 290.

Tartib raqam belgisi va droblar ham oraliqsiz yoziladi: № 236, 6/73.

+ va — belgilari raqamdan ajratilmaydi: 4+8—6. Droblar ham raqamdan ajratilmaydi: 7/5.

O'nlar va minglar birliklarida nuqtalar ishlataladi: 6.89

Tartib raqamlaridan keyingi so'z o'rtasiga oraliq qo'yiladi.

Sarlavhalarda bo'g'in ko'chirish mumkin emas, ko'p qatorli sarlavhalar bundan mustasno.

#### ◆ Jadvallar

Jadvallar quyidagi shrift kegllarida teriladi: matn — 12, jadval — 8; matn — 10, jadval — 6,8; matn — 8, jadval — 6,8.

Agar sarlavha kengligi, grafa sarlavhasi balandligidan qisqa bo'lsa, u holda qator vertikal teriladi.

Agar jadval ikki katta betni egallaydigan bo'lsa, u holda grafalar nomerlanadi va keyingi betdag'i grafa sarlavhasiga faqat tartib raqami qo'shiladi.

## **Nazorat savollari:**

1. Matn terish qoidalariga nimalar kiradi?
2. Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalarida nimalar taqiqlanadi?
3. Belgi va raqamlarni ishlatsishda nimalar ajratiladi, nimalar ajratilmaydi?
4. Tire va defisning farqi nimada? Tire va defis qaysi hollarda ishlatsiladi?
5. Oraliglar qaysi o‘rinda va qanday masofada ajratilib ko‘rsatiladi?

## **3.5. Kitob matni**

Shrift garniturasini tanlashda adabiy asarning janri va usulidan kelib chiqib, keglni topish muhim o‘rin egallaydi. O‘qishning qulayligi uchun 9 dan kichik va 14 dan katta bo‘lImagen kegllar tavsija etiladi, qatorning uzunligini yaxshi qabul qilish uchun 50–55 belgi qulay. Biz bir qatorda 8 dan 10 gacha so‘zni joylashuvini optimal qabul qilamiz. Qator qanchalik qisqa bo‘lsa, u shunchalik jonli o‘qiladi, shunga qaramay jiddiy qabul qilinadi. Uning aksi: uzun qator terilgan matn, ancha jiddiyroq qabul qilinadi, biroq unchalik darajada jonli (xohish bilan) o‘qilmaydi.

Belgi va so‘zlarni me’yor qatorda o‘rniga qo‘yish ham katta ahamiyat kasb etadi (judayam ingichka bo‘lImagen).

Sahifa kompozitsiyasi musiqa kompozitsiyasiga juda ham o‘xshashdir. Sahifa kompozitsiyasida elementlar hamohanglik, tafovut, shiddat, qat’iyat (yoki yechim), ritm, kayfiyat, rang va «iliqlik» hamda «joziba» (yoki maftunkorlik, sharm) kabi mantiqiy tushuntirib bo‘lmaydigan ta’riflarni ifodalash uchun birlashadilar. Jaz musiqachisi akkordlarni o‘zgartirib improvizatsiya qilgani singari, qobiliyatli dizayner ham matn, tasvir hamda ular atrofidagi qog‘oz bilan chegaralangan yuzada kechadigan o‘zaro munosa-batlarni boshqaradi.<sup>1</sup>

Supermuqova, jild, titul haqidagi ma’lumotlarning kitob matni qismi bilan bog‘liqligini ta’kidlamasdan turib, yoritilgan ma’lumotlarni yetarli deb bo‘lmaydi. Har qanday holatda, kitobni turli xil bezatishda, u yaxlit badiiy asar bo‘lib, namoyon bo‘lishi shart.

---

<sup>1</sup> Grid System In Graphic Design J. Muller-Brockmann, 2011 – Niggli Verlag

Muqova, supermuqova, jild, frontispis, illyustratsiyalar, forzas, titul kitob matnining o'ziga xos uvertyurasi bo'lib xizmat qiladi.

Tugallash oxirgi qism bo'lib, ular: ma'lumotlar, mundarija, chiqish ma'lumotlari va b. hisoblanadi.

Rassom kitobning umumiyl butun ko'rinishi va bu butunlik orasida alohida qismlar ajralib turishini tasavvur qila olishi lozim. Biz so'zni kitobni bezash qoidalaridan boshlaganimiz bilan aslida esa, kitobnning asosiy elementi bu — matn. Matn rassom ishining asosiy obyekti bo'lmasa-da, u kitob bezatishning xarakterini aniqlab berishi kerak.

Bu qanday izohlanadi?

Dastlab, rassom yoki nashriyot bo'lajak kitob o'lchami va shu bilan birga ish «maydonini» tanlaydi. Tajriba va amaliyotdan kelib chiqib, o'lchamni tanlash, odatda, davlat standarti asosida belgilanadi. To'g'ri, ba'zida o'ziga xos, alohida badiiy g'oya, standart belgilariga mos kelmay qoladi. Bunday hollarda mahsulotni chop etish uchun maxsus ruxsatnomalar talab etiladi.

Matnning ishchi ko'lami maydoni (hududi), boshlang'ich elementlar xarakteri (avantitul, titul, so'z boshi, muqaddima), shuningdek, oxirgi elementlar (xotima, ko'rsatkich, ilova, izoh, mundarija va b.) hajmi o'lchamlari aniqlanib, belgilanadi.



54-rasm. Sahifada matn va tasvirni to'g'ri joylashtirish

Kitobni bezatishda tanlangan shriftning xarakteri muhim o‘rin egallaydi. Uning ko‘rinishi kattaroq va bolalar uchun yengil o‘qiy-digan bo‘lishi kerak (ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar uchun).

She’riy asarlar uchun shrift tanlash, shoiri shaxsi, ijodiy yo‘li, xarakter va xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, qadimgi yunon shoiri Sofoklning she’rlari, zamondosh shoirlardan Erkin Vohidov yoki Muhammad Yusuf she’rlari bilan bir xil shriftda terilmaydi. Birinchi holatda she’rlarning hajmi va o‘lcham ritmikasi klassik shrift chizma tasvirlari bilan bog‘lanadi. Ikkinci holda esa, zamonaviy she’riy satrlarning dinamik, murakkab ritmik chizig‘i ko‘proq grotesk shriftlariga mos keladi. Ilmiy-texnik kitoblaridagi shrift tarixiy roman shriftiga nisbatan xarakteri bo‘yicha ko‘proq muayyan uslubda, aniq, jiddiy bo‘lishi kerak.

CHAPTER I LOOMINGS



Some years ago—never mind how long precisely—having little or no money in my purse, and nothing particular to interest me on shore, I thought I would sail about a little and see the watery part of the world. It is a way I have of driving off the spleen, and regulating the circulation. Whenever I find myself growing grim about the mouth; whenever it is a damp, drizzling November in my soul; whenever I find myself involuntarily pausing before coffin warehouses, and bringing up the rear of every funeral I meet; and especially whenever my hypos get such an upper hand of me, that it requires a strong moral principle to prevent me from deliberately stepping into the street, and methodically knocking people’s hats off—then, I account it high time to get to sea as soon as I can. This is my substitute for pistol and ball. With a philosophical flourish Cato throws himself upon his sword; I quietly take to the ship. There is nothing surprising in this. If they but knew it, almost all men in their degree, some time or other, cherish very nearly the same feelings towards the ocean with me.

**55-rasm. Boshlang‘ich sahifada bezak va matnning yechimi**

Kitob arxitektonikasini tuzishda, uning kompozitsion qurilishi-da matn shriftining ham roli bor. Agar qadimgi yozuvlarga e'tiborimizni qaratsak, ularning asosiy kompozitsiyasi so'zlarining tutash qo'shib yozilishidadir. Yozuvlarning keyingi rivojlanishi, turli usullarning ixtiro qilinishi, matnning qulay o'qilishi va muallif fikrini ifodali bera olish bilan bog'liq.

Bu vazifalarning dekorativ-grafik yechimi doimo kitob rassomi ishi bilan bevosita bog'liqdir.

Zamonaviy kitob matnining kompozitsion shakli so'zlarni bir-biridan ajratish, nuqtani ixtiro qilinganidan boshlab, to zamonaviy murakkab punktuatsiya tizimigacha, inisial ixtiro qilingani, bir fikrni ikkinchisidan farqlaydigan zamonaviy matnni murakkab tizimi qismlar, boblar, bo'lim, sarlavhalarga ajratish kabi uzun tarixiy yo'lni bosib o'tgan.

Kitob bezatish vazifasi uning yaxlit badiiy ko'rinishini yaratishda rassomdan chuqur bilim, barcha texnologik elementlari va mahsulot ishlab chiqarish jarayonini bilishini talab qiladi.

Kitob bezakchi-rassomning g'oyasi ishlab chiqarish uchun o'ziga xos reja bo'lib xizmat qiladi. Bu rejada bezakning barcha detallari ustida mukammal ishlash ko'zda tutiladi. Zero bu mahsulot ishlab chiqarish jarayonining xarakterini aniqlab beradi.

Texnikaning misli ko'rilmagan darajada rivojlanib ketishi kitob rassomining ijodiy g'oyasini to'xtata olmaydi. Aksincha, madaniyatli, keng bilimga ega va o'z ishining ustasi bo'lmish kitob rassomidan zamonaiy poligrafiya texnikasi talabi asosida, har doim o'z bilimiga suyangan holda, muallif matnni ifodali bera olishi, yangi-yangi shakllarni topishida izlanishlarni talab etadi. Sahifalardagi tartib raqamlarning qay tarzda joylashtirilishi, sarlavha uchun qanday shrift tanlangани va asosiy matn shrift bilan bog'langanmi-yo'qmi, matn terilishi, ularni ajratib ko'rsatish darajasi qanday, ular matn markazi o'qiga nisbatan topilganmi, bularning hammasiga rassom bee'tibor bo'imasligi ta'kidlanadi.

Xususan, detal nima, sarlavha terilgan matnga nisbatan joylash-tirish usulini qanday tanlash kitobni bezashdag'i kompozitsiya sxema holatini belgilashda ahamiyati kattadir (agar simmetrik joylashtirilsa, u holda ko'pincha titul, forzas, muqova va boshqa

bezak elementlari ham simmetrik quriladi; agar ular asimmetrik yoki boshqa kombinatsiyalar asosida simmetriya qo'llanilsa, bunda bezak elementlari bir-biriga mos ravishda quriladi).

Kitob rassomining ishi jilddan boshlanib, matn terilgunga qadar butun kitob kompozitsion yechimidan ajralib qolmasligi zarur. Rassom tomonidan kitobning barcha detallari bezagi ustida qanchalik chiqurroq ishlansa, yangidan-yangi ishonarli, puxta o'yangan g'oyalar taklif qilinsa, faqat foyda keltiribgina qolmay, balki ijodiy yutuqlarga olib keladi.

Kitob matnini tushirish yo'li asosiy bezak bo'lagini tashkil qiladi, ya'ni matn, bob, bo'lim, qismlar – boshlang'ich sahifa yo'lagi, odatda, bu sahifalarda matn bosma o'lchami tepe cheti qismidan biroz pastroqda boshlanadi. Bundan tashqari ushbu boshlang'ich sahifa yo'lagini ajratib ko'rsatish uchun, bu joyning yuqori qismiga boshlang'ich – illyustratsiya yoki dekorativ elementlar joylashtiriladi. Matn boshlanishi bezatilgan naqshli harflar bilan ajratiladi.

Ko'pincha boshlang'ich va dekorativ bezak boshlang'ich bet matn shrift xarakteri bilan bog'liqligini hisobga olinmaganligini kuzatib, uning maydalashib, sochilib ketganining guvohi bo'lamiz. Sarlavha satrlari tushirish yo'lagidagi bog'lovchi element bo'lib, ayniqsa, abzas boshidagi bosh harf boshlang'ich bezak ular orqali matnga ko'chadi. Eng asosiysi, boshlang'ich bezak, sarlavha, bosh harf va matn aniq ma'lum bir yagona kompozitsiyani tashkil qiladi.

Bosh harf o'z-o'zidan matn boshlanadigan so'z bilan bog'liq. Biroq, ko'pincha bu holat e'tiborga olinmaydi. Shuni unutmaslik kerakki, teriladigan satr bosh harf bilan uyg'unlashib qo'shilib ketsin, agar bosh harf alohida, mustaqil so'zdan iborat bo'lsa, bundan mustasnodir. Nafaqat tushirish yo'li, balki sarlavha matn orasidagi kichik sarlavha kabi barcha sistemalar bezakchi-rassomning yagona kompozitsiya g'oyasi usuliga bo'ysinishi kerak.

#### **Nazorat savollari:**

1. *Kitob matni va kitob ichki elementlari orasida qanday bog'liqlik bor?*
2. *Matndagi tugallash qismida nimalar joylashadi?*
3. *Kitob matnidagi shrift nimaga asosan tanlanadi?*

4. Kitob mahsulotini ishlab chiqarishda poligrafiyada rassomdan nimalar talab etiladi?
5. Kitob matnidagi detal nima?
6. Kitob matnining tushirish yo'lidan nima o'rin olishi mumkin?
7. Boshlang'ich bezak, sarlavha, bosh harf va matn umumiyligi nimani aks ettiradi?
8. Matn boshlanishi nima bilan ajratiladi?

#### **Mustaqil amaliy topshiriqlar:**

1. Tushirish yo'liga boshlang'ich bezaklar chizing.
2. Boshlang'ich bezak, sarlavha va bosh harfning yagona kompozitsion yechimini toping.
3. Bosh harfni bezashni matn bilan bog'lang.
4. Kitobning barcha bezak elementlarini yagona kompozitsiya yechimiga keltiring.
5. Boshlang'ich bezaklarni dekorativ naqshlarda bajaring.

### **3.6. Kitobning ichki elementlari ustida ishslash**

#### **◆ Titul**

Forzasdan keyingi varaqdan titul boshlanadi. Titul – kitobning ichki xarakterdagi «eshik», u kitob ichiga kirib borishga imkoniyat ochadi.

Titul varag'i va titul ikki tutash beti ustida biroz to'xtalib o'tamiz. Vertikal o'lchamdagisi betda matn ham bir qator tizilib «bayroq» kabi, vertikal joylashtirilgan holda har tomondan hoshiyalar qoldirilishi; betdagisi vertikal qator nigoh markazi, varaq nigoh markaziga mos kelishi zarur. Shuningdek, yuqori hoshiya pastdagidan kichikroq bo'ladi.

Titulning ikki tutash beti ikki «bayroq» qator matnni kitob o'qi markazi tomonga surib simmetrik joylashtirilsa, chetki hoshiyalar kengroq ko'rinishga ega bo'ladi.

Varaq o'lchamidan kelib chiqib, bir qator matn ustuni keng yoki aksincha, ensiz bo'lishi mumkin. Shunday qilib, titul varag'i ustida ishslashda betlar o'lchami va teriladigan harflar o'lchami juda muhimdir. Titul ustida ishslash jarayoniga yetib kelganda, biz unda aniq ifodalangan o'lchamni hoshiyali vertikal o'q chizig'i, markazni ko'rishimiz kerak. Bu vertikal elementlar butun kompozitsiya masshtabini ifodalab beradi.

О.МУХТОР

# МИНГ БИР ҚИЁФА



Роман

«ШАРК» НАШРИЕТ-МАТБАА  
КОНЦЕРНИНИН  
БОШ ТАҲРИРИЯТИ  
ТОШКЕНТ 1994

52-rasm. Titul yechimi

Titul mundarijasi mazmuni, asosan shrift, husnixat, matndan tashkil topadi. Muallif, kitob nomi, nashriyot, sana, tasvir ham kiritilishi mumkin. Shunday qilib, titulda shrift asosiy o'rinn egallaydi.

Hatto tituldagи tasvir ham shriftga suyanadi. Agar titul tasvirida odam yoki jonivorlar qomati shrift bilan tenglashadigan bo'lsa ularga alohida bo'shliq, kenglik ajratiladi. Sodda qilib aytganda, tasvir bezak, naqsh xarakteridagi ko'rinishda bo'lib, varaqda o'z o'mini bo'shliqda topishi lozim. Harflarga to'sqinlik qilmasdan, ular bilan birgalikda, titul kompozitsiyasini ochib berish talab etiladi.



Зайнолла Саманев

# Петроглифы Казахстана



56-rasm. Titul varianti

Titul uchun xarakterli qirra bu – hikoya va harakat. Lekin tasvir katta bosimda bo‘imasligi lozim. Aks holda bezakning kitobga kirish harakatiga xalaqit beradi. Shuni aytish joizki, kitob titul varag‘i alohida xususiyatga ega. U kitob yuzi, unga kirish «eshigidir». O‘qish jarayonida, fikrimiz tobora kitob ichiga kirib boradi.

Titul birinchi planda ko‘rinadi, undan keyin shmustitullar, tushirish yo‘li, o‘ng tomon sahifalari bilan yuzma-yuz uchramashimiz.

Titul – o‘ng sahifa (bet) hisoblanadi, chap tomoni ham bo‘lishi mumkin. Chap betdagи titul kitob ichiga e’tiborni tortmaydi, sahifani varaqlashni talab etmaydi. Odатда, chap tomonдagi sahifada kitobdagи bosh illyustratsiya – frontispis joylashadi.

O‘ng tomonдagi yaxlit betga esa illyustratsiyani joylashtirish tavsiya etilmaydi. Chunki, bundagi batafsил, chuqurroq aks ettirilgan

bosh illyustratsiya, kitob ichkarisidagi tasvir va matnlar bir-birini inkor qiladi, shu sababli bosh illyustratsiyaning joylashishi, aynan chap sahifaga mos tushadi.

Titul varag‘ini keyingi betga sahifalashdan oldin, kitobxonning bir zum nigohi chalg‘iydi va frontispisga ko‘zi tushadi. Holbuki, frontispisda hikoya bayoni tasvirlanmagan bo‘lishi kerak. Unda fazoviy bo‘shliqni shu bilan birgalikda adabiy asarning asosiy bosh nuqtasini ko‘rsatishga urinish talab etiladi.

Shuning uchun bu hikoya bayoni bo‘lmay, balki bunda holat aks ettiriladi, agar bayon yoki harakat bo‘ladigan bo‘lsa unda qahramonning shuhrat cho‘qqisiga, maqsadga erishgan, g‘alaba qozongan holati tasvirlanadi. Bu qahramonning obrazi yoki muallif portreti bo‘lishi mumkin.

Titul ikki tutash betdan iborat bo‘lganda, chapda nashrning umumiy tituli, o‘ngda esa kitobning shaxsiy tituli o‘rin egallaydi.

Chap va o‘ng betlarning roli butun kitobda o‘z aksini topadi. Bunaqa kitobdagi bo‘limlar, shmustitullar, boshlang‘ich bezaklar va sarlavhalar o‘ng tomondagi betlardan joy oladi. Diqqat-e’tiborni, fikrni jamlashga undaydigan chuqur mazmunli, katta o‘lchamdagи illyustratsiyalar chap tomondagi betlardan o‘rin egallaydi. Matn illyustratsiyalari esa chap tomonda ham, o‘ng tomonda ham joylashishi mumkin, bu matnga bog‘liq.

Agar katta o‘lchamli illyustratsiyalarni orqa tomonida matn o‘rin oladigan taqdirda, uni chap tomonga joylashtirish maqsadga muvofiq. Ba’zida illyustratsiya orqa tomonida hech nima bosilmasdan oq – toza holda bo‘ladigan bo‘lsa, vazifa murakkablashadi, mabodo oq sahifa o‘ng tomonga tushib qolsa, kitobxonning asar ichiga chuqurroq kirishiga xalaqit beradi. Bunday hollarda oq sahifa chapdan o‘rin olishi maqsadga muvofiqdir.

## **IV bob. QO‘LDA ISHLANGAN MAKET ASOSIDA KOMPYUTER GRAFIK DASTURLARIDA KITOB MAKETINI TAYYORLASH VA BOSMA NUSXASINI OLISH**

---

### **4.1. Sahifalash uchun grafik dasturlar**

Zamonaviy nashrlarni grafik, elektron dasturlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Hozirda ko‘p ishlar shu dasturlar yordamida taylorlanmoqda. Shulardan ba’zilari quyida qisqacha tariflanadi.

**Microsoft Word** – asosan, matn terish uchun mo‘ljallangan dastur bo‘lib, ba’zi murakkabroq vazifalar ham bajariladi.

**Corel DRAW** – vektorli grafikaga, texnik chizmalar chizishga mo‘ljallangan. Rastrli tasvirlarni vektorga va aksincha vektorni rastrli tasvirga aylantirishi mumkin. Rastrli tasvirlarni ma’lum miqdorda tahrir qiladi. Rasm chizish, matn terish mumkin. Chiroyli ranglar o‘yini kompozitsiyalarini yaratish imkoniyatlari ega.

**Adobe Illyustrator** – vektorli dastur bo‘lib, Corel DRAWdagi deyarli barcha vazifalarni bajaradi. Yanada imkoniyatlari keng, ishonchli ishlaydi, Eng muhimi, o‘z oilasidan bo‘lgan Adobe dasturlarlari bilan juda mos, hamkorlikda ishlaydi.

**Adobe Page Maker va uni davomchisi bo‘lgan Adobe In Design** – aynan professional nashriyot ishiga mo‘ljallangan bo‘lib, sahifalash (verstka) shu dasturda qilinadi, matn va tasvirlar yig‘iladi. Maketlarga yaxshi. FaylniPDFga va EPS (Post Script) bosmaxona formatlariga aylantirib bera oladi.

**Adobe Photoshop** – rastrli tasvirlar, rasmlar, fotolarni tahrir qilishga eng yaxshi, peshqadam, universal dastur. Kichikroq animasiya ham qila oladi.

**QuarkXPress** – professional nashriyot dasturi. Sahifalanadi, matn va tasvirlar yig‘iladi.

Elektron sahifalash turli dasturlar yordamida amalga oshiriladi. Ulardan bir nechta omonga tavsiya etilgan. Tajriba va shaxsiy maqsadlardan kelib chiqib ulardan foydalanish uchun birortasi

tanlanadi. Ular orasida ko'p betli nashr mahsulotini sahifalashda keng tarqalgan dasturlar – produkti korporasiyasi Adobe (PageMaker, FrameMaker, InDesign), QuarkXPress, Corel Ventura Publisher, TeX. Ular o'ziga xos individual xususiyat va funksiyalarga ega. Masalan, FrameMaker, Ventura Publisher, TeX ko'proq matn, jadval, formulalar joylashishining murakkab tizimini avtomatlash-tirishga mo'ljallangan, shu o'rinda PageMaker, InDesign va XPress illyustratsiyalar bilan ishlashga mo'ljallangan, ya'ni jurnal, kitob, reklama mahsulotlarini sahifalashda qo'llaniladi.


Shuni qo'shimcha qilib ta'kidlab o'tishni lozim topdikki, yana bir nashr – MS Word yordamida juda yuqori darajada sahifalash ishlarini amalga oshirish mumkin. Maxsus sozlash yordamida bu dasturni sahifalash va matn ustida ish olib borish uchun qo'llash mumkin, amalda PageMaker, XPress yoki InDesign dasturlarining funksiyasini o'rnini bosa oladi. Amalda Word dasturida ham sahifalash mumkin, agar bu sahifalovchiga qulaylik tug'dirsa, ammo bu usulni mutaxassislarining ko'pchilik qismi noprofessional yo'l deb hisoblashadi. Lekin sahifalash uchun eng qulay maxsus dastur kashf etilib bo'lingan!

Kitobni sahifalashda eng mos keladigan dasturlardan qaysi biri ekanligi haqida turli xil fikrlar bor. Asosiy raqobatchilar, albatta, InDesign va XPress deb aytishadi. Ikkala dasturning ham ashaddiy tarafdarlari ko'pchilikni tashkil etadi, shunga qaramasdan profesional sahifalovchilarining ko'pchiligi kitobni sahifalash uchun hozirgi kunda InDesign eng afzal dastur deb hisoblashadi.

Professional sahifalovchilar chop etilgan kitobni qo'liga olgan zahoti uni qaysi dasturda sahifalanganligin aniqlashadi. Xulosa qilib aytganda kitob o'quvchiga mo'ljallangan bo'lib, shu bois sahifalash ishini boshlashda qulayliklarni hisobga olish zarur.

### ◆ Maket yaratilishi

Sahifalash qaysi dasturda bajarilishidan qat'iy nazar, o'ylangan kitobning muvaffaqiyati sahifalash faylining yaratish, to'g'ri tanlash va qoidalarga bilim asosida yondashishg bilan aniqlanadi. Ishga kirishishdan eng avvalo bo'lajak kitob matni bilan tanishib chiqib, umumiy tasavvurga ega bo'lish tavsiya etiladi. Kitob nima haqida,



57-rasm. Boshlang'ich sahifani kompyuter dasturlarida bajarilishi

adabiyotning qaysi janriga tegishli, bu nashrning sahifalash jarayonida elementlarning bezatilishini aniqlash uchun asqotadi. Asosiysi sahifalovchi kitobning tuzilishini (rubrikatsiya) aniq tasavvur qilmog'i talab etiladi, shrift, sarlavha, kichik sarlavhalarni va h.k.ni tanlash shunga bog'liq bo'ladi.

**Maket** – qoidalarga rioxanasi qilgan holda betlarga elementlar joylashtiriladi. Shu sabab maked – bu sahifalashning asosi hisoblanadi. Sahifalashning makedini yaratish taxminan elementlarning qaytarilishi (matnlar ustunlari oraliq'i, bosma yuzasining o'lchami, sarlavhadan oldingi tushirish yo'li, hoshiyalar o'lchami) barcha betlarni bir xil usulda bajarilishi zarur.

Eng qulay dizayn shunchaki kitob obrazini aniqlamasdan, sahifalash jarayoni qanchalik mehnat va vaqt talab qilishiga ham bog'liq. To'g'ri qoidalalar asosida bajarilgan maked sahifalovchiga elementlarni betlarga qay tarzda joylashtirishda hech qanday muammo tug'dirmaydi, chunki ularning o'rni maked to'ri orqali aniq ko'rsatilgan bo'ladi. Sahifalashni aniq rejasidagi natijasida bitta umumiy yoki bir necha shablon asosida, barcha ichki betlar yaratiladi.

Kitob kompozitsiyasi yaratilayotganda oltin kesishuv qonunlarini aslo unitmaslik talab etiladi, ammo uni aniq vazifa va imkoniyatlardan kelib chiqib shartli ravishda qo'llash mumkin.

Betlarning bir necha nisbatlari mavjud, ya'ni uzunlikning balandlikka bo'lgan chiziqli nisbati. Maketni sahifalashda, asosan, quyidagilar qo'llaniladi:

- ◆ geometrik aniqlangan irrasional nisbatlar 1:1,41 (kvadratning tomonlarining uning diagonaliga nisbati); 1:1,538; 1:1,618 (oltin kesishuv); 1:1,732

- ◆ oddiy ratsional nisbatlar 1:2, 2:3, 3:4, 5:8 (oltin kesishuvga yaqinlashtirilgan), 5:9. Qolgan nisbatlar tasodifiy hisoblanadi.

Tushuntirish mushkul bo'lsada, ammo isbot etilgan, ya'ni inson ko'zlarini nisbatlari geometrik aniq tekislikni, tasodifiy nisbatlarda qurilgan tekislikga qaraganda ko'proq chiroyli yoki yoqimli qabul qiladi.

- ◆ Oltin kesishuv qoidasi yoki qismlarga bo'lish, inson ko'zlarini nisbatlarni yengil va yoqimli qabul qilishiga asoslangan, bunda chiziqning uzun kesmasi qisqa kesmaga nisbati, go'yoki barcha chiziqlar uzun kesmaga, aynan,  $(A+V):A=A:V$ . Bunda, agar V, ya'ni qisqa kesma 1 ga teng bo'lsa, u holda A taxminan 1, 61 teng. Buning qimmati shundaki, ko'zlarining fiziologik shartlariga mos keladi, yuqori va quyiga nisbatan yonlarni yaxshiroq ko'rish qulayligidadir.

Kitobning barcha elementlari o'zaro garmonik o'yg'unlashgan bo'lishi kerak: nashr o'lchamiga mos tarzda to'g'ri tanlangan shrift, bosma yuzasi, hoshiyalar mutanosibligi, grafik elementlari kitobning umumiy usulidan ajralib qolmasligi talab etiladi. Dizayner-sahifalovchining birgina e'tiborsizligi matnda, rangda, shriftni tanlashdagi, qoidaga zid bezatilish, sifatsiz qog'ozni ishlatish bilan bajarilgan harakati kitob haqidagi umumiy estetik taassurotni tushirib yuborishiga olib keladi. Sahifalovchidan kichik asar bo'ladimi yoki katta hajmdagi murakkab kitob bo'ladimi barchasiga bir xil estetik did, ma'suliyat bilan yondashish talab etiladi.

Maket va sahifalashni yaratishning asosiy maqsadi – ularning yordami bilan kitob tushunarli va o'qishga qulay ko'rinishiga ega bo'ladi. Maboda chop etilgan nashr o'quvchiga qiyinchilik tug'-

dirsa, bunday sahifalash sifatsiz hisoblanadi. Kitob sahifalanishiga nisbatan munosabat har doim oddiy klassika qoidalariga riosa qilish tavsiya etiladi, zero kitobning asosiy maqsadi – sahifalov-chining ishonarsiz ambisiyalarini emas, balki muallifning fikrini o'quvchiga to'g'ri, tushunarli yetkazishga xizmat qiladi.

### ♦ Maketning asosiy elementlari

Matn elemenlari o'zining xususiyatlarga qarab turli darajadagi iyerarxiga ega (asosiy matn, sarlavha va kichik sarlavha, tasvir tagidagi izohlar), shu sabab asosiy matnning parametri aniqlangan dan so'ng, sarlavhalar uchun usulni tanlash zarur. Sarlavhalar (qisqa, tushunarli va yengil, o'qishga qulay bo'lishi kerak) umum-lashtiradi va o'qishni yengillashtiradi, bet logikasining mo'ljaliga yordam beradi. Sarlavhani matn vertikali bo'ylab chap tomoniga surish usuli o'quvchi diqqatini jalb qiladi. Matn va navbatdagi sarlavha oralig'i, qoidaga binoan unga tegishli matn va bu sarlavha oralig'idan uzunroq bo'ladi. O'zaro bog'langan elementlar bir-biridan bir xil o'lchamdagи bo'shliq bilan ajralib turishi kerak (masalan, sarlavha va unga tegishli matn, illyustratsiyalar va ularning izohi).

Sarlavhada qo'llanilgan shrift garniturasi yoki kegli asosiy matnga nisbatan keskin farqlanishi zarur. Kichik sarlavhalar, bosh sarlavhaga nisbatan keskinligi biroz yumshoqroq, asosiy matnga qaraganda esa kuchliroq bo'lishi maqsadga muvofiq. Asosiy sarlavhalar (birinchi darajadagi sarlavhalar) kegli, odatda asosiy matnga nisbatan 2 punkt yuqori, ikkinchi darjadagi sarlavhalar – kegli asosiy matndagi bir xil bo'lib, 1 punkt yuqori ko'rinishda bo'lishi mumkin. Har qanday darajadagi sarlavhalar uchun kapitellar qo'llaniladi. Qatordagi shriftlar shakli chizig'i belgilari kichraytirilgan bosma ko'rinishda bo'lishi kapitel deb ataladi. Kapitelni kichraytirilgan bosma kegl bilan adashtirmaslik kerak, bunda, ya'ni shrift shakli chiziqlari keskinligi va o'qishga qulayligi bilan odatdagи bosma shriftdan farqlanadi.

**Kolontitul** (*frans. colonne* – ustun va *lot. titulus* – yozuv, sarlavha) deb sarlavhachalar ma'lumotlariga aytildi, nashrning har bir betida matndan yuqorida yoki quyida o'rin oladi. Kolontitul

yordamida nashrning butun yaxlitligini kuchaytirish mumkin. Kolontitullarning doimiy joylashish o'rni matn sarlavhasining joylashgan o'rni turiga qarab mos tarzda qo'llaniladi. Kolontitul asosiy matndan yaqqol ajralib turishi kerak. Kolontitul uchun kursiv yoki kapitel shrift turi (asosiy matndagidek) tavsiya etish mumkin.

**Kolonsifrlar** (*betlar tartib raqami*), odatda, kolontitul bilan bir qatorda betning yuqori qismida, chap yoki o'ng tomonda, agar quyidagi kolontitul bilan o'rin egallasa, u holda matnning so'nggi qatoridan bir qator intervalda joylashadi. Kolonsifr sifatida, odatda, arab raqamlari qo'llaniladi. Ba'zida kolonsifrlar betning dizayn elementi bo'lib ham xizmat qiladi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki bo'g'in ko'chiriladigan, ketma-ket keladigan maksimal qatorlar sonini aniqlash nazardan chetda qolmasligi kerak. Umumiy qoidalar bo'yicha ularning soni ketma-ket ikkitadan oshmasligi talab etiladi. Bo'g'in ko'chirishni tashkillashtirish mezonii – so'zlarning qulay o'qilishi bilan bog'liq. Qoidalarga qattiq rivoja qiluvchilar bo'g'in ko'chiriladigan so'zning bиринчи qismi uchta harfdan kam bo'lmasligiga harakat qiladilar, biroq amaliyotda buning har doim imkonni bo'lavermaydi.

#### Nazorat savollari:

1. Microsoft Word dasturida ishlash.
2. Adobe Photoshop-grafik redaktorini qo'llash.
3. CorelDraw dasturi tushunchasi va uning yordamida maketni bajarish.
4. Adobe InDesign dasturi tushunchasi va uning yordamida maketni bajarish.

## 4.2. Qattiq qoplamlari aniq betma-bet hisob-kitobli maketni qo'lda ishlash

Kitob loyihasini ishlab chiqish. Kitobning aniq o'lchami aniqlangach, uning qoralama maketi ishlab chiqiladi

### ◆ Kitob tashqi bezagi, muqova va jild ustida ishlash

**Muqova, jild** – kitob varaqlarini chang va ifloslanishdan muhofaza qilish va blokni koreshokka biriktirilgan mexanizmini berkitish vazifasini bajaradi.

Kitob javondan o‘rin olgach, xaridor uchun koreshok diqqatni jalg qiluvchi hisoblanadi. Bu vaqtda kitob – jild tomonlari boshqa kitoblar orasida ko‘rinmasdan, faqat koreshok bizning nazarimizga tushadi, e’tiborni tortadi. Shuning uchun, koreshok shakli, jildni taylorlashda muhim o‘rin egallaydi.

Jild, muqova uzoq tarixiy rivojlanish jarayoniga ega. Uning zamонавиј ко‘риниш шакли, takomillashgan mexanizmlarni qo‘л-lashdagi juda ko‘p sonli muqova, jild va ularga biriktirilgan kitob blokini tayyorlashga ixtisoslashtirilgan. Maxsus mashinalar yordamida jild, muqovalarning turli ko‘rinishlari, albatta, qo‘л ishida tayyorlangan shaklidan farq qiladi. Qo‘л ishida bajarilib tayorlangan kitob jidlari son jihatidan bir nechta, hatto ba’zida yagona nusxada taylorlashda foydalaniladigan ashyolarga ham tegishlidir.

Qadimda kitob jidlari turli ishlov berilgan teri, charmlardan, sahtiyon teri, qimmatbaho mato, ba’zida zargar ustalar tomonidan



58-rasm. Muqova tasviri kompozitsiyasi yechimi

metal, noyob toshlar, fil suyagi, nodir daraxt turi va b. ashylardan tayyorlangan. Bu ashylar, jild tomonlari vazifasini bajaruvchi yog‘och taxtachalari ustiga tortilgan. Jild koreshoklari tayyorlanish shakli va texnikasi bo‘yicha turli rang-barang ko‘rinishda bo‘lgan.

Kitob jildlarini qo‘lda tayyorlash rivojlanib, juda yuqori bosqichga erishildi. Bu esa bir qator ustalar mакtabalarining tashkil topishiga asos bo‘ldi. Ustalar ashyo xarakteridan kelib chiqib, jildni dekorativ, ya’ni ziynatli – jihozlashning turli usullarini ixtiro qilishdi.

Sahtiyon jildga harflarni qattiq bosimda siqish usulida tushirilib, botiq ko‘rinishdagi harflar tillada bo‘yalgan.

Ma’lumki, hozirgi vaqtida kitob yuz ming va hatto undan ko‘p adadda chop etiladi. Tabiiyki ularni charm jildda tayyorlashning imkoniyati yo‘q. Bugungi kunda maxsus ishlov berilgan tekstil mato, qog‘oz va kartonning qattiq navi turlari jildni tayyorlashda asosiy ashyo bo‘lib qoldi.

Oxirgi paytda muqova ishlab chiqarishda sintetik plastmassa qo‘llaniladigan bo‘ldi. Zamnaviy ashylarning jildni tayyorlashda imkoniyati keng. Bosma va quruq bo‘yoqlarni ishlatishda tilla, rangli alyumindan foydalanib, tamg‘ali, shtampli, bo‘rtma, botiq bosma usuli va hatto mexanik usulda bajariladigan, qadama naqshlar bilan ham bezatiladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, bugungi kunda bosmaxona mashina uskunlari kompyuterlashtirilib, shu qadar rivojlanganki, kitob ishlab chiqarish, chop etish misli ko‘rilmagan darajaga ko‘tarildi. Kerakli talablar avtomatik tarzda, yuksak saviyada va yuqori sifatda bajariladi. Kitob jildi yuzasi ishlovida – koreshok shakli ko‘rinishi ham asosiy o‘rin egallaydi. Turli ashylarning xarakteridan kelib chiqib, bosmaxona amaliyotida jildning to‘qqizta standart turi ishlab chiqariladi.

*1-raqamli.* Yaxlit kartondan, egiluvchan, uch tomoni varaqlar bilan birgalikda qirqilgan, hoshiyasiz turi. Bunday ko‘rinishli jild, asosan texnik, ma’lumotnoma va boshqa nashrlar uchun qo‘llaniladi.

Karton yuzasiga tipografiya bo‘yog‘i yaxshi singadi, agar u presslangan bo‘lib, yuzasi silliq bo‘lsa, tasvir bosmasi tiniqroq va

sifatliroq chiqadi. Bo'yoq ishlatmasdan relyef (bo'rtma, botiq) usuldan foydalansa ham bo'ladi.

*2-raqamli.* Xuddi 1-raqamdagagi jildga o'xshash, faqat hoshiyali bo'ladi.

*3-raqamli.* Umumiy o'quvchilar daftari singari, yumshoq, yaxlit matoli qirqilgan jild. Jildning tashqi ko'rinishi xuddi 1-raqamdagidek, faqat koreshokdagi bo'rtma, yo'l-yo'l chiziqlar bo'lmaydi. Jild tomonlariga bosiladigan tasvir to'g'ridan-to'g'ri uning qaysi ashyodan tayyorlanganligiga bog'liqdir. Masalan, kolenkorda (qalin surp) tipografiya bo'yog'i bilan bosma mashinasida va quruq bo'yoq orqali zar presslashni bosma uskunalarida bajarishning imkoniyati katta. Bo'rtma bosmani kolenkorda bajarishning iloji yo'q.



59-rasm. Kompyuter dasturlarida bajarilgan muqova bezagi

Lederin (sun'iy charm) ashyoga tipografiya bo'yog'i yopishmaydi. Shuning uchun zar pressda, odatda, quruq bo'yoq va buyurtma bosmadan foydalaniladi, u mastika qatlamda lederinni yopadi va yaxshi o'mashib qotadi. Plastik ashyo imkoniyati deyarli lederin matoga o'xhash, biroq plastmassa yuqori darajada egiluvchanlik, qayishqoqlik xususiyatga ega bo'lganligi uchun bo'rtma bosma kuchli taassurot qoldiradi.

*4-raqamli.* Qattiq yaxlit qog'ozdan, hoshiyali jildning bu turi turli xil badiiy, bolalar adabiyoti, ilmiy-ommabop, ba'zi texnik va reklama mahsulotlarida juda keng tarqalgan. 4-raqamli jild, turli qog'oz navlari vositasida qoplanadi. Sifatli yelimlanganligi bois, bezatish uchun keng, cheksiz imkoniyat yaratadi. Bu jild turi deyarli barcha ishlab chiqarish vositasi bor bosmaxonalarda chop etiladi, shu jumladan mato jildlar uchun qo'llaniladi. Boshqa barcha hollardagidek, 4-raqamli jildning koreshogi turli xil bo'lishi mumkin, lekin amaliyot shuni ko'rsatadiki, to'g'ri koreshok jildning eng yaxshi ko'rinishini ta'minlaydi. Jildning bu turi umuman hajmi katta bo'limgan kitoblar uchun mo'ljallangandir. Jildning qattiq deb nomlanishiga sabab, tomonlarning qattiq, kam egiluvchan kartonda tayyorlanishi. Shu bilan u boshqa turlardan farq qiladi, oldingi jild turlarda esa, egiluvchan yupqa karton yoki qalin qog'oz navi ishlatalidi.

*5-raqamli.* Koreshogi matoli qattiq jild. Uning tomonlariga qog'oz yelimlangan bo'ladi. 5-raqamli jild xuddi 4-raqamli jild singari xususiyatlar va imkoniyatlarga ega, faqat bu tur hajmi katta bo'lgan kitoblar, ya'ni darslik, saylanma, ma'lumotnoma, texnik kitoblarni tayyorlashda qo'llaniladi. Biroq 5-raqamli jildning matoli koreshogi bezakchi rassomning vazifasini birmuncha murakkablashtiradi. Bezatishning turli-tumanligi imkoniyati matoli koreshok va qog'ozli muqova umumiy badiiy yechimga bog'langan bo'lishi kerak. Jilddagi kolenkor o'lcham sahni, koreshokning tomonlarga tutash joyi, shuningdek, dekorativ bezakning xarakteri katta ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, jild qog'oz qismini bezatish yechimi usuli o'zgarishi mumkin.

*6-raqamli.* Hoshiya bilan egiluvchan yaxlit matoli jild. Jildning bunday turi unchalik keng tarqalmagan. Ma'lum doiraga mo'ljal-

langan bo'lib, lug'at, texnika ma'lumotlari uchun qo'llaniladi. Biroq, u juda qulay va chiroyli, ayniqsa, kichik o'lchamda nashr etilgan bo'lsa, hajmli kitoblarga ham mos tushadi.

**7-raqamli.** Hoshiyador, qattiq yaxlit matoli jild. Asosan, o'rta va katta hajmdagi kitoblarga qo'llaniladi.

**8-raqamli.** Qattiq matoli, hoshiyador jild. Uning tarkibi koreshok va yuz qismi uchun kesiluvchi (anchagina qattiq) ashyolardan iboratdir. Bunday jildlar ensiklopedik xarakterdagi lug'atlar uchun qo'llaniladi.

**9-raqamli.** Plastik ashyodan tayyorlangan hoshiyali jildlar. Asosan, egiluvchan, yumshoq texnik lug'atlari, ma'lumot kitoblari uchun ishlataladi. Hozirgi kunda albomlar, kataloglar, badiiy adabiyotlarni nashr qilishda plastik jilddan keng foydalanimoqda.

**Muqova** – tarkibi qattiq qog'ozdan iborat bo'lib, kitob varaq-larini ifloslanishdan himoya qiladi, koreshokka birlashadi va reklama-axborot maqsadlariga xizmat qiladi. Hozirda muqova bezatishning ko'ptarmoqli shakli adabiyotning turli janrlarida, shrift-husnixatdan boshlab to eng murakkab kompozitsiya tasviri, xarakterigacha keng tarqagan.

#### Nazorat savollari:

1. *Muqova qanday vazifani o'taydi?*
2. *Jildni tayyorlashda koreshok qanday o'r'in egallaydi?*
3. *Qadimgi kitoblar ko'rinishi qanday bo'lgan va ularni tayyorlashda qaysi ashyolardan foydalananligan?*
4. *Zamonaviy jildlar turlari necha xil? Ularni tartib bilan sanab bering.*

#### Mustaqil amaliy topshiriqlar:

1. *Qadimgi kitob jild ko'rinishlaridan kichik hajmda nusxa ko'chiring.*
2. *1 va 2-raqamli jildlar ko'rinishining kichik modelini yasang.*
3. *Shaxsiy kutubxonangizdagagi yumshoq muqovali kitobingizga ixcham qattiqroq himoya jild yasang.*


### 4.3. Kitob ichki elementlari ustida ishslash

#### ♦ Ikki tutash betli titul

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek titul varag'i ko'p hollarda nashrning birinchi betida joylashadi. Ba'zida matn hajmiga yoki

joylashtirish uslubiga qarab titul dastlabki to'rt betni egallashi mumkin. Bunday ko'rinishdagi titul: ketma-ket yoki tutash betli deb ataladi. Kitob rassomlari tutash betli titullarni bezashda quyidagi hollarda murojaat qilishadi:

- a) turkum nashrlarda (kontrtitul turkumlik xarakteriga taal-luqli bo'lganda);
- b) ko'p tomli to'plamlarda;
- v) tarjima nashrlarda (kontrtitulda nashrning tarjimadan ko'chirilgani ma'lumoti ko'rsatilganda);
- g) yubiley va sovg'alar uchun.



60-rasm. Ikki tutash betli titul bezagi. Kompyuter dasturlarida ishlangan.


Tutash betli titulning birinchi betini, odatda, nashriyot markasi, bag'ishlov yoki epigraf egallaydi. Ba'zan bu bet toza, matnsiz bo'lishi mumkin. Tutash betning chap tomonida (kitobning ikkinchi betida) kontrtitul — ko'p jildli nashrning umumiy xarakteristikasi yoritiladi.

O'ng tomon (uchinchchi bet) — asosiy titul hisoblanadi. Unda mazkur tomonning nomi joylashadi, ba'zida mundarija mazmuni

batatsil ko'rsatiladi. Asosiy titulning orqa tomoni (to'rtinchi bet) toza holda yoki kitobni bezatgan va illyustratsiyalarni ishlagan rassom ismi sharifi va boshqa ma'lumotlar joy olishi mumkin.

Ko'p betli titul kompozitsiyasi qonun-qoidalari, oddiy titulnikidan farqi katta bo'lmaydi. Tutash betli titul kompozitsiyasining asosiy vazifasi chap va o'ng tomonlarning mutanosibligiga erishish. Bunga quyidagi ikki usul bilan erishish mumkin. Birinchi usul — tasvirlar ikki tomonning ko'zgudagi aksidek. Bu xildagi prinsip tanlangan asarlar to'plami nashrlarida qo'llaniladi. Bu usul to'laqonli muvozanat taassurotini beradi, shu bilan birga asosiy elementlarning takrorlanishi sababli ikkala tomon bir-biriga o'xshash bo'lib ko'rindi.

Ikkinci usul shundan iboratki, kontrtituldagagi matn joylashishi bo'yicha mustaqil bo'lib, o'ng tomondagagi matn bilan kompozitsiyaning umumiyligi xarakterini saqlab qolgan holda, ikki tutash bet mutanosibligini ushlab turadi. Tutash betdagagi ba'zi matn qatorlari joyini o'zgartirish, chiziqlarni tortish va dekorativ bezaklar orqali bu xildagi kompozitsiyani yaratish imkoniyatini beradi. Shunday qilib, ikkinchi usulda titul varag'inining ikkala tomoni mustaqil qurilgan va faqat bir xil «vazn» orqali birlashadi.



61-rasm. Ikki tutash betdagagi titul ko'rinishi

Oxirgi yillarda shunday nashrlar ko'paydiki, ularda titul varag'i, tutash betli (ketma-ket) titul haqida tushunchalar va titul – frontispis tutash betlarining o'ziga xos xususiyatlari chalkash-tirilgan, aralashtirilgan hollarni uchratamiz. Ammo, titul – kompozitsiyaning bu xildagi ko'rinishlarining hammasini ham yangi ijobjiy izlaniishlar safiga kiritib bo'lmaydi.

Oliy o'quv yurtining yuqori bosqich talabalari oldida turgan asosiylar maqsad, kitob bezatish kompozitsiyasining eng to'g'ri qonun-qoidalari yo'lidan borib, ularni mukammal o'zlashtirish va ko'nikma hosil qilish bo'lib qolishi kerak.

#### **Nazorat savollari:**

1. Alovida betlarga kitobning qaysi elementlari mansub?
2. Titul varag'inining qanday ko'rinishdagi turlari mavjud?
3. Bir sahfiali titul varag'i kitobni ochganimizda qaysi tomonda joylashadi? Nima uchun?
4. Titul varag'idagi ma'lumotlar nimalardan iborat?
5. Tituldagi asosiy rolni shrift o'ynaydimi yoki tasvir?
6. Frontispis va titulning farqi nimada?
7. Titul ikki tutash betdan iborat bo'lganda unda matnlar qay tarzda joylashtiriladi?
8. Frontispisdan nimalar o'rinni olishi mumkin?
9. Titulning xarakterli qirrasi nima?

#### **Mustaqil amaliy topshiriqlar:**

1. Bir betli titul varag'ini ishlang.
2. Ikki tutash betli titulni tasvirlar bilan umumlashtirib bezang.
3. Bolalar adabiyoti tituliga xomaki nusxalar bajaring.
4. Titul varag'i uchun turli variantlarda husnixatlar yozing.
5. Titul varag'ini rangda jozibador ko'rinishda asl nusxasini ishlang.

### **4.4. Qattiq qoplama, supermuqova va g'ilofli kitobni qo'lda yasash**

#### **♦ Maketni yakunlash jarayoni**

Qattiq jildli betma-bet aniq hisob-kitobli qo'lda tayyorlangan kitob maketini yakunlash jarayonidan oldin, maketning barcha eng kichik detallarigacha ko'zdan kechiriladi. Kolontitullar, kolonraqamlar va boshqa kitob elementlari tekshirilgach, nashu

uchun tayyorlangan supermuqova va g'ilof yana bir bora amalda sinab ko'rildi.

### ♦ O'lchamlarni belgilash

Navbatdagi vazifa qattiq qoplamali qo'lda tayyorlangan maketni kompyuter grafik Adobe InDesign dasturida maketini ishlab sahifalashdan iborat. Dastlab kompyuterda kerakli dastur ochiladi.

Illyustratsiyalarga ishlov berish.

Illyustratsiyalarga ishlov berish, retushlash, geometrik noto'g'rilikni grafik redaktor Adobe Photoshop yordamida to'g'rilash.

Kitobning ichki elementlari ustida ishlash.

Kitob konstruksiyasining tarkibiy qismlarini yasash.

Kitob jild tomonlari kartonda aniq o'lchamda qirqib olingach, tomonlarni koreshok o'lchamini hisobga olib, ular o'zaro tanlangan ashyoda (mato, qog'oz) yelim bilan birlashtirilib, og'ir bosim ostiga bir kun qo'yiladi.

Kitobni bosmaga tayyorlash.

## 4.5. Kitob sahifalashning modul tizimi

Illyustratsiyalarni sahifalarga joylashtirishning murakkab holatlarida (variantlarida) sahifalashni modul sistemasi yordamida aniq tashkillashtirishga erishish mumkin.

«**Modul**» atamasi kitob bezatish sohasiga arxitekturadan kirib kelgan. Mashhur rus kitob bezakchi rasomlari El Lisiskiy, V. Favorskiy, Yan Chixold kitob konstruksiyasi va binolar o'rtasidagi o'xshashlikni bir necha bor ta'kidlab, asoslab berishgan.

«**Arxitektonika**» atamasini kitob bezashda qo'llashgan va bu so'z ham arxitekturaga aloqadordir. Arxitekturada «modul» atamasi (lotinchadan modulus-kichik me'yor) o'lchov birligi ma'nosini bildiradi. Butun boshli inshoot yoki uning qismlari o'lchamlari nisbatlariga xizmat qiladi. Klassik arxitekturada modul sifatda ko'pincha ustun asosining radiusi qo'llangan. Bino turli elementlarining o'lchamlari, masalan, ustun balandligi, deraza yoki portal bo'yi va eni nisbati – o'lcham birligida bir to'xtamga kelingan.


Modul sistemasini kitob konstruksiyasida qo'llash sahifalarda, matn va illyustratsiyalarni bir-biriga nisbatan joylashtirishda yordami juda katta.

Misol tariqasida G.K. Vagnerning «Skulptura Drevney Rusi» kitobini ko'rib chiqamiz (izd-vo «Iskusstvo», 1969, rassom A. Troyanker).

Sahifadagi ishchi hoshiya o'lchami eniga besh va bo'yiga olti qismga bo'linadi, boshqacha aytganda – modul birligi. Tanlangan modul asosida modul to'ri quriladi (*62-rasm*). O'lcham bo'yicha bo'lg'usi kitob matn hoshiyasiga teng olinadi.

Modul to'ri kitob matn yo'lini (hoshiyasini) bir xil o'lchamga ajratadi. Kataklar o'lchami eniga va bo'yiga, boshqacha aytganda – to'rning asosiy moduliga teng (modul birligiga) bo'ladi. Kataklar bir-biridan unchalik katta bo'limgan bir xil oraliqlarda ajralib turadi. Bu oraliqlar matn va illyustratsiyalar oralig'idagi masofasiga mos tushadi yoki yonma-yon joylashgan illyustratsiyalar oralig'iga teng<sup>1</sup>.

Rasmdagi kitob uchun xarakterli bo'lgan qirra – bu ikki tutash betning chap tomoni hoshiyasida matn va kichik hajmdagi yordamchi illyustratsiyalar, o'ng tomonagi sahifada esa kattaroq hajmdagi asosiy bezaklar va ular ostidagi yozuv qatorlari o'rin egallagan.



*62-rasm. Modul tizimi asosida sahifalash*

<sup>1</sup> Hurlbur Allen. Grid: A Modular System for the Design and Production of Newspapers, Magazines, and Books. Wiley. Canada. 2012.

O'ng tomondag tutash betni ko'rib chiqaylik. Unda, odatda, uch-to'rtta illyustratsiya joylashadi. Ular o'lchami bo'yicha har xil, biroq tanlangan modul bo'yicha o'lchamlar bir xil.

Yuqoridagi tasvirmi misol qilib keltiraylik. U eniga to'rt, bo'yiga esa uch modul to'rning asosiga teng; quyidagi har bir tasvir eniga ikki yarim, balandligi bo'yicha ikki modul asosiga barobar.

Tutash betning chap sahifasiga o'tamiz. Unda joylashgan yordamchi illyustratsiyalar o'lchami eniga ham, bo'yiga ham to'rning bir asosiga mos keladi. Ishchi sahifaning qolgan qismida matn o'rin olgan.

Biz illyustratsiyalarni sahifalarga joylashtirishda modul sistemasining bir ko'rinishida to'xtaldik. Biroq, uni ancha kengroq qo'llash mumkin, masalan, sarlavhalar joylashishi va matnning boshqa elementlarini, titul varag'i va muqovani joylashtirishda, hoshiyalar o'lchamlarini aniqlashtirishda, hatto shriftni qurishda qo'llash mumkin.

Modulli to'r (setka) (odatda, ikki o'lchovli) bir qancha yo'naligan to'g'ri (vertical va gorizontal) chiziqlarning kesishuvidan tashkil topgan va mazmunni qurishga xizmat qiladigan strukturadir. Bu to'r dizaynerga xuddi armatura yoki karkas kabi unda grafik elementlarni (tasvirlar, gliflari, paragraflar va b.) oqilona va «oson qo'shiladigan» tarzda joylashtirish uchun xizmat qiladi. Modulli to'r grafik elementlarni sahifaga (stranitsa) nisbatan, shu betdagি boshqa grafik elementlarga nisbatan, yoki xuddi shu element yoki shaklni o'zining boshqa qismalriga nisbatan joylashtirilishida qo'lanilishi mumkin.

To'rlar erkin ravishda, yoki aksincha (xuddi qamoqxona panjarasi singari) cheklangan holatda (to'g'ri usulda) tuzilishi mumkin. To'rlarga juda ham tayanib ishlash shaklsiz yoki jonsiz (qotib qolgan)ga o'xshagan tasvirlar yaratilishiga olib kelishi mumkin. Ba'zida to'rlar, xuddi qoidalar singari ularni buzish uchun quriladi (yasaladi, chiziladi).

Xoh u klassik formulalar asosida, xoh o'z qarashllari, yoki iqtisodiy mulohazalar bilan qurilgan bo'lsin, har bir sahifa u bilan bog'langan o'zining oddiy strukturasiga (tuzilishiga) ega va har bir sahifaning modeli shu strukturaga nisbatan ma'lum bir

munosabatga asoslanadi. Garchi, odatiy roman kitobi bizga ikki ustun matn yozilgan qog'oz sifatida ko'rinsa ham, shu oddiy kompozitsiyaning dizayni ongli estetik qaror qabul qilish asosida tuzilishi kerak<sup>1</sup>.

Kitobxon bir ko'rishda turli ma'lumotlar uchun ajratilgan ustuvorliklarni ilg'ay olishi, ya'ni uning ko'zлari avtomatik tarzda maxsus joylashtirilgan va urg'u berilgan matn va tasvir elementlarini ko'rishi lozim. To'r sistemasi dizayner qo'lida faqatgina foydali va qulay vositadan boshqa narsa emas va uning yordamida matn hamda tasvirning qiziqarli, ziddiyatli va dinamik joylashtuvlarini yaratish mumkin.<sup>2</sup>

#### **Nazorat savollari:**

1. *Kitob maketi deb nimaga aytildi?*
2. *Bir bosma tabog'i deganda nima tushuniladi?*
3. *Kitobning qaysi elementlari yagona ko'rinishda bo'ladi?*
4. *Namunaviy tartibdagi maked yasash uchun nimalarni bilish talab etiladi?*
5. *Maketda illyustratsiyalar qay tarzda joylashtiriladi?*
6. «Modul to'ri» nima?

#### **Mustaqil amaliy topshiriqlar:**

1. *Qog'oz bichimlarini yodlang.*
2. *Bir bosma taboqli kitob makedini yasang.*
3. *Turli o'chamdagagi qog'ozlarni 1x8; 1x16; 1x32; 1x64; nisbatlarga buklab, bichimlar haqida tasavvurga ega bo'ling.*
4. «Modul sistemasi» asosida kichik hajmda kitob sahifalarini tayyorlang.

## **4.6. Texnik jarayon**

Qo'lyozmani nashrga tayyorlash davomli va murakkab jarayon hisoblanadi. U bir-biriga o'zaro bog'langan uzun zanjir bosqichlaridan tarkib topgan. Yaqin kunlargacha har bir bosqich, tor professional mutaxassislar doirasi tomonidan bajarilardi: muharrir, musahhih, texnik muharrir, badiiy muharrir, rassom, harf teruv-

<sup>1</sup> Baines, Phil and Haslam, Andrew. Type & Typography, second edition. New York: Waston-Guptill Publications, 2005.

<sup>2</sup> Grid System In Graphic Design J. Muller-Brockmann, 2011 – Niggli Verlag.

chi, bosma ustasi. Stol nashr sistemasi yaratilishi bilan (Desktop Publishing = DTP), nashrni tayyorlashdagi alohida bosqichlar orasidagi chegaralar barham topdi. Nashr mehnatini avtomatlashtirish vositasi quvvatini DTP qo'llash, shu darajada muhim ahamiyatga ega bo'ldiki, barcha amaliy nashr tayyorlash jaryonini birgina odam bajarishi mumkin. «Professional keng qamrovli» nima degani? U alohida bosqichlarni texnologik xususiyatlarni yaxshi tushinishi, ajrata olishi, ularning o'zaro bog'liqligini va aloqadorligini e'tiborga olishi talab etiladi.

◆ **Mahsulotni nashrga tayyorlashning sodda ko'rinishi:**

**Risunok**

*Maketni tayyorlashda ham bir qator o'zaro aloqador bosqichlardan iborat:*

- ◆ Maketlashtirish
- ◆ Matnni tayyorlash
- ◆ Illyustratsiyalarni tayyorlash
- ◆ Shrift tanlash
- ◆ Sahifalash
- ◆ Original maketni bosish

◆ **Maketlashtirish**

**Ushbu bo'limda:**

- ◆ Maket qoralamasi
- ◆ O'lchamni tanlash
- ◆ Betlarning mo'ljali
- ◆ Hoshiyalar
- ◆ Dizayn elementlari
- ◆ Modul to'ri
- ◆ Maketlashtirish bo'yicha besh maslahat

◆ **Maket qoralamasi**

Yaxshi maket yaratish uchun uni eskiz chizishdan boshlang. Eskiz qoramalarini ishlaganining vazifaning oxirgi ega ko'rinishi taxminan aks etsin. Uni nimadan boshlash kerak?

Eng avvalo mahsulot tayyor holda qanday ko'rinishga ega bo'lishini tasavvur qiling va qog'ozga bir necha qoramalar chizing.

Masalan, siz 8 betli axborot byulleten yaratmoqchisiz, standart hoshiyalar, 210x297 mm o'lchamda.

(A 4). Qoralama uchun 210x297 mm o'lchamdag'i toza ikki varaq olib ularni ustma-ust qo'ying va qog'ozni eni-bo'yiga buklang va siz kichraytirilgan 8 betli byulletenni hosil qilasiz. So'ngra qalamda tepa qismini, muqova bezagi, tasvir va matn, yuqori, quyi kolontitullar belgilanadi. Yuqori, yon va quyi hoshiylarning enini sahifada belgilang. Har bir betda tasvir va matn o'rnini ko'rsating. O'zgartirish kiritishni istalgan paytda, hatto hujjatni tayyorlashning oxirgi bosqichida ham bajarishingiz mumkin.

#### ◆ O'lchamni tanlash

Yevropa ishlab chiqarish tipografiyalarida ishlatiladigan qog'ozlar o'lchami Xalqaro Standart tashkiloti (ISO) tomonidan tasdiqlangan A-seriyada belgilangan. Germaniyada ushbu standart boshqa nom bilan mashhur – DIN (Deutsche Industrie – Norm). Nemis sanoatining DIN standarti, bir qator o'lchamlarni tarkibiga oladi, shulardan biri DIN – Ax – seriyalarida birlashgan. Barcha o'lchamlarning ishlab chiqarish asosini 1189x841 mm A0 tashkil etadi. Agar bu qog'oz o'lchami bo'yiga teng qirqilsa, ikki varaq DIN A1 o'lchamli qog'oz hosil bo'ladi. Bu operatsiya takrorlanganda DIN A2 o'lchamdag'i qog'oz varaqlari va shu tariqa eng kichik keng tarqalgan A6 o'lchamli pochta kartochkasi uchun qo'llaniladi. Juda ko'p ishlatiladigan o'lchamlar: DIN A5, A4 va A3.

#### ◆ Sahifalar mo'ljali

Harf, matn qatorlarini sahifada turlicha joylashtirish mumkin. Qatorlar betning qisqa tomoni bo'yicha joylashuvi – bo'ylama (kitob yoki portret – ingliz. *portrait*) sahifalar mo'ljali, aksincha holatda ko'ndalang (albom yoki landshaftli – ingliz. *landscape*) joylashuv deb yuritiladi.

#### ◆ Hoshiyalar

Sahifadagi matn va hoshiyalar o'lchamini tanlashda o'zaro uyg'unlik bo'lishiga harakat qilish kerak. Bu umumiy tasvirlar qatorida aniq qoidalar ham bor. Matnni sahifa chetidan ajratib

turvchi hoshiya eni joylashtirilgan mavzuning xarakteridan kelib chiqadi va betning har tomonida turlicha bo'lishi mumkin. Agar so'z bir sahifa haqida ketayotganda matn butun bosma yuzasida yaxlit o'rinnegallagan holda chap va o'ng hoshiyalar bir xil o'l-chamda, qisqaroq, yuqoridagi hoshiya chap va o'ngdagilardan enliroq, quyidagi esa yuqoridagidan enliroq bo'lishi belgilangan. Quyidagi o'lchamlar tavsiya etiladi: (birlik nisbatlarda) chap va o'ng hoshiyalar uchun 3, yuqoridagi 5, quyidagi esa 8.

#### ◆ **Kitob sahifalaridagi hoshiyalar**

Kitob sahifalaridagi hoshiyalar o'lchamini tanlash qoidasi yuqorida ko'rsatilgan alohida matn betlaridagi hoshiya o'lchamlaridan deyarli hech qanday farq qilmaydi. Bunda, bиринчи navbatda, kitobning ochilgan ikki tutash betlaridagi matn simmetrik ko'rinishda bo'lishini unutmaslik zarur.

Shunga o'xshash muammolar har qanday ko'p betli hujjatlarni joylashtirishda, agar bosma varaqning ikki tomonida o'rinnegallagan holatlarda paydo bo'lishi mumkin. Bunday hujjatlarni bezatishda estetik xarakterdagi talablar bilan bir qatorda texnik talablar ham qo'yiladi. Shuni unutmaslik kerakki, ichki hoshiyalarning bir qismi kitob tikilganda (jild ichiga kiradi) ma'lum o'lchamda qisqaradi. Agar shu jihatlar hisobga olinmasa, matn koreshok tomonga tortilib ketib, uning bir qismi jild ichiga tushib qolib, kitob o'qishni qiyinlashtiradi, ba'zi hollarda esa umuman matnni o'qishning imkonini bo'lmaydigan darajaga olib keladi.

Sahifalardagi hoshiyalar o'lchamini belgilashda quyidagi algoritmdan foydalanish mumkin. Eng avvalo bosma yuzasining eni o'lchami aniqlanadi. Sahifalar orasidagi kenglikni (jild kengligini hisobga olmasdan) va bosma yuzasi kengligini teng uch qismga bo'lamiz. Bundan bir qismi ichki (yoki jild) hoshiyasi uchun ajratiladi, varaqning orqa tomonida joylashgan bu qism tikiladi, qolgan ikki qismi tashqi hoshiyalar uchun varaqning qarama-qarshi kesiladigan tomonlarida joylashadi. So'ngra betning chap pastki burchagidan o'ng tomon yuqori burchagi nuqtasiga diagonal tortiladi. Gorizontal chiziqlar tortilib diagonallarning chap va o'ng chegaralari bilan kesishishi natijasida, yuqori va quyi hoshiyalar

o‘lchamini hosil qilish mumkin. Hoshiyalarni aniqlashning yana bir keng tarqalgan turi bu – sahifani eni va bo‘yiga teng to‘qqiz bo‘lakka bo‘lib chiqish. Buning qay tarzda bajarilishi rasmda tushunarli ko‘rsatilgan

- ◆ **Dizayn elementi**

### ***Illyustratsiyalar***

#### ***Ushbu bo‘limda:***

- ◆ *Skanerlash*
- ◆ *Muar*
- ◆ *Fayllar o‘lchami*

Sizning nashringiz uchun illyustratsiyalar tayyorlashning bir necha manbasi mavjud:

- ◆ *Tasvirni skanirlash;*
- ◆ *SD – disklarda raqamli fotografiyalar kolleksiyasi;*
- ◆ *Raqamli kamera yordamida olingan tasvirlar;*
- ◆ *Kompyuter ekranidan olingan tasvir;*
- ◆ *Original vektor yoki grafik chizmalar.*

Tasvirni olishning eng keng tarqalgan turidan biri, slayd, gazeta, jurnal va boshqa bosma nashrlardan skanirlash va shu o‘rinda ta’kidlaymizki, bu eng murakkab usul bo‘lib, aniq bilimni talab etadi.

- ◆ **Skanerlash**

- ◆ Skaner o‘rnatish
- ◆ Skanerlashda quyidagi birliklar (kattaliklar) o‘rnatiladi:
- ◆ Gamma

Gamma – bu chiziqsiz surilish koeffitsienti. Gamma – katalashtirilgan holatda, grafik egri yuqoriga qayrilgan ko‘rinishga aylanadi. Bunday holatda och tusli hududlar proyeksiyasida kattalashadi, bo‘yoq hududlar esa qisqaradi va tasvirning och ko‘rinishiga olib keladi. Gammaning qিqarishi tasvirning to‘qlashiga sabab bo‘ladi. Skanerlash gammaning och tasvirlarini chiziqlar bilan taqqoslaganda kichraygan bo‘lishi kerak, to‘q tuslisi esa – kattalashadi.

## ♦ Qanday skanerlash kerak

*SR – skanerlashga kirish ruxsati (scan resolution, ppi)*

*PR – printerga kirish ruxsati (print resolution dpi)*

*SF – chastota yoki lineatura kengligi (screen frequency, lpi)*

*GL – kanaldagi yarim tuslar soni (grayscale levels, 0...256)*

*X – masshtab kattaligi (Scale)*

$GL = (PR) SF & 2+1$

$SF = PR / SQR(GL - 1)$

$SR = SF * 1.5 * X$

Parametr 1.5 – eng qulay, yanada aniqroq – 1.41 (2 – koren).

Agar 2 qo'yilsa (odatda, ko'pchilik shunday qilishadi, axbortni yo'qolishiga, demak, ba'zi detallarni o'rtacha darajada yo'qolishiga olib keladi, bundan boshqa iloji yo'q). Ba'zida ishni tezkorlikda bajarish, vaqt chegaralangan holatlarda, hisoblashning tig'iz paytida barcha rasmlar 300 ppi..skanerlanadi – bu to'laqonli yetarli bo'ladi.

## ♦ Muar

Muar – tasvirdagi qora dog'lar, uni bartaraf qilish uchun maxsus texnologiya ishlab chiqilgan. Bu termin qayerdan paydo bo'lgani sizni qiziqtirayotgan bo'lsa, muar fransuz texnikasi bo'lib, to'lqinsimon naqshlarni mato, gazmolga siqib tushirish usuliga aytiladi.

## ♦ Fayl o'lchamlari

Vektor (kattalikni ko'rsatuvchi kesma) o'lchamlari.

EPS – o'lcham (Encapsulated Post Script) ko'plab sahifalash grafik tahlil qilingan dasturlari tomonidan qo'llaniladi. U grafik tasvirlarni bosish uchun belgilangan o'lcham sifatida Adobe firmasida yaratilgan dasturdan foydaniladi. Agar sizga quyidagi: Quarkxpress, Adobe Illustratior yoki Page Maker, bu holda EPS o'lchamidan foydaniladi. EPS o'lchami fayllarini eksport qilishda, original tasvirlarni CMYK ranglarini bo'lishda, bir dasturdan boshqasiga jo'natishda, siz faylni tasvir blan tipografiyaga bosish uchun jo'natsangiz, u holda EPS o'lchamidan foydaniladi.

## ♦ Metafayl Windows

Vektor grafikasi uchun Microsoft firmasi Windows (WMF) metafayl o'lchamini yaratdi, bunga javoban Apple Macintosh

firmsi PICT o'lchamidan foydalangan. Bu o'lchamni Windows-ning barcha amaliy dasturlari tushunadi, tasvirni har qanday Windows dasturidan boshqa har qanday dasturga import qilish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, Windows metafayl o'lchami aytarli darajada badiiy imkoniyatlarga EPS singari boy emas.

Agar ranglarni ajratshda ishslashga to'g'ri kelsa, undan foydalangan, chunki uning imkoniyati, ranglarni aynan aniq ko'tara olmaydi, chizmaning ranglarini taqsimlashdagi talablariga javob bera olmaydi (ranglarning nomlanishini belgililar bog'lab turadi, masalan, Deep Blue, rang bilan rang tarkibi aniqlanadi).

Qat'iyan shuni sizga tavsiya qilamiz: WindowsMetafik formatdan foydalaning, oddiy chizmalarni ko'chirishda, masalan, diagramm, elektron jadval ma'lumotlari asosida yaratilgan.

#### ◆ Rastr tasvir o'lchamlari

##### *TIFF (Tagged Image File Format)*

Nashriyot ishlarida TIFF rastr o'lchami eng mashhuri hisoblanadi. Aldus va Microsoft firmalari tomonidan yaratilgan RGB va CMYK ranglar modeli o'lchamida TIFF 16,7 mln. Tuslarni ko'tara oladi (24 bit) va har qanday dastur tahlil qilingan foto tasvir bu o'lchamni ko'taradi. TIFFning bir necha variantlari mavjud, ammo hozircha ularning barchasini ko'tara oladigan dastur yo'q. Ta'minlash uchun siqilmagan TIFF fayllaridan foydalanishni tavsiya qilamiz.

Ish jarayonida TIFF siqilgan fayllardan (ayniqsa, kengaygan LZW) foydalanilganda hech qanaqa natija bo'lmaydi degani emas. Natija bo'ladi, faqat har doim ham emas.

#### ◆ Rang

##### *Ushbu bo'limda:*

- ◆ RGB sistemasi
- ◆ CMYK sistemasi
- ◆ Ranglarni ajratish yoki RGB – CMYK konvertatsiyasi
- ◆ Oddiy ranglar
- ◆ Ranglarni boshqarish uchun ish muhitini yaratish
- ◆ Monitorni tekshirib to'g'rinish

Nazariyada bir necha ranglar sistemasi mavjud, ulardan asosiysi RGB va CMYK hisoblanadi.

#### ♦ RGB sistemasi

RGB sistemasida asosiy uch rang (qizil, ko'k, yashil)dan hosil bo'ladigan barcha spektr (openki) (Red, Green, Blue) turli darajadagi ochiqlikni bera olishga ega. Bu sistema additiv deb nomlanadi, ya'ni bunda ranglarning qo'shilushi qoidalari bajariladi. Uch rangning aralashuvi maksimal to'yinganda oq rangni hosil qiladi, nol darajada esa qora rangni paydo qiladi. Qizil va yashil ranglar sariq rangni, yashil va ko'k esa havo rangni hosil qiladi.

Ushbu sistema barcha tasvirlar uchun qo'llaniladi, ko'rindigan yoki yorug'lik to'g'ri tushishida. U adekvatni inson ko'zining rangni qabul qilishi, reseptorlar qizil, yashil, ko'k ranglarga to'g'rilangan. Shu sabab monitor ekranlarida tasvir qurish, skanerlar va boshqa optik asboblarda RGB sistemasiga mos keladi. Kompyuterning RGB sistemasida har bir asosiy rang 256 yorqinlik gradasiyasini bera olishi mumkin (bu kompyuterda informatsiya-larga qayta ishlov berish xususiyatlari bilan aloqador. 256 gradatsiya 8 bit rejimiga to'g'ri keladi).

#### ♦ CMYK sistemasi

*Titul varag'i va boshlang'ich bezak xomaki nusxasi ustida ishlash*

**Alohida betlar** – bu kitob tarkibidagi elementlar guruhining shartli nomlanishidir. Ular bosh sarlavha rolini bajarib, alohida betlarda joylashadi. Kitobdagi o'ziga xos o'rinda joylashishi esa, ularni sezilarli darajada ma'noli qilib ko'rsatadi.

Obrazli kompozitsiya xarakteri bo'yicha alohida betlar, rassom-dan o'ziga bo'lgan munosabatni, diqqat-e'tiborini talab qiladi. Alohida betlarga, titul varag'i, titulning tutash ikki beti, avantitul, shmustitul, boshlang'ich va oxirgi hoshiyalar kiradi. Ularni tartib bilan ko'rib chiqamiz.

Titul varag'i – odatda, kitob blokining birinchi beti hisoblanadi. Konstruktiv qurilishi turli ko'rinishga ega. Bir sahifadan orqa tarafi bo'sh yoki orqa tarafiga matn bosilgan, tutash ikki betli, ba'zida bir necha tutash betlar, ketma-ketlikdan iborat bo'lishi

mumkin. Ko‘p tutash betli titul ko‘p uchraydi, u konstruktiv shakldan ko‘ra, bezash usuliga yaqinroq, ya’ni funksiyasi zarur bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi. Bir sahifali titul varag‘i – orqa tomoni bo‘sh turi keng tarqalgan.



63-rasm. Frontispis va titul variantlari

Titul varag‘idagi ma’lumotlar, birinchi navbatda, kitob o‘quvchiga, shuningdek, kitob tarqatuvchi-sotuvchi va kutubxonachiga, axborot-resurs markazlarining mutaxassislariga mo‘ljallangan bo‘ladi.

*Bunday ma’lumotlarga:*

1. Turkumni ko‘rsatish, belgilash (agar nashr turkumli bo‘lsa);
2. Muallif familiyasi (mualliflar guruhi);
3. Kitob nomi va boshxarlavha (agar bo‘lsa);
4. Nashr belgilari bo‘limlari (agar nashr alohida tom, qism, kitoblarga bo‘linsa);
5. Qayta nashr ko‘rsatkichi;

6. Kitob qaysi tildan tarjima qilinganligi va tarjimon ismi sharifi ko'rsatilishi;
7. Kitobni bezatgan rassom familiyasi;
8. Nashriyot nomi;
9. Nashr etilgan joy, yil (sana).

Kitob sahifalashga kirishishdan oldin, uning umumiy ko'rinishi va asosiy elementlari aniq o'ylab ko'rilib. Sahifalovchi o'zining bajarayotgan ishining natijasi qanday bo'lishini oldindan, taxminiy bo'lsa ham tasavvur qilishi kerak. Kamdan-kam holda mutlaq o'ylangan, sahifalash yechimlarini talab qilmaydigan maket ustida ishlanishini uchratish mumkin. Ko'pincha kitob sahifalanguncha fayl Wordga o'xshash ko'rinishda bo'lib, papkalarda fotografiyalar bilan joylashgan bo'ladi.

Bunday hollarda maketni loyihalashtirishda shaxsiy tajriba va sezgiga tayanish maqsadga muvofiq. Kitob maketini sahifalash uchun shunday yaratish kerakki, u faqat sahifalash qoidalariga mos kelibgina qolmay, balki buyurtmachi talablariga ham javob beradigan darajada bo'lishi kerak.

Sahifalovchi-dizayner matn bilan ishslash bilan birgalikda har bir illyustratsiyaning matndan qay tarzda to'g'ri joylashishini qarorini qabul qiladi.

Maqsad, birinchidan, matn o'qilishining qulayligi, ikkinchidan, usullarning to'g'ri bilimlar asosida yaratish, uchinchidan, sahifalash qonunlarining barcha talablariga riosa qilish, xususan kitobning barcha elementlarining mantiqan tugallangan ko'rinishiga qaratishdan iborat.

Sahifalash jarayonida maketni zaruriyatdan kelib chiqib moslash va qo'shimcha ishlov berib o'zgartirish mumkin. Lekin sahifalovchining har qanday shaxsiy qarashlariga qaramasdan kitob chop etishga talablar asosida tayyor bo'lishi kerak.

Nashrning maxsus o'lchamidagi betlariga matn va grafika materiallarini joylashtirish jarayonini sahifalovchi olib boradi.

♦ *Kompozitsion talablar* texnik va axborotlar mosligining birligini, tarkibiy qismlarning tengligini, betlar o'lchami va bosma yuzasining doimiyligini ta'minlaydi; nashrning barcha bosma yuzasini bir tartibga keltirish, ya'ni matn qatorlari keyingi sahifa-

dagi qatorlarga aniq mos tushishi shart. Ushbu qoidani gazeta nashrlarida qo'llash shart emas.

◆ *Gigiyenik talablar matnni* o'qishning qulayligini ta'minlash, mutolaa jarayonida o'quvchining sog'ligiga (ko'rish) salbiy ta'sirlardan ogohlantirishga qaratilgan: shrift bezaklari, so'zlar va qatorlar oralig'i, hoshiyalar o'lchami va h.k.

◆ *Stillarning birligi talablari* nashrning tugallangan badiiy yechimini to'ldiradi: elementlar tuzilishining umumiy usulda bajarilishi, asosiy va qo'shimcha matnlar, illyustratsiya va ularning izohi.

Shu jarayonlar orqali nashrning sahifalanishiga barcha ko'rsatilgan talablarning bajarilishi bilan erishiladi.

#### ◆ **Sahifalash turlari**

Quyidagi belgililar qarab sahifalashni shartli ravishda klassifikatsiyalash mumkin:

1. Nashr turiga qarab: *Kitob va jurnallarni sahifalash*. Ayniqsa, ko'p sonli illyustratsiyalarni o'z ichiga olgan jurnallarni sahifalash, alohida xarkterli xususiyatlarga ega, shunga qaramasdan umumiy sahifalash kitob uchun qo'llanilgan qonun-qoidalar asosida bajariladi.

*Gazeta sahifalash*. Gazetaning sahifalanishi kitob-jurnalnikidan birmuncha farq qiladi. Unda qatordan ko'chirish, matn va illyustratsiya materiallarini joylashtirish erkin qoidalar asosida bajariladi.

*Aksident sahifalash* (uncha ahamiyatga ega bo'limgan yoki mayda nashr). Aksident sahifalash deb kichik mustaqil buyurtmalar, masalan, taklifnomalar, blankalar, afisha, reklama bukletlari va h.k. Shuningdek, aksident sahifalashga kitob va jurnallarning alohida elementlari ham mansub: mustaqil teriladigan muqova va supermuqovalar, titul varaqlari, shmustitullar, bosh sarlavha, ramka va kolonchiziqlar, kitob e'lolnari, jurnal nashrlarida esa titul, gazeta-jurnal e'lolnari, reklamalar. Sahifalashning bunday shakllarida turli shrift va grafik materiallarning birligi qo'llaniladi.

Aksident ishlarning barcha turi, odatda, uch guruhga bo'linadi: nashriyot aksident mahsuloti, shu jumladan kitob-jurnal aksidensiyasi va alohida nashr turlari — prospekt va bukletlar, katalog

va b.q.; afisha-plakat mahsulotlari va kichik shakldagi aksident mahsulotlariga taklifnomalar, blankalar, savdo mollari hujjatlari, tashrif kartochkalari va «mayda» nashrning boshqa turlarini ko'satish mumkin.

2. Materillarning tashqi ko'rinishiga qarab:

*to'g'ri* (har bir material — *to'g'ri* *to'rtburchakdan* iborat, ustunllar balandligi bir o'lchamda). Bu sahifalash jiddiy bo'lib, ko'pincha adabiy-badiiy nashrlarda, darsliklarda, ba'zi gazeta va jurnallarda qo'llaniladi.

*Siniq lomanaya* (materiallar zinapoya shaklida, ustunlar turli balandlikda bo'lishi). Sahifalashning bu turini bajarish birmuncha murakkabroq bo'lishiga qaramasdan nashrga dinamik ko'rinish bag'ishlaydi. Sahifalashning bu xildagi turi, asosan, gazetalarda, moda va shu kabi jurnallarining betlarida qo'llaniladi.

3. Materiallarning joylashishi bosma yuzaning markaziga nisbatan vertikal yoki gorizotal chiziqlar bo'ylab yuzani teng 2 qismga ajratadi.

Sahifalash simmetrik va asimmetrik bo'lishi mumkin. Simmetrik sahifalash, agar rasmiy bo'limgan holda, grafik mutanosiblikka rioya qilib, bosma yuzaning qarama-qarshi qismlari mazmundorlik ahamiyatini tenglashtiradi.

Asimmetrik sahifalash, o'zining dinamikasiga ko'ra bosma yuzadagi asosiy materialni yaqqol ifodalaydi.

4. Materiallar ustuni eniga kengligi bo'yicha: doimiy (soni va o'lchami bir xil) va o'zgaruvchan bo'lishi mumkin.

5. Matn va illyustratsiyalar materiallarining joylashuvi bo'yicha:  
*ochiq* — tasvir har bir yuzaning yuqori yoki quyi qismida joylashadi.

*yopiq* — tasvir matn o'rtasida va matn bilan ikki yoki uch tomoni bilan tutashib joylashadi.

*o'rالgan* — tasvir ko'p ustunli maketning matn o'rtasida joylashtirilib, *to'rtala* tomoni bilan matnga tutashadi.

*Qarshi-kesish* — vrazrez — matn, so'ngra foto, keyin yana matn, ya'ni foto matnni qismlarga ajratadi.

*burma v oborku* — illyustratsiya burchakka joylashtirilib, ikki tomoni bilan matnga tutashadi.

*hoshiyalarda* – unchalik katta o'lchamda bo'lmagan tasvirlar-ning hoshiyalarda joylashtirish.

#### ♦ **Sahifalash mohiyati**

Sahifalash nafaqat yig'ish jarayoni bo'lmasdan, nashrning aniq shaklini yaratishga jiddiy ta'sir etadi. Shu sabab bezatish usuliga, matn va illyustratsiya qatorida sahifalash tarkibiy qismining manbai sifatida qaraladi. Jurnal va gazetalarni sahifalashda bosma yuza montaji talablari, bosma nashrning belgilangan manbasidan kelib chiqiladi. Jurnal, gazeta va boshqa matbuot matn materiallari bir, ikki, uch va undan ortiq ustunlarda sahifalanishi mumkin. Kitob matnlari, odatda, asosan bitta ustunda sahifalanadi.

Sahifalashning vazifasidan kelib chiqib, u dizaynning qat'iy talablariga javob berishi va ma'lum bir jarayonni ta'minlashi zarur.

♦ nashrning eng qulay kompozitsion strukturasi. Ya'ni sahifalash yordamida nashrdan maksimal qulay foydalanishni yaratish. Sahifalash strukturani va nashrning betlarining kompozitsiyasini namoyish etadi, matnning va illyustratsiyaning tarkibiy qismini asosiy yoki ikkinchi darajalilagini aniqlaydi.

♦ materiallarning betlarga ixcham joylashtirish, varaqning bosma yuzasidan maksimal foydalanish.

♦ bo'lajak nashrning tashqi ko'rinishi estetik jihatlari, o'quvchini jalb qiladigan va ifodali, elementlar nisbati aks etishi, ularning grafik birligini ko'rsatish. Poligrafiya sanoatining mahsulotini butun yaxlit ko'rinishda, o'qish uchun qulayligi, kitobxon ko'zlarining qabul qilishini hisobga olish.

Ushbu kitobning nashr hajmi 48 betdan iborat, blok ko'rinishida koreshokga birkitilgan, muqova yoki jild va matn uchun istalgan o'lchamdagи bosma varaqlar qo'llanilgan.


---

## XULOSA


«Maketlashtirish» fanini o‘qitish va uni o‘zlashtirish bugungi kunda mutaxassis talaba yoshlar uchun juda muhim. Hozirgi kunda poligrafiya ishi misli ko‘rilmagan darajada rivojlanib bormoqda.

Yangidan-yangi turli bir-birini takrorlamaydigan dizayn ko‘rinishlardagi kitob va jurnallar chop etilmoqda. Shu bois zamon bilan hamnafas bo‘lib, dunyoning rivojlangan mamlakatlari mutaxassislaridan qolishmaslikga intilish talab etiladi. Buning uchun bo‘lg‘usi kitob grafikasi rassomlari mazkur fanni chuqr o‘zlashtirishlari kerak.

Shu vaqtgacha o‘zbek tilida «Maketlashtirish» haqida biron ta ham adabyot yaratilmagan. Nashr yuzini ko‘rayotgan mazkur o‘quv qo‘llanma talabalarga yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishlariga katta yordam beradi degan fikrdamiz.




64-rasm. Kitob bloki daftarchalarining to‘plami




65-rasm. Daftarchalar to‘plamini pressda bir muddat ushlash




66-rasm. Kitob blokin tayyorlashda kerak bo‘ladigan ashyolar




67-rasm. Ip o‘tadigan nuqtalarni shablonda belgilash




*68-rasm. Daftarchalar to'plamining tikilish joylari*




*69-rasm. Daftarchalardagi teshik nuqtalar asosida tasmalarni skoch yordamida tekislik qirrasida qotirish*



70-rasm. Tikish boshlanishining ichki tomondan ko‘rinishi




71-rasm. Tasmalarni ip orqali qotirish




72-rasm. Daftarchalarni o‘zaro tikishdagi tugun




73-rasm. Tugun bog‘lash jarayoni




74-rasm. Tugunni bog'lashning davomi




75-rasm. Tugun bog'lashning oxirgi jarayoni




76-rasm. Choklarning ichki tomondan ko‘rinishi



77-rasm. Blokning yon tomondan pastki qismining ko‘rinishi




78-rasm. Kitob blokining yuqori qismi ko‘rinishi



79-rasm. Daftarchalar bir bo‘lib blokni hosil qiladi.  
Kitob blokining umumiy ko‘rinishi



*80-rasm. Kitob blokini press yordamida siqib yon tomonini yelimlash*



*81-rasm. Blokni bosimda yelim yaxshi qotguncha ushlab turish*




82-rasm. Blokning koreshok tomoniga dokani yelimlash



83-rasm. Koreshok tomonning yuqori va quiy qismiga kaptalni yelimlash




*84-rasm. Kitob blokini forzasga birlashtirishga tayyor holati*



*85-rasm. Tayyor kitob bloki*




86-rasm. Jildga muqovani yopishtirish




87-rasm. Jild va kitob blokini forzas orqali biriktirish



*88-rasm. Pressda ma'lum muddat ushlash*




*89-rasm. Oxirgi ko'rinish*




90-rasm. Jild va muqovasini yoymasi

Muqovaning buklanishi(20mm) Koreshok o‘lchami Muqova o‘lchami




91-rasm. Kitob jildining loyihasi


0,5 mm kesiladigan texnik qism




92-rasm. Fotokitob uchun (20x30 osma 5 buklanish) qattiq muqova chizmasi




93-rasm. Jildni tayyorlash bosqichi



94-rasm. Jildni tayyorlash bosqichi





95-rasm. Jild va kitob blokini birlashtirish



96-rasm. Kitobni saqlash uchun g'ilof-javon

97-rasm. Kitob g'ilofini tayyorlash






98-rasm. Jildni tayyorlash bosqichlari




*99-rasm. Jild elementlarni tayyorlash*




*100-rasm. Jild elementlarni tayyorash jarayoni*




*101-rasm. Jildli kitob elementarining umumiy ko‘rinishi*




*102-rasm. Sovg‘a kitob varianti uchun g‘ilof*




**103-rasm. Jildni alohida tayyorlash bosqichi**




**104-rasm. Jildni alohida tayyorlash bosqichi**




105-rasm. Kitob g‘ilofini yig‘ish sxemasi (usuli)



106-rasm. Sovg‘a uchun kitob g‘ilofi tayyorlash



107-rasm. Kitob maketini umumiy tayyorlash bosqichi



108-rasm. Jildga forzasni biriktirishdan oldingi jarayon



*109-rasm. Kitob blokini tikilishi*



*110-rasm. Turli bukletlar maketi ko‘rinishi*




111-rasm. Turli bukletlar maketi ko‘rinishi



112-rasm. Kitobning avantitul va boshlang‘ich betlarning ko‘rinishi




*113-rasm. Kitob betlarining umumiy ko‘rinishi*




*114-rasm. Bukvisalarni ko‘rinishlari*



### **115-rasm. Kitob sahifalarini bezash va joylashtirish**



### **116-rasm. Forzasni ko‘rinishi**



Мышишки виноградную гроздь  
Сортились, а мышика  
Сортились.

А в это время лягушка — прыг — спрыгнула.  
Кто, что в рукавичке живет?  
Мышка поскребушка. А ты что?  
А я лягушка-попрыгушка. Пусти и меня!  
Иди.

### 117-rasm. Kitob sahifalarini bezash va matnni joylashtirish



Так они препрятались испод  
ни днины. А когда им недоладило  
со сориться, они распевали  
свою любимую песенку:  
На полу скребется мышка,  
Спит в бурой шапке Ишка,  
Этот мишка очень м'як,  
Только лапы он не мык.

Пока они спорили или пе-  
ли, Тимофей занимался хо-  
зяйством: подстригая усыки у го-  
рохов, чесал брюшко тыкве и  
вышивал крестиком.

Аля и букаа А вошли в ква-  
литку.

На террасе посматривал  
большой старинный сковородка,  
на белой скатерти всё было на-  
крыто к утреннему чаю.

— Можно? — спросила  
Аля.

— Милости просим, милос-  
ти просим, — замялась буква  
и.

— Мы вам рады, мы вам  
рады, — вторила буква Ы. —  
Чайку?


— Тимофей, пожалуйста,  
еще два прибора, — попроси-  
ла буква И.



### 118-rasm. Bolalar adabiyoti. Yarim va bir sahifali illyustratsiyalar



*119-rasm. Kitob sahifalarini bezash va matnni joylashtirish*



*120-rasm. Bir betli illyustratsiyalar ko‘rinishi*



## 121-rasm. Bir betl illyustratsiyai va zastavka ko‘rinishi

— А ворон с вороной? — спросила Герда.

Лесной ворон утвердчиво покачалась головой, зевнув с широкой широкоглазой пастью и закружилась на крыльях. Но все это пустотелое, а ты вот расскажи ка лучше, что с тобой было и как ты на тебя его.

Герда и Кай сидели за обедом.

— Ну, — сказала Герда, — я тебе разобьюсь, тряскала им руки и обещала выкупить их, если когданибудь вернут в их горы. Затем она открылась перед Гердой и Кай и Гердой своей. Они сели, и на их плечах разгорячился вечернее сияние, зачаровав тьмы. Вот раздел волшебнейший лист, и они ушли волшебники своего родного города. Они поднялись по извилистым горным тропам и наконец, где все было по-старому, так во-тихий часы, так же дивились чистесам стрекоз. Но проходя в им изящную дверь, они заметили, что успели мы “то время саслатка, а ворон липки лицами”.

Цветущие розовые ветви западывали с врата в открытое окно, тут же стояли из детских стульчиков Кай с Гердой если взад-вперед на свой и взад-вперед друг за руки. Хомячье пустынное волшебование черткого Снежной королевы было забыто ими, как пахощий горячий бабушкин супчик на сенинке и громко читавая Евангелие: «Если не будет вам дети, не видите в царстве небесном!».

Кай и Герда заглянули друг на друга и тут только понимали смысл старого исказа:

Роды цветутут „Красота, красота!

Скоро умру мы младенцы Христы.

Так сидели они радищиков, оба уже красные, но дети сердечки и душонки, а на дворе стояло теплое, благословенное лето!

Жильчики были на свете две девочки:

Одна девочка звали Маша, а другую — Зойка. Маша вся любила делать сестре Семье все суп Сема из чаши молоко пила. Сема игралась в ящики убирала.

А Зойка сама ничего давать не хотела и только говорила:

— Ой, не хочу! Ой, не могу! Ой, не буду!  
Вся «ой» да «ой»! Так и стала ей звать ее Зойка, а Ойка

Ойка-изприсула



## 122-rasm. Ikki tutash betdag'i illyustratsiya va matn



123-rasm. Ikki tutash betdag'i illyustratsiya va matn



124-rasm. Ikki tutash betdag'i illyustratsiya va matn

---

## GLOSSARIY

### Kitob nashrida qo'llanadigan atamalarning lug'ati

**Abstraksiya** (lot. abstractio – bo'lish, chalg'itish) – mavhum shakl va chiziqlardan iborat tasviriy san'at asari.

**Ábris** (nem. Abriß – chizma) – kontur, qoralama, predmet tashqi chizig'i, bior-bir obyektning shaklini ko'rsatadigan chiziq.

**Avantitul** – tituldan oldingi bet.

**Avtografskiy** – toshbosma uchun maxsus qog'oz turi (kornpapir).

**Avtolitografiya** – mualliflik toshbosma asari.

**Akkompanement** – jo'rlik.

**Aksent** – asar yaratishda kerakli joylarga urg'u berish.

**Antik san'at** – qadimgi degan ma'noni bildiradi, taraqqiy etgan qadimgi Yunon, Rim san'ati nazarda tutilgan.

**Arxitektonika** – kitob elementlarining joylashtirish qurilmasi.

**Afisha** – tomosha haqida e'lon.

**Bigovka** – tayyor nashr bosma mahsulotini buklash joyidagi botiq chiziq

**Bukvisa** – matn boshlanishidagi naqshli bosh harf.

**Variant** (lot. variantes, varius – turli) – 1) tasviriy san'atda asarining muallif tomonidan takrorlanishi. Shuningdek, kompozitsiya, kartina rang yechimiga, qomat harakatiga, qo'l harakatiga o'zgarish kiritish. Sujetli kompozitsiyada ma'no (tema)ni saqlagan holda, tasvirlarni o'zgargan holati.

**Visokaya pechat** – yuqori bosma – taxtachada bosma olish elementlarini balandda joylashuvi, bunga linogravyura va ksilografiya texnikalarini misol kel-tirish mumkin.

**Vatman** – rassomchilik va chizmachilikda ishlatalidigan qalin, olyi navli qog'oz.

**Gamma** – muayyan qonuniyatga bo'ysungan ranglar sirasi.

**Garmoniya** [grek. harmonia, harmoso – tartibga keltirish; xushbichim, umumiylilik, qismlari (bo'laklari) kelishgan] – tasviriy san'atda tasvirlanayotgan buyum shakli yoki rangining o'zaro umumiyligi, xushbichimligi.

**Garnitura** – harflarning tafovuti, o'lcham, turi.

**Glubokaya pechat (chuqur bosma)** – ish taxtachasida bosma elementlarning chuqur joylashuvi, asosan, ofort texnikasi bunga mansub.

**Grafika** (grek. graphikos – yozish) – tasviriy san’atning bir turi. Rangtas-virga nisbatan kam rang ishlatalib, asosan oq va qora kontrast ranglar, chiziq va shtrixlar xarakterlidir. Grafikaga chizmatasvir, gravyura, litografiya kabi bosma tasvir turlari kiradi.

**Dekorativ** – ziynatlari.

**Detal** (frans. – détail) – 1) batafsil – mufassallik, mukammallik); 1) element; 2) xarakterli qism mukammalligigi; 3) tasvirdagi unga ahamiyatli bo’lmagan qism; 4) fragment.

**Diapazon** – keng qamrovli, ko’lam.

**Doska** – bosma olish taxtacha yoki plastinka (metall, linoleum, maxsus yog’och va h.k.)

**Janr** – tasviriy san’at asarining qaysi turiga munsubligi.

**Zastavka** – kitobning kirish, boshlang’ich bezak lavhasi.

**Zerneniye** – ofortning akvatinta yoki metsatinto texnikalarida plastinka yuzasida mexanik usulda faktura hosil qilish.

**Illyustratsiya** – tasvir, kitobga ishlangan rasm, bezak.

**Individualniy** – o’ziga xos, yakka tartibda.

**Interval** – oraliq.

**Interer** (frans. intérieur – lot. interior – ichki, ichkaridagi, eksterer antonimi) – ichki ko’tinish, binoning ichki xonalari ko’rinishi va uning tasviriy san’atda tasvirlanishi. Shuningdek, xona, bino ichidagi narsalar, buyumlar, devorlarning (mozaika, freska, naqsh, matolar bilan) ko’rinishi.

**Kaptal** – bir tomoni qalin, rangli paxta yoki ipakdan tayyorlangan tasma eniga 10 mmgacha, odatda kitob blokini qo’shimcha mustahkamroq qilib himoya vazifasini o’taydi hamda estetik bezak o’rnida keladi.

**Klishe** – ko’p nusxada bosma olish uchun metall plastinka.

**Kolonsifr** – nashr betlari tartib raqami.

**Kolontitul** (frans. colonne – ustun va lot. titulus – yozuv, sarlavha) – kitobning har betida matnning yuqori yoki quyi qismidan o’rin egallaydi

**Kompleks** – umumlashgan, majmuva.

**Kontrast** (frans. – contraste – keskin farq, qarama-qarshilik) – tasviriy san’atda qarama-qarshi qo’yilgan tus, rang, shakl, qiyofa nazarda tutiladi. Masalan, oq-qora, yorug’-soya, qizil-ko’k, to’g’ri-egri, issiq-sovuq va boshqa kontrastlar. Kontrast tus yoki rang kompozitsiyada badiiylik obrazini kuchaytiradi, asosiy qismini ta’sirchanligini yanada oshiradi.

**Konsovka** – kitob so’ngidagi bezak.

**Koreshok** – jild tomonlari o’rtasidagi element (kitobning yon tomoni).

- Korrektor** — musahhih.
- Lavis** — ofortning bir turi.
- Ledirin** — sun'iy charm.
- Linogravurya** — linoliumda o'yilgan gravyura.
- Litografiya** — toshga chizilgan tasvirdan yassi bosma usulida olingen nusxa.
- Lyasse** — ipak tasma, belgilash bog'ichi, kitob blokining koreoshok qismi-ning yuqori qismiga biriktiriladi.
- Maket** — kitob andaza namunasi (modeli).
- Manera** (frans. maniere, — manus — qo'l) — uslub.
- Mashtab** tasvir, element, hajmning nisbatlari o'zgartirilmagan holda kich-raytirilgan yoki kattalashtirilgan ko'rinishi.
- Material** — xomashyo yoki kitob maketini tayyorlashda ishlataladigan vo-sitalar.
- Matrisa** — bosmada ko'paytirilgan shakl (shelkografiya usulida).
- Metod** — uslub.
- Model** (italyan. modello; lot. modellus — qisqa; lot. modulus — «me'yor, melodiya; modul) — obyekt, tasvirlanayotgan shakl, naturachi odam.
- Monotipiya** — bir marta olinadigan bosma nusxa.
- Motiv** (frans. motif — motiv; lot. moveo — harakatlantiraman, sujet) — 1) natura obyekti, rassom tomonidan tasvirlash uchun mo'ljallangan obyekt yoki ba'zi hollarda manzara bo'lishi mumkin.
- Myagkiy lak** — yumshoq lok (ofort texnikasida qalam usulida ishqorlanib ishslash usuli).
- Nabor** — yig'ma.
- Nyuans** (frans. nuance — bir holatdan ikkinchi holatga yengil o'tish) — nutq intonasiyasida, muzika, ranglar nyuansi. Juda nozik tus yoki yorug'likdan soya qismiga yengil tusning o'tishi.
- Obraz (badiiy)** — san'atda hodisalarining aks ettirilish shakli (formasi).
- Original** (lotincha originalis) — birinchi bor, asli, asl nusxasi.
- 1) tasviriy san'atda rassom tomonidan ijodiy yaratilgan san'at asari;
- 2) nusxasi olingen har qanday tasviriy san'at asari.
- Ottisk** — bosma nusxa.
- Ofset** — bosma formadan rezina moslamaga ko'chirib, undan qog'ozga bosish usuli.
- Pereplet** — kitobning qattiq qoplamlali jildi.
- Perspektiva** — qisqarish.
- Pechat** — bosma.

**Plastinka** — bosma uchun ishlataladigan metall taxtacha.

**Ploskaya pechat** — bosma elementlarni bir xil tekislikda joylashuvi, litografiya texnikasi misol bo‘la oladi.

**Plyur** (frans. pelure, ma’nosi — meva po’stlog‘i) — qimmatbaho, sovg‘a uchun mo‘ljallangan nashrlarda har bir illyustratsiyaning (reproduksiya) yuqori qismiga yopishtilgan yupqa kalka qog‘ozni, tasvirni shikastlanishdan himoya qiladi.

**Podkladka** (grafikada) — qo‘srimcha bosma olish taxtachasi.

**Polosa** — kitob, gazeta, jurnalning bosma tushadigan yuzasi, beti, sahifasi.

**Polya** (margins) — hoshiya — betning kesiladigan qirrasidan bosma yuzasigacha bo‘lgan oraliq.

**Proporsiya** (lotin. rroportio — mutanosiblik) — qism o‘lchovi, o‘lcham-larning bir-biriga va butun shaklga bo‘lgan nisbati. Rassom proporsiya yordamida buyum va qomat shaklini qurishda, asarning kompozitsiyasini tuzishda katta aniqlik kiritadi. Bunga tekislik shakli nisbati, fonga tasvir o‘lchami nisbati, guruhlar nisbati kabilar kiradi.

**Razvorot** — ikki tutash bet.

**Redaktor** — muharrir.

**Reproduksiya** — asarning bosma nusxasi.

**Risuyushchaya doska** — asosiy bosma oladigan taxtacha.

**Satirik** — hajviy.

**Siluet** — soya tasviri.

**Simvolik** — ramziy.

**Slizura** — eni 4–5 sm bo‘lgan qalin, chidamli qog‘oz kesmasidan tayyorlanadi, forzasning koreshok bilan buklangan qismi mustahkamligini kuchaytiradi.

**Snoska** — asosiy matnga qo‘srimcha yoki izoh, sahifaning quyi qismida joylashtirilgan bo‘lib, belgi bilan ajratiladi (yulduzcha yoki raqam). Matnga nisbatan yaqqol farqlanadigan kichik shriftda teriladi.

**Spuskovaya polosa** — kitobning boshlang‘ich sahifasidagi ochiq joy.

**Standart** — tasdiqlangan hajmda, shaklda.

**Statichnost** (grek. statos — harakatsiz turgan) — dinamikaga qarama-qarshi, aksincha, tinch holat, harakatlanmaydigan.

**Stil** (grek. stylos; frans. style — manera, dastxat) — (dastxat) bir guruh rassomlarga yoki bitta rassomga xos bo‘lishi mumkin. Agar uning ijodi keskin farq qilsa, faqat unga xos tomonlari mavjud bo‘lsa, bunday rassomlar ham alohida dastxat (stil)ga ega bo‘ladilar.

**Suxaya igla** — igna bilan metall taxtachaga rasm ishlash.

**Tema** (grek. thema — asosiy fikr) — rassomning asarda tasvirlash va g'oyani ochib berish uchun tanlangan hodisa, voqealari.

**Texnologiya** — mahsulot tayyorlanish jarayonining texnik tarkibi.

**Titul** — kitob blokning birinchi varagi, beti.

**Torsevaya gravyura** — tanlangan yog'ochning yon tomoniga o'yib ishlangan tasvir.

**Faktura** (lotin. factra — ishlov berish, qurish) — 1) ashyo (material)ning xarakter xususiyati, naturada buyumning sirti va uning san'at asaridagi tasviri (masalan, kartinada yoki naturada shisha ko'zaning yaltiroq sirti, yuzasi); 2) materialning ishlov berilganlik xususiyati, materialning xarakterli sifati (masalan, nafis tasviriy asar fakturasi — bu mezon (iz), bo'yoq qatlamining xarakteri. U silliq, g'adir-budir, relyefli va shu kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin, haykaltaroshlikda ishlov berilgan tosh, yog'och va boshqalarning yuzasidir). Faktura rassom o'ziga xos ishlov berish uslubi bo'lishi mumkin. Shuningdek, qanday bo'yoqdan foydalaniyligani bog'liq.

**Fiksat** (frans. fixateur — mustahkamlash, qotirish, mahkamlash) — chizmatasvirni yaxshi saqlanishi uchun mustahkamlovchi maxsus suyuqlik.

**Fon** (frans. fond — tag, chuqurlik qismi) — naturada va tasviriy san'atda shakllar ortida joylashgan muhit, tasvirda orqa plan. Tasviriy san'atda fon tasvirli yoki tasvirsiz bo'lishi mumkin.

**Forzas** — kitob varaqlarini jild bilan biriktirib turadigan qalinroq qog'oz

**Forma** (lotincha forma — tashqi ko'rinish, qiyofa; 2) tasviriy san'atda forma deganda shaklning tashqi xususiyatiga aytildi. Tasviriy san'atda badiiy forma — bu kompozitsiyasi tuzilishi, vositalar birligi, hamjihatligi, usuli, badiiy ashyoda amalga oshirilganligi va badiiy g'oya mujassamligidir.

**Format** (nem. format; lot. forma — sirtqi) — tasvir bajarilayotgan tekislik shakli (to'g'ri to'rtburchak, oval, doira va boshqalar). Format balandligining eniga nisbati va umumiyligi doira chegarasiga bog'liq. Kartina formati tasvir kompozitsiyasiga to'g'ri kelishi lozim.

**Fragment** (lotin. fragmentum — bo'lakcha) — asarning bir qismi, bo'lakchasi.

**Foreskiz** — birlamchi xomaki nusxa.

**Frontispis** titul yoniga joylashtirilgan rasm va kitobning asosiy mazmunining tasviri.

**Futlyar** (nem. Futteral, lot. fotrum, fotrale — nojni, quti) — kitob g'ilofi karton quti nodir va qimmatbaho nashrlarni shikastlanishdan himoya qilish vazifasini o'taydi.

**Xarakter** – fe'l, axloq, xulq-tasviriy sanatda modelning ichki va tashqi holatini o'ziga xosligini belgilaydi.

**Sinkografiya** – grafika texnikasi rux plastinkaga fotografiya tushirilib, kislotada ishlov berilgandan so'ng yuqori bosmada olinadigan nusxa.

**Shaber** – ofortda ishlatiladigan asbob.

**Shelkografiya** – ipak matoni qo'llagan holda tasvir tushirilib, so'ngra bosma nusxa olish usuli.

**Shyolk** – ipak mato.

**Shmustitul** – har bir bob, qismlar boshlanishidagi titul.

**Shrift** – bosma harf.

**Shtixel** – linogravyura ishslash uchun asbob.

**Shtrix** (nem. – strich – chiziq) – chizmatasvirda tasvirlash vositalaridan biri, turli yo'nalishdagi chiziqlar.

**Ekspressiya** (lotin. expressio – ifodalilik) – shijoat, shiddat, tezkorlik, ifodalilik, fikr, kayfiyat va his-tuyg'ularning yorqin namoyon bo'lishi. San'at asarining yuqori darajada shijoatli ifodalaniши.

**Element** – kitob tarkibiy qismini tashkil qiluvchi tasvir va detallar.

**Emosional** – jo'shqin.

**Epigraf** – mashhur mualliflarning so'zlaridan parcha, sitata, maqol, hikmatli so'zlar, asarning yoki uning alohida bo'lim va qismlari asosiy g'oyasini ifodalovchi so'zlar.

**Eskiz** [frans. esquisse – nabrosok (qoralama)] – ijodiy g'oyaning asar uchun bajarilgan qoralamalari. Eskiz har xil usul (texnika)da bajarilishi mumkin. Eskiz bir necha variantda bajariladi va eng yaxshi deb topilgani asar uchun asos qilib olinadi.

**Estamp** – bosma usulda ko'paytirilgan san'at asari.

**Estetika** (grekcha. aisthetikos) – hayotda va tasviriy san'atda go'zallik haqidagi fan. Estetika borliqqa san'atning munosabati, badiiy ijod qonunlari asosini, ijtimoiy hayotda san'atning rolini o'rghanadi. Go'zallik – estetika keng ahamiyatini o'rghanadi.

**Chernaya manera** – qora texnika (ofortning mesotinto usulida ishslash).

---

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Sh.M. Mirziyoyevning* 20-aprel 2017-yildagi PQ-2909 «Oliy ta’lim tizimimi yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida» qarori.
2. *Dwight Pogue*. «Printmaking Revolution». Watson-Guptill Publications, an imprint of the Grown Publishing Group, a division of Random House, Inc., New York. 2012.
3. *Alois Senefelder*. «Lehbuch der Lithographie und des Steindruckes. GMBH, Paderborn, Germaniya. 2012.
4. *Baines, Phil and Haslam, Andrew*. Type & Typography, second edition. New York: Waston-Guptill Publications, 2005.
5. *Grid System In Graphic Design* J. Muller-Brockmann, 2011 – Niggli Verlag.
6. *S.A. Abdullayev*. «Rangtasvirda kompozitsion yechim». Toshkent. «Sharq» nashriyoti. 2007.
7. *Sh. Abdumalikov*. «Kompozitsiya (ssenografiya)». – T. Iqtisod moliya. 2009.
8. *A.J. Kalanov*. «Grafika kompozitsiyasi» Info press. Toshkent. 2018.
9. *R.A. Xudoyberganov, B.R. Xudoyberganov*. «Chizmatasvir». – T.: G‘.G‘ulom NMIU. 2015.
10. *D. Nozilov, V. Dmitriyeva, N. Hojiboyev*. «Kompozitsiya asoslari.» – T.: 2006.
11. *M.E. Toshmurodov*. «Chizmatasvir». – T.: «NOSHIR». 2012.
12. *A.A. Xakimov*. «Prikladnoye iskusstvo Uzbekistana: tradisiis innovasiis». – T.: YUNESKO. 2013.

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

### I bob. Kitob va kitob bosmaning vujudga kelish tarixi

1.1. Kitob va kitob bosmaning vujudga kelishi. A. Kalanov.....	5
1.2. Mavarounnahr va Xurosonda kitob tayyorlanishi tarixi.	
Temuriylar davrida kitob san'ati. A. Kalanov.....	8
1.3. Kitob bosma ixtirochisi Iogann Gutenberg. A. Umarov.....	12

### II bob. Maketlashtirishning nazariy asoslari

2.1. «Maketlashtirish» fanining usullarini o'rgatish haqida tushunchalar. A. Kalanov.....	16
2.2. Kitob konstruksiyasi. A. Kalanov.....	18
2.3. Kitob kompozitsion elementlarining atamalari.....	19
2.4. Hoshiya — Polya (margins). A. Umarov.....	37
2.5. Kitobning kompozitsion tuzilishi. A. Kalanov.....	40
2.6. Maketlashtirishning usullari. Poligrafiya atamasi, «maket» tushunchasi. A. Kalanov.....	48
2.7. Shrift. A. Kalanov. A. Umarov.....	54

### III bob. Yumshoq qoplamlari, aniq betma-bet hisob kitobli maketni qo'lda tayyorlash

3.1. Kitob maketini tayyorlash jarayoni. A. Kalanov. A. Umarov.....	57
3.2. Bir necha daftarchadan tashkil topgan, 48 betdan ortiq bo'limgan yumshoq muqovali kitob maketini yaratish. A. Kalanov.....	59
3.3. Kitob maketini yaratish jarayonining asosiy bosqichlari. A. Kalanov.....	62
3.4. Matn terish qoidalari. A. Kalanov, J. Rashidov.....	69
3.5. Kitob matni. A. Kalanov. ....	72
3.6. Kitobning ichki elementlari ustida ishlash. A. Kalanov.....	77

### IV bob. Qo'lda ishlangan maket asosida kompyuter grafik dasturlarida kitob maketini tayyorlash va bosma nusxasini olish

4.1. Sahifalash uchun grafik dasturlar. A. Kalanov, A. Umarov.....	81
4.2. Qattiq qoplamlari aniq betma-bet hisob kitobli maketni qo'lda ishlash. A. Kalanov.....	86
4.3. Kitob ichki elementlari ustida ishlash. A. Kalanov.....	91
4.4. Qattiq qoplama, supermuqova va g'ilofli kitobni qo'lda yasash. A. Umarov.....	94
4.5. Kitob sahifalashning modul tizimi A. Kalanov. A.Umarov.....	95
4.6. Texnik jarayon. A. Kalanov, A. Umarov, J. Rashidov.....	98

**KALANOV ASLIDDIN DJO'RAEVICH  
UMAROV ABDULAZIZ ABDULXAYEVICH  
RASHIDOV JAMSHID XUSAN O'G'LI**

## **MAKETLASHTIRISH**

*fanidan o'quv qo'llanma  
bakalavr yo'naliishi dasturi asosida yaratilgan*

*Muharrir **Habib Abdunazar**  
Badiiy muharrirlar **Nasiba Ergasheva,**  
**Maftuna Vaxxobova**  
Texnik muharrir **Yelena Tolochko**  
**Musahhih **Habib Abdunazar*****  
*Sahifalovchi **Gulchehra Azizova***

Litsenziya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2019-yil 11-noyabrda ruxsat etildi. Bichimi  $60 \times 84^1/_{16}$ . Ofset qog'ozzi. Tayms TAD garniturasi. Sharqli bosma tabog'i 8,84. Nashr tabog'i 8,12. Shartnoma № 111-2019. Adadi 100 nusxada. Buyurtma № 71

Original maket Axborot va ommaviy kommunatsiyalar agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida tayyorlandi. 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.  
Telefon: +998-71244-10-45. Faks: +998-71244-58-55.

«AVTO-NASHR» XK bosmaxonasida chop etildi. 100005, Toshkent, 8-mart, 57.



*Cho'lpón nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodiy uyl*

ISBN 978-9943-6134-0-9

9 789943 613409